

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**I RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2025

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.uz>

<https://sp-press.uz>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 7-may

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-144-5

KBK 72(50')ya43

Y61

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 137 bet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025>

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz> | <https://sp-press.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 7-may, 2025-yil

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda “Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar” mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© “Sciences problems team” MChJ, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

<i>Боймуродов Хусниддин, Пардаев Юнус, Хафизова Малика</i> APORRECTODEA ROSEA (SAVIGNY, 1826) ЁМҒИР ЧУВАЛЧАНГИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ	6-9
--	-----

TEXNIKA FANLARI

<i>Инагамов Бобур</i> СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИ ВА СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ СОҲАЛАРИДА АМАЛИЙ ТАЖРИБАГА АСОСЛАНГАН ТАЪЛИМНИ ШАКЛЛАНТИРИШ: ДУАЛ ТАЪЛИМ МОДЕЛИ: КОРХОНА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК	10-12
---	-------

TARIX FANLARI

<i>Umarov Sardor</i> GERMANIYANING ILMIY-MADANIY TARAQQIYOTIDA O'ZBEKISTON VA GERMANIYA XALQ DIPLOMATIYASI DOIRASIDAGI HAMKORLIGINING O'RNI	14-21
<i>Suyarov Maxmudjon</i> ELLINIZM DAVRIDA YUNON YOZUVINING O'RTA OSIYODAGI MAHALLIY TILLARGA TA'SIRI	22-27

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> PAXTA TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	28-31
<i>Mahsudov Muzaffar</i> DIGITAL TRANSFORMATION AS A CATALYST FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	32-35
<i>Axmedov Latayibxon</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA O'Z KAPITALI HISOB TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI	36-39
<i>G'afurova Dilshoda</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	40-43

FALSAFA FANLARI

<i>Danabayev Xurshid</i> KAMBAG'ALLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOY – FALSAFIY MOHIYATI.....	44-47
<i>Norliyev Rustam</i> INSON VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUVOZANAT: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL.....	48-51

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abdubannoyeva Aziza</i> PSIXOLINGVISTIK TAHLIL METODLARI.....	52-54
<i>Abdumajitov Khurshid</i> THE PHENOMENON OF ANTONYM IN THE LEXICON OF SUMMER SPORTS IN ENGLISH AND UZBEK.....	55-57

<i>Asqaraliyeva Dilshoda</i> O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDAN MUMTOZ ADABIYOTDA FOYDALANISH VA ULARNING TARBIYAVIY-AXLOQIY XUSUSIYATLARI	58-60
--	-------

<i>Исматова Наталья</i> ИСТОКИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ОБРАЗА ИСТОРИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ	61-65
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Холов Уткур</i> ҚОНУНИЙ КУЧГА КИРГАН СУД ҲУЖЖАТЛАРИНИ ЯНГИ ОЧИЛГАН ҲОЛАТЛАР БЎЙИЧА ҚАЙТА КЎРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ	66-69
--	-------

<i>Otamirzayev Oybek</i> YER OSTI SUVLARI HOLATIDA HUQUQIY BIR NAZAR.....	70-73
--	-------

<i>Ergashova Shahrizoda</i> TRIPS VA WIPO SHARTNOMALARI DOIRASIDA RAQAMLI AKTIVLAR HUQUQIY MAQOMINING EVOLYUTSIYASI.....	74-76
--	-------

<i>Burxonov Shahzod</i> XALQARO MEHNAT TASHKILOTI VA UNING XALQARO MEHNAT STANDARTLARINI ISHLAB CHIQUISHDAGI O'RNI.....	77-80
---	-------

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor</i> O'QUV FAOLIYATI TAMOIYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR	81-83
--	-------

<i>Исмагилова Мадинабону</i> НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА	84-86
--	-------

<i>Olimov Talat</i> O'QITUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI	87-89
--	-------

<i>Kamolova Umida</i> O'QUVCHILARDA ESTETIK DIDNI SHAKLLANTIRISHDA POETIK TAHLILLAR	90-92
--	-------

TIBBIYOT FANLARI

<i>Tursunova Laylo, Qilichov Sherbek</i> SURUNKALI BUYRAK KASALLIKLARI BOR BEMORLARDA ARTERIAL GIPERTENZIYANING RIVOJLANISH MEKANIZMI VA BUYRAKLARNING FUNKSIONAL FAOLIYATIGA TA'SIRI	93-102
--	--------

<i>Сафоева Саломат</i> КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ЛЕЧЕНИЯ ПАЦИЕНТОК С ПОЛИКИСТОЗОМ ЯИЧНИКОВ АССОЦИИРОВАННЫМ С ГИПОФУНКЦИЕЙ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ	103-106
---	---------

<i>Ergashev Bekzod</i> JINSIY XROMOSOMALARDA GENLARNING ANORMAL KO'RINISHI.....	107-112
--	---------

Jurayeva Gulasalxon

REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIKNING
RIOVLANISH XAVF OMILLAR, KASALLIKNING TARQALGANLIGI VA BUYRAKLAR
ZARARLANISH VARIANTLAR 113-121

Ro'zumbetova Safura, Umarova Zamira

PODAGRIK NEFROPATIIYADA BUYRAKLARNING SHIKASTLANISH MEXANIZMI..... 122-127

FARMATSEVTIKA FANLARI

Shakirova Dinora, Xabibullayeva Shoir

DETERMINATION OF THE ANTIMICROBIAL EFFECT
OF DRIED RASPBERRY LEAVES 128-132

PSIXOLOGIYA FANLARI

Bekmuratova Xalima

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA KASBIY MOTIVATSIYANI
SHAKLLANTIRISH: IJTIMOIIY MUHITNING TA'SIRI 133-136

BIOLOGIYA FANLARI

APORRECTODEA ROSEA (SAVIGNY, 1826) ЁМҒИР ЧУВАЛЧАНГИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ЭКОЛОГИЯСИ

Боймуродов Хусниддин

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар
университети профессори

Пардаев Юнус

Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни
қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти
Самарқанд филиали "Спорт психологияси,
ижтимоий-гуманитар ва табиий-илмий
фанлар" кафедраси катта ўқитувчиси

Хафизова Малика

Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар
университети магистри

Аннотация. Тадқиқотлар натижасида *Aporrectodea rosea* (Savigny, 1826) танасининг узунлиги 36-151 мм, диаметри 3-7 мм. Ҳалқалари сони 71 дан 172 тагача, териси рангсиз. Танаси кесими тўғарак, бош тузилиши эпилобик шаклда, орқа тешиклари 4-5-ҳалқалар оралиғидан бошланади. Туклари ўзаро яқин жойлашган, аб туклар йўналиши бўйлаб 9-12 ва белбоғ камари ҳалқаларида безли папиллалари бор. Эркаклик жинсий тешиги 15-16 ҳалқада жойлашган бўлиб, атрофи без билан қопланган. Белбоғ камари 24-25 ёки 26-ҳалқалардан бошланиб, 31,32, 33- ҳалқаларгача давом этади.

Калит сўзлар: Зарафшон водийси, *Aporrectodea rosea*, Бухоро, Навоий, агроценозлар, танасининг узунлиги, тупроқ намлиги, максимал таъсир.

DISTRIBUTION AND ECOLOGY OF THE EARTHWORM APORRECTODEA ROSEA (SAVIGNY, 1826)

Boymurodov Khusniddin

Samarkand State Veterinary Medicine,
animal husbandry and biotechnology
university professor

Pardaev Yunus

Senior teacher of the Department of "Sports
Psychology, Social-Humanities and Natural-Sciences"
of the Samarkand Branch of the Institute for
Retraining and Advanced Training of
Specialists in Physical Education and Sports

Khafizova Malika

Master of Science, Samarkand State University

of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology

Abstract. As a result of the research, the body length of *Aporrectodea rosea* (Savigny, 1826) was found to range from 36 to 151 mm, and its diameter from 3 to 7 mm. The number of segments varies from 71 to 172. The skin is colorless. The body is cylindrical in cross-section, and the head structure is of the epilobic type. The dorsal pores begin between the 4th and 5th segments. The setae are closely spaced, with 9–12 setae along the ab setal line, and glandular papillae are present on the segments of the clitellar belt. The male genital pores are located on segments 15–16 and are surrounded by glands. The clitellum begins from segment 24–25 or 26 and continues up to segments 31, 32, or 33.

Keywords: Zarafshan Valley, *Aporrectodea rosea*, Bukhara, Navoi, agrocenoses, body length, soil moisture, maximum effect.dual education, quality management, certification, practical experience, enterprise-education cooperation, ISO standards.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-1>

Кириш. Куйи Зарафшон тупроқ экотизимларида ёмғир чувалчангларининг таксономик рўйхатини шакллантириш мақсадида хозирги кунгача олиб борилган изланишларни ва кейинги тадқиқотларимиздан олинган натижалар асосида қиёсий таҳлил қилдик. Бу ҳудуддаги тупроқларда тарқалган ёмғир чувалчангларининг узунлиги ўртача 15,2 -20,3 см атрофида эканлиги аниқланди. Танасидаги ҳалқалар сони ўртача 82 дан 259 гача бўлиши таҳлил қилинди. Ҳар бир ҳалқасида 4 жуфтдан туклар бор. Туклар Ёмғир чувалчанлари ҳаракатланганда таянч бўлиб хизмат қилади. Махсус сезги органлари ривожланмаган, бироқ терисида жуда кўп сезгир ҳужайралари бор. Териси орқали нафас олади. Хозирги вақтда *Aporrectodea rosea* (Savigny, 1826) ёмғир чувалчангларининг тарқалиши ва экологиясини ўрганиш долзарб муаммолардан бири бўлиб ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Ёмғир чувалчанглари фаунаси ва экологиясини ўрганиш бўйича K.Sharma, V.K.Garg (2018), D.F.Marchán, Cs.Csuzdi (2021), R.A. Atabak va boshq (2021), G.N.Ganin (2013), A.P.Geraskina (2016), S.V.Shexovsov va boshq., (2016), M.N.Kim-Kashmenskaya (2016), S.A.Ermolovlarning (2019), S.Dadayev, A.Raxmatullayev, T.Kobilov, U.Raxmatov (2004), Asirovich (2011) L.Фофурова,(2014), D.Egamberdiyeva (2010) va O.X. Ergasheva (2018) тадқиқотлар олиб боришган [1,2, 3,7,9,10].

Тадқиқот методологияси. Зарафшон водийси куйи қисми агросенотларида ёмғир чувалчангларининг тарқалишини ўрганиш учун 2020-2025 йиллар тадқиқотлар олиб борилди, 190 та дан ортиқ намуналар таҳлил қилинди. Ишни бажаришда биологик, экологик, биометрик, статистик ва қиёсий таҳлил усулларидадан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Ёмғир чувалчанглари тупроқнинг турли қатламларида яшайдиган Oligochaeta синфи, Opisthoroga туркумига мансуб Lumbricidae оиласи киради. Дунё бўйлаб ёмғир чувалчангларининг 4400 дан ортиқ турлари мавжуд. Ўрта Осиё минтақасида lumbricid фаунаси бўйича тадқиқотлар кам амалга оширилган. Ўзбекистонда ҳам ёмғир чувалчанглар фаунаси ва биоэкологияси жуда кам ўрганилган ҳудуд ҳисобланади. Шунга қарамай, шу кунгача Ўзбекистон тупроғида ёмғир чувалчангларининг 21 тури мавжудлиги эътироф этилади. Зарафшон дарёси куйи оқими агросенотларида ёмғир чувалчанглар бўйича фундаментал тадқиқотлар амалга

оширилмаган бўлиб, аввалги адабиётларда келтирилган маълумотлар оила вакиллариининг Ўзбекистонда тарқалиши, уларнинг тур сони ва бошқа кўплаб биоэкологик хусусиятларини очиб бера олмайди. *Aporrectodea rosea* тури тўлиқ ўрганилмаган.

***Aporrectodea rosea* (Savigny, 1826)**

Синонимлар: *Enterion roseum* Savigny, 1826: 182; *Allolobophora dairenensis* Kobayashi, 1940: 261; *Allolobophora Allolobophora prashadi* Mihailova, 1964: 167; *Eisenia hataii* Huang et al., 2006: 18.

Иқлим зонаси: Бореал, мўтадил ва Ўрта ер денгизи иқлими баъзи вақтларда континентал иқлимли зоналарда ҳам учраши қайд қилинган.

Яшаш жойи: чўл, адир ва тоғолди ва унга яқин нам тупроқларда кўпроқ учрайди.

Тарқалиши: Қизилқум чўли, Помиро-Олай, Тянь-Шан ҳудудлари, (ZooIK) 3 нусха, Устюрт платосидан ташқари бутун Ўзбекистон бўйлаб тарқалган. Танасининг узунлиги 36-151 мм, диаметри 3-7 мм. Ҳалқалари сони 71 дан 172 тагача, териси рангсиз. Танаси кесими тўғарак, бош тузилиши эпилобик шаклда, орқа тешиклари 4-5-ҳалқалар оралиғидан бошланади (1-расм). Туклари ўзаро яқин жойлашган, аб туклар йўналиши бўйлаб 9-12 ва белбоғ камари ҳалқаларида безли папиллалари бор. Эркаклик жинсий тешиги 15-16 ҳалқада жойлашган бўлиб, атрофи без билан қопланган. Белбоғ камари 24-25 ёки 26-ҳалқалардан бошланиб, 31,32, 33- ҳалқаларгача давом этади.



1-расм. *Aporrectodea rosea*

Безли валиги 28-32-ҳалқаларнинг ён томонида жойлашган. Уруғ халталари 4, баъзида 3 ёки 2 жуфт бўлиши мумкин. Икки жуфт уруғ қабул қилгичи 9-10 ва 10-12-ҳалқалар оралиғида, орқа томонига яқинроқ жойда очилади. Дивертикул шаклдаги оҳак безлари 10-нчи ҳалқада жойлашган. Мускул тўқимаси оралиқ шаклда тузилган. Космополит тур. Тадқиқотларимизда Зарафшон дарёси қуйи оқими агроценозлари ва уларнинг атрофидаги тупроқларда қайд этилди.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Войтехов М.Я. О некоторых факторах, лимитирующих почвообразовательную роль дождевых червей в европейской части таежной зоны России // Почвы и окружающая среда. 2018. Т. 1. № 4. С. 267–276.

2. Гапонов С.П., Хицова Л.Н. Почвенная зоология. Воронеж: Воронежский государственный университет, 2005. 143 с.
3. Гафурова Л.А., Набиева Г.М., Кучкарова Л.С., Аскарходжаев Н.А., Рахматуллаев А.Ю., Махкамова Д.Ю., Эргашева О.Х. "Внедрение в сельском хозяйстве экологически чистых ресурсосберегающих технологий в повышении плодородия деградированных почв". // О научно-исследовательской работе инновационный проект ИОТ-2013-5-33. (НУУЗ им.М.Улугбека) Ташкент -2014 г.
4. Bekchanova M.K., Abdullaev I.I. Xorazm vohasi yomg'ir chuvalchaglari (Lumbricidae) tur tarkibini aniqlash uslublari // -Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi|| — Xiva, 2022. № 6/1 bet 40-42.
5. Bekchanova M.K., Abdullaev I.I. Shimoli-g'arbiy O'zbekiston hududining yomg'ir chuvalchaglari (Oligochaeta: Lumbricidae) bioxilma-xilligi // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. — Xiva, 2023. № 3/1. — b. 7-12.
6. Rakhmatullaev A, Gafurova L, Egamberdieva D. 2010. Ecology and role of earthworms in productivity of arid soils of Uzbekistan. // Dynamic Soil, Dynamic Plant 4 (1): 72–75.
7. Рахматуллаев А.Ю. «Распространение дождевых червей- Чаткальского горно-лесового заповедника».// 6-я Пущинская школа-конференция молодых ученых 20-24 мая 2002 г. Т.№2, с.132.
8. Рахматуллаев А.Ю. «Экология компостных дождевых червей — *Eisena fetida*». // Илмий маколлалар туплами, Карши, 2002. с.74-74.
9. Рахматуллаев А.Ю., Мавлонов О.М., Камилова Ш.И., Бекбергинова З.О. Распространение и экологические особенности дождевых червей в Ташкентский оазис. // 1-я меж.конф. Молодых ученых (Владикавказ) Россия, 2005. 63-68 с.
10. Raxmatullaev A.Yu., Ermatova D.A. Issiqxonalarda kimyoviy preparatlaning qo'llanishi yomg'ir chuvalchaglariga ta'siri. // Ilmiy-amaliy anjuman «Biologiya va uni o'qitishning dolzarb muammolari» Toshkent, 2009. 267- 268 betlar.
11. Raxmatullaev A.Yu., Hamraev A.Sh., Xolmatov B.R. O'zbekistonning yomg'ir chuvalchaglari (morfoloqik va biologik xususiyatlari hamda ularning turlarini aniqlagich jadval). Uslubiy o'quv qo'llanma. Toshkent, 2009. 56 b.

TEXNIKA FANLARI

СИФАТ МЕНЕЖМЕНТИ ВА СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ СОҲАЛАРИДА АМАЛИЙ ТАЖРИБАГА АСОСЛАНГАН ТАЪЛИМНИ ШАКЛЛАНТИРИШ: ДУАЛ ТАЪЛИМ МОДЕЛИ: КОРХОНА ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК

Инагамов Бобур

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Техник
жиҳатдан тартибга солиш агентлиги
Инсон ресурсларини ривожлантириш
ва бошқариш бўлими бошлиғи
Тел.: +998 93 388 19 80
Ўзбекистон, Тошкент

Аннотация. Мазкур мақолада сифат менежменти ва маҳсулотларни сертификатлаштириш соҳаларида мутахассислар тайёрлаш жараёнида амалий тажрибанинг аҳамияти ҳамда дуал таълим модели орқали таълим ва ишлаб чиқариш ўртасидаги ҳамкорликнинг самарадорлиги таҳлил қилинган. Дуал таълим модели назарий ва амалий таълимни уйғунлаштириш орқали юқори малакали кадрларни тайёрлашда муҳим восита ҳисобланади. Мақолада Германия ва Ўзбекистон тажрибалари мисолида ушбу моделнинг афзалликлари кўрсатилган ҳамда корхоналар билан таълим муассасалари ўртасидаги самарали ҳамкорлик шакллари тавсифланган.

Калит сўзлар: дуал таълим, сифат менежменти, сертификатлаштириш, амалий тажриба, корхона-таълим ҳамкорлиги, ISO стандартлари.

DEVELOPMENT OF EDUCATION BASED ON PRACTICAL EXPERIENCE IN THE FIELDS OF QUALITY MANAGEMENT AND CERTIFICATION: A DUAL LEARNING MODEL: COLLABORATION BETWEEN ENTERPRISE AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Bobur Inagamov

Head of the Department for Human Resources
Development and Management Agency for Technical
Regulation under the Cabinet of Ministers,
Tel.: +998 93 388 19 80
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the importance of practical experience in the training of specialists in the fields of quality management and product certification, as well as the effectiveness of cooperation between education and production within the framework of the dual education model. The dual education model serves as a vital mechanism for preparing highly qualified personnel by integrating theoretical and practical learning. The article highlights the advantages of this model through examples from Germany and Uzbekistan and outlines effective forms of collaboration between enterprises and educational institutions.

Keywords: dual education, quality management, certification, practical experience, enterprise-education cooperation, ISO standards.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-2>

Сифат менежменти ва маҳсулотларни сертификатлаштириш соҳалари мутахассисларидан юқори малакани, назарий билимлар билан бир қаторда амалий кўникмаларни ҳам талаб этади. Бугунги кунда меҳнат бозоридаги талаб ва таълим муассасаларидаги таълим мазмуни ўртасидаги номутаносибликни бартараф этиш учун дуал таълим моделига асосланган ёндашув муҳим аҳамият касб этмоқда.

Дуал таълим модели — бу назарий таълимни корхонадаги амалий таълим билан биргаликда олиб бориш тизимидир. Бу модел Германия, Швейцария ва Австрия каби мамлакатларда кенг қўлланилиб, ёш мутахассисларнинг меҳнат бозорида рақобатбардошлигини таъминлашда ўз самарасини кўрсатган. Масалан, Германияда ҳар йили 1,5 миллионга яқин талабалар дуал таълим тизимида иштирок этади.

Бу моделнинг афзалликлари қуйидагилардан иборат: амалий кўникмаларни ривожлантириш; таълим ва иш ўртасидаги узвий боғланиш; меҳнат бозори эҳтиёжларига тез мослашиш; корхоналар учун малакали кадрларни тайёрлаш имконияти.

Сифат менежменти соҳасида мутахассисдан ISO 9001, ISO 14001, ва бошқа халқаро стандартлар бўйича билимлар, сифат назорати усуллари, ички ва ташқи аудит жараёнлари ҳамда барқарор ривожланиш принципларини қўллаш кўникмалари талаб этилади.

Масалан, «UZCERT» сертификатлаштириш марказида тажриба ўтаётган талабалар ISO стандартлари бўйича ҳужжатлар тайёрлаш ва ички аудитни ўтказишда қатнашадилар. Бундай амалий машғулотлар уларнинг билим ва кўникмаларини мустаҳкамлайди.

Сертификатлаштириш жараёнида эса маҳсулотнинг сифатини текшириш, техник ҳужжатларни расмийлаштириш, синов лабораторияларида тестлаштириш каби вазифалар амалга оширилади.

Техник жиҳатдан тартибга солиш – маҳсулот, хизмат ва жараёнлар сифатини таъминлаш ҳамда хавфсизлигини назорат қилишда муҳим механизм ҳисобланади. Ўзбекистондаги иқтисодий ислохотлар, рақобатбардош иқтисодиётга ўтиш ва экспорт салоҳиятини ошириш жараёнлари техник тартибга солиш соҳасида мутахассислар салоҳиятини оширишни талаб этмоқда. Бунда юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимининг самарадорлиги ва унинг халқаро стандартларга уйғунлиги алоҳида аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги давлат бошқарувини янада такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2024 йил 27 февралдаги ПФ-41-сон Фармони[1] билан Техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги ҳузуридаги Ўзбекистон техник жиҳатдан тартибга солиш агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) Вазирлар Маҳкамаси бўйсунувига ўтказилди.

Фармон билан қуйидагилар Агентлик фаолиятининг асосий йўналишлари этиб белгиланди:

халқаро ташкилотлар ва хорижий давлатлар билан миллий мувофиқликни баҳолаш, синов ҳамда ўлчаш натижаларини экспорт бозорларида тан олиш борасида ҳамкорликни кенгайтириш;

маҳаллий маҳсулотларни ишлаб чиқаришда халқаро стандартлар ва техник регламентларни жорий этиш орқали уларнинг замонавий талабларга мувофиқлигини таъминлаш ва ташқи бозорларда рақобатбардошлигини ошириш бўйича манзилли чоралар кўриш;

маҳсулотлар (ишлар, хизматлар) сифати ва хавфсизлик талабларига риоя этилиши ҳамда истеъмолчиларнинг ҳуқуқларини нотўғри ўлчаш натижаларининг салбий оқибатларидан ҳимоя қилиш чораларини кўриш;

техник жиҳатдан тартибга солиш, шу жумладан стандартлаштириш ва метрология соҳаларидаги қонунчилик ҳужжатлари бузилишининг олдини олиш ва профилактикасини таъминлаш бўйича таъсирчан чоралар кўриш;

техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасини рақамлаштириш орқали самарадорлик ва натижадорликка эришиш, тадбиркорлик субъектларига кўрсатиладиган давлат хизматлари турларини кенгайтириш, шаффоф ва коррупциядан ҳоли самарали тизимни жорий этиш.

Шунингдек, жорий йилнинг 20 июнь куни муҳандислик соҳаларида кадрлар тайёрлаш ва олий таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш масалалари юзасидан видеоселектор йиғилишида давлатимиз раҳбарининг олимлар, техник йўналишдаги олийгоҳ кафедра мудирлари, ўқув ва илмий марказлар раҳбарлари билан мулоқоти бўлиб ўтди. Мулоқот чоғида билдирилган фикр ва таклифларни чуқур ўрганиб, амалиётга жорий этиш юзасидан мутасаддиларга қатор топшириқлар берди. Шу нуқтаи назардан, ушбу соҳага юқори малакали кадрлар тайёрлаш масаласи кун тартибига чиқди ва бунда дуал таълимга эътиборга қаратишга алоҳида урғу берилди. Бугунги кунда Агентликда ушбу йўналишда бир қатор амалий ишлар олиб борилмоқда.

техник жиҳатдан тартибга солиш соҳаси йўналишларида Ўзбекистон таълим тизимида дуал таълим, амалиётга йўналтирилган фанлар ва ISO талабларига мувофиқ ўқув дастурларини жорий этини янада жадаллаштириш мақсадга мувофиқ. Албатта, дуал таълим бўйича ҳуқуқий асос мавжуд[2]. Ушбу ҳужжатда белгиланган вазифаларни амалга ошириш ушбу йўналишдаги ишларнинг янада самарали бўлишини таъминлайди. Шунингдек, халқаро тажриба асосида сертификатлашган малака тизимини жорий этиш, таълимнинг мазмунини рақамлаштириш, ҳамкорлик платформаларини ташкил этиш зарур. Компетенцияга асосланган кадрлар тайёрлаш модели миллий ислохотларни самарали амалга оширишга хизмат қилади.

Маҳаллий ва халқаро тажрибалар ҳамда [3,4] адабиётларнинг таҳлилидан дуал таълимнинг самарадорлигини яққол сезиш мумкин. Дуал таълим шаклда ўқитиш жараёни касбий кўникмаларини, яъни талабаларнинг касбий компетенциялари таркибига кирувчи малака ва кўникмаларини оширади. Янги билимлар, назариялар, ғоялар, технологик лойиҳалар бевосита ишлаб чиқариш жараёни муҳитида белгиланган ўқув режасининг мазмунининг амалий қисмини –корхоналардаги тўпланган амалий тажрибани бирлаштириш орқали мустаҳкамланади, моддий-илмий маҳсулотга айланиши таъминланади. Бу талабаларга назарий билимларини амалиётга айлантириш ва қўшимча ўқув йиллари ва қўшимча молиявий харажатларни бартараф этган ҳолда кучли даъвогар сифатида меҳнат бозорига кириш имконини беради.

Дуал таълим моделини самарали амалга оширишда корхона ва таълим муассасаси ўртасидаги ҳамкорлик муҳим рол ўйнайди. Бу ҳамкорлик қуйидаги шаклларда намоён бўлади: қўшма ўқув дастурларини ишлаб чиқиш; корхона мутахассисларининг маъруза ва амалий машғулотларда иштирок этиши; ишлаб чиқариш базасида стажировкалар ташкил этиш; талабаларнинг иш самарадорлигини баҳолаш тизимини йўлга қўйиш.

Масалан, “UzAuto Motors” компанияси Тошкент давлат техника университети билан ҳамкорликда сифат назорати ва маҳсулотни сертификатлаштириш соҳалари бўйича махсус курслар ташкил этган. Бу орқали талабалар иш жараёнларида бевосита қатнашиб, реал муаммолар ечимида иштирок этмоқда.

Сифат менежменти ва сертификатлаштириш соҳаларида рақобатбардош кадрлар тайёрлашда дуал таълим модели муҳим механизм ҳисобланади. Таълим муассасалари ва ишлаб чиқариш корхоналари ўртасидаги самарали ҳамкорлик — амалий билим ва қўникмаларни шакллантиришда ҳал қилувчи омил ҳисобланади.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб қуйидаги тавсияларни бериш мумкин: дуал таълимни қонунчилик асосида тартибга солиш; корхоналарни таълим жараёнига кенг жалб этиш; моддий-техник база ва ўқитувчи кадрлар салоҳиятини ошириш; ҳамкорлик самарадорлигини баҳолаш тизимини яратиш.

Бундай ёндашув орқали нафақат битирувчиларнинг ишга жойлашиш имкониятлари ошади, балки миллий иқтисодиётнинг инновацион салоҳияти ҳам юксалади.

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. <https://lex.uz/docs/6821843/> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги давлат бошқарувини янада такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2024 йил 27 февралдаги ПФ-41-сон Фармони.
2. <https://lex.uz/ru/docs/7332601/> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Олий таълим тизимида дуал таълимни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 2025 йил 16 январдаги 14-сон Қарори.
3. Melin, G. et al. (2016): Towards a future proof system for higher education and research in Finland. Publications of the Ministry of Education and Culture, Finland, 2015. <http://www.minedu.fi/OPM/Julkaisut/2015/liitteet/okm11.pdf>
4. Yu, L. (2012): Research on the Cooperative Education Model Cultivating In Higher Vocational Education. Education and Management Engineering, vol. 1, pp. 35-41.

TARIX FANLARI

GERMANIYANING ILMIY-MADANIY TARAQQIYOTIDA O'ZBEKISTON VA GERMANIYA XALQ DIPLOMATIYASI DOIRASIDAGI HAMKORLIGINING O'RNI

Umarov Sardor Yakubovich,
Samarqand davlat universiteti,
Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. O'zbekiston xalqi bilan Germaniya xalqlarining xalq diplomatiyasi doirasidagi aloqalari uzoq tarixga ega bo'lib, XIX asrning boshlaridan Turkiston hududlariga nemislarning kelishi bilan yanada jadallashdi. Bu davrda nemis millatiga mansub bo'lgan olim va tadqiqotchilar o'lkani tadqiq qilish uchun kela boshladi. E.Eversman, M.Albrext, Bastian shular jumlasidan edi. Shu bilan birga XX asrning boshida Turkiston jadidchilari vakillari ham Germaniyaga bilim olishga yuborilgan edi. O'zbekiston-Germaniya madaniy-ma'naviy hamda ilmiy-ma'rifiy aloqalari savdo-iqtisodiy sohadagi hamkorlikdan kam bo'lmagan darajada yo'lga qo'yilgan. Tarixiy aloqalari bor ikki davlat bugungi globallashgan dunyoda ham madaniy-ma'naviy, fan va maorif sohasida hamkorlikni jadal rivojlantirib bormoqda. Maqolada hozirgi kunda Germaniyada faoliyat olib borayotgan o'zbek xalqi vakillarining bugungi Germaniyaning rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi u yerda mavjud bo'lgan turli jamoat va nodavlat tashkilotlari faoliyati misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xalq diplomatiyasi, do'stlik jamiyati, ilmiy jamiyatlar, madaniy kunlar, madaniyati kunlari, fotoko'rgazma

THE ROLE OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND GERMANY WITHIN THE FRAMEWORK OF PUBLIC DIPLOMACY IN THE SCIENTIFIC AND CULTURAL DEVELOPMENT OF GERMANY

Umarov Sardor Yakubovich,
Samarkand State University,
Samarkand, Uzbekistan

Abstract. The relations between the people of Uzbekistan and the people of Germany within the framework of people's diplomacy have a long history and were further intensified with the arrival of Germans to the territories of Turkestan from the beginning of the 19th century. During this period, scientists and researchers of German nationality began to come to study the country. E. Eversman, M. Albrecht, Bastian were among them. At the same time, representatives of Turkestan Jadidists were also sent to Germany to study at the beginning of the 20th century. Uzbek-German cultural-spiritual and scientific-educational relations have been established to no less extent than cooperation in the trade and economic sphere. The two countries, which have historical ties, are rapidly developing cooperation in the fields of culture, spirituality, science and education in today's globalized world. The article analyzes the contribution of representatives of the Uzbek people currently working in Germany to the development of today's Germany on the example of the activities of various public and non-governmental organizations existing there.

Keywords: public diplomacy, friendship society, scientific societies, cultural days, cultural days, photo exhibition.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-3>

Madaniy aloqalar nafaqat hukumatlararo shaklda balkim, xalq diplomatiyasi ko'rinishida ham qaror topdi va rivojlandi. Xalq diplomatiyasining madaniy hamkorlikdagi o'rni, tomonlarning madaniy hamkorligi masalalarini ochib berish, do'stlik jamiyatilari, ilmiy jamiyatlar tomonidan olib borilgan bu boradagi tadbirlar natijasini ham o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

Xalq diplomatiyasi bilan bog'liq holda shakllangan Germaniya va O'zbekiston madaniy hamkorligi qisqa vaqtda o'z samarasini berdi [1].

Ikki mintaqada joylashgan davlatlar – O'zbekiston va Germaniya madaniyati va tili jihatdan farq qilsada, ikki mamlakat xalqlari orasidagi tarixda boshlangan madaniy-ma'rifiy aloqalar 1993 yil 28 aprelda O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi hukumatlari o'rtasida "Madaniy hamkorlik to'g'risida" bitim imzolanishi bilan qaytadan yo'lga qo'yildi [13]. Madaniy hamkorlik bo'yicha o'zbek-nemis maslahat komissiyasining dastlabki uchta yig'ilishida qabul qilingan Bayonnomalar aloqalarni asoslarini yanada mustahkamladi.

Madaniy sohadagi aloqalarning rivojlanishida **do'stlik jamiyatlari** ham muhim o'rin egallab kelmoqda. Davlatlar o'rtasida xalq diplomatiyasi doirasida hamkorlikning rivojida ikki millat vakillarini birlashtirgan "O'zbekiston-Germaniya", "Berlin-Brandenburg-O'zbekiston" do'stlik jamiyati va 1996-yilda Bonn shahrida asos solingan "Nemis-O'zbek" [1] jamiyatlarining amalga oshirib kelayotgan ishlari ahamiyatlidir. Do'stlik jamiyatlari va madaniy markazlar xalq diplomatiyasi doirasida mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar milliy uyushmasi tomonidan 1991-yilda O'zbekiston va Germaniya xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun "O'zbekiston-Germaniya" jamiyati tashkil qilindi [12]. Uning asosiy maqsadi xalq diplomatiyasining turli ko'rinishlaridan foydalangan holda do'stona aloqalarni mustahkamlash, ko'p tomonlama hamkorlikni shakllantirishdan iborat edi. Jamiyat tarkibida iqtisod va siyosat sohasi vakillarining bo'lishi, faoliyatining iqtisodiy jarayonlar bilan bog'lanib ketishi, jamiyatning huquqiy asoslari mustahkam bo'lmaganligi hamda 1997-yil 15-mayda "O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari Kengashi" ta'sis etilishi natijasida o'zining faoliyatini yakunladi.

Mustaqillikning ilk yillaridan O'zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar milliy uyushmasi Germaniyaning "Berlin-Brandenburg-O'zbekiston" do'stlik jamiyati bilan hamkorlikni samarali yo'lga qo'yildi. Jamiyat tomonidan 1995-yil oktyabrda Germaniyada "O'zbekiston haftaligi" o'tkazilishi aloqalarni mustahkamlash bilan birga nemis millatiga o'zbek madaniyati va tarixini tanishtirish imkonining berdi. Unda M.Turg'unboeva nomidagi "Bahor" xalq raqs ansambli qatnashdi [14]. Shu bilan birga do'stlik jamiyati ko'magida 1995-yil noyabrda Berlin va Potsdamda "O'zbekiston madaniyati kunlari" o'tkazildi. Tadbir davomida O'zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar milliy uyushmasi va "Berlin-Brandenburg-O'zbekiston" do'stlik jamiyati o'rtasida 1996-1998-yillarda hamkorlik qilish bo'yicha bayonnoma imzolandi [12]. Bu bayonnoma ikki jamiyatga xalq diplomatiyasining turli shakllaridan, madaniyat, san'at, fan, ta'lim va tibbiyot sohasidan foydalanib, ko'plab tadbirlarni amalga oshirish imkonini berdi. Bu esa O'zbekiston va Germaniya xalqlariga meros bo'lib qolgan boy madaniyatni yoritib berishga xizmat qildi.

Navbatdagi jamiyatlardan biri "O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyati bo'lib, O'zbekiston va Germaniya xalqlari orasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, o'zini-o'zi boshqaradigan, hukumatga qarashli bo'lmagan ko'ngilli jamoat birlashmasidir [10]. "O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyati 1998-yil 27-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olindi. O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasiga bag'ishlangan konsertlar, ko'rgazmalar, kompleks tadbirlar, tele-kino ko'rsatuvlar, ma'lumot almashinuvi tashkil etish va davra

suhbatlari, konferensiyalar o'tkazish, nemis xalqini O'zbekiston madaniyati, san'ati, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida erishayotgan yutuqlari bilan tanishtirish jamiyat vazifalari sanaladi.

Jamiyat bugungi kunda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Germaniyadagi O'zbekiston elchixonasi, O'zbekistondagi Germaniya elchixonasi, Bonn shahridagi "Nemis-O'zbek" jamiyati va Toshkentdagi boshqa nemis muassasalari, O'zbekistondagi "Wiedergebert" nemis madaniyat markazi bilan hamjihatlikda ish yuritdi [11].

"O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyati ikki mamlakatning jamoatchilik vakillari orasida do'stona uchrashuv va muloqotlarni xalq diplomatiyasi doirasida O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining maqsadlarini amalga oshirish yo'lida uzluksiz tashkillashtirib keladi. Jumladan, asrimizning asosiy muammosidan biriga aylangan ko'krak bezi saratonining oldini olish borasida O'zbekiston hukumati olib borayotgan siyosat bilan hamohang tarzda 2014-yilda do'stlik jamiyati Bonn shahridan kelgan onkolog va momologlar bilan birga muammoni bartaraf etishning yangicha yo'nalishiga bag'ishlangan konferensiya tashkillashtirishi buni isbotlab beradi. Bundan tashqari o'tkazilgan ko'plab tadbirlar ham O'zbekiston taraqqiyoti va jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun xizmat qildi. Jumladan, 2005-yil aprel oyida jamiyatning tashabbusi bilan Toshkent shahridagi shifokor-ayollar Bonn shahriga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida nemis hamkasblari bilan hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. 2005-yil 14-28 may kunlari Bonn shahridagi "Nemis-O'zbek" jamiyati delegatsiyasi vakillari ishtirokida tadbirlar o'tkazildi [8]. 2006 yil iyul oyida Germaniya elchixonasi bilan hamkorlikda jamiyat "Germaniya haqida nima bilasiz?" viktorinasi o'tkazildi [8]. Viktorinadan ko'zlangan maqsad Germaniya haqida o'zbek xalqining bilimlarini aniqlash, nemis xalqining madaniyati va tarixi bilan O'zbekiston ahlini yaqindan tanishtirish edi.

Davlat qurilish akademiyasi tinglovchilari ishtirokida 2007-yil 24-fevralda jamiyatning faoliyati misolida "Globalashuv va madaniyatlararo muloqot" nomli davra stoli tashkil etildi. 2007-yil 5-21-may kunlari O'zbekistonga tashrif buyurgan "Nemis-O'zbek" jamiyati a'zolari jamiyat vakillari bilan birga O'zbekistonning tarixiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva, Nurota, Shaxrisabz shaharlariga, Qo'qon va Rishton tumanidagi kulolchilik buyumlari ustaxonalariga amalga oshirilgan tashriflar o'zbek madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini berdi [8]. Nemis bastakorlarining sara asarlari bilan o'zbek xalqini tanitish maqsadida 2009-yil 9-aprelda Mosart va 30-aprelda Shnitke asarlari asosida O'zbekiston davlat konservatoriyasida "Nemis-O'zbek" jamiyati vakili Shrayber bilan hamkorlikda konsert o'tkazildi [8].

"O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyati o'z filiallarini mamlakatimizning bir necha shaharlarida ochishni maqsad qilgan. Shunga binoan, 2006-yil 14-iyunda Buxoro, Samarqand va Namangan shaharlarida jamiyatning filiallarini ochilishi [8] O'zbekistonda jamiyatning faoliyat ko'lamini kengaytirish bilan birga ikki davlat o'rtasidagi "xalq diplomatiyasi" doirasida aloqalarni yanada mustahkamlash edi. Jamiyatning Buxoro, Samarqand va Namangan shaharlaridagi filiallarining faoliyati bugungi kunda samarali emas.

"O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyatning sayti 2010-yilga kelib ishini boshlashi jamiyat faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanganligini ko'rsatib berdi. 2013-yil 5-iyulda O'zbekiston va Germaniya poytaxtlari – Toshkent va Berlin o'rtasida aloqalar o'rnatilganligining 20 yilligi munosabati bilan jamiyat tomonidan "Toshkent-Berlin. Ikki shahar

fotografiyalarda” nomli foto ko’rgazma tashkil qilindi [7]. Mazkur yilda shuningdek, jamiyat tomonidan “Bizning bolalarimiz Germaniya haqida nima biladi?” nomli bolalar rasm tanlovi tashkillashtirildi. Tanlov davomida bolalar Germaniya tarixi va madaniyatiga qiziqishlarini nomayon qildi. 2014-yil 30-aprelda jamiyatning ko’magida O’zbekiston davlat konservatoriyasida nemis mumtoz musiqasi kompazitori Karl Orfning musiqalari asosida konsert tashkil etildi [8]. “O’zbekiston-Germaniya” do’slik jamiyati tashabbusi bilan 2017-yil 3-mayda, O’zbekistonga 2017-yil 24-apreldan-4-mayiga qadar tashrif buyurgan Bonn shahridagi “Nemis-O’zbek” jamiyati delegatsiyasi ishtirokida O’zbekiston va Germaniyaning diplomatik aloqalari 25 yilligiga bag’ishlangan tadbir bo’lib o’tdi. Bu tashrif chog’ida O’zbekistonga kelgan delegatsiya Toshkent, Xiva, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda bo’lishdi. Bu tashrif chog’ida Toshkent shahrida hamkorlikda bajariladigan loyihalar yuzasidan uchrashuvlar bo’lib o’tdi. Mehmonlar talabalar tomonidan namoyish etilgan bayramning milliy qadriyatlari bilan, shuningdek “O’zbekiston-Germaniya” fotoko’rgazmalari bilan tanishdi [8]. O’tkazilgan tadbirlardan ko’rish mumkinki, nafaqat nohukumat doirada, balkim, hukumat doirasidagi qarashlar asosida ham madaniy ishlar amalga oshirilgan. Bu esa xalq diplomatiyasi O’zbekiston siyosatining ajralmas bir qismi ekanligi ko’rsatib bergan.

Nemislarning O’zbekiston hududida istiqomat qila boshlashi XIX asrning 60 yillariga to’g’ri keladi. Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman bilan birga mennot nemislari o’lkaga ko’chib keladi. Ular dastlab Xorazm hududida joylashgan. 1869-yilda Toshkentda uchta prussiyalik va bitta saksoniyalik yashaganligi haqida ma’lumot bor. 1977-yilga kelganda esa ular soni 17 tani tashkil qilgan. 1882-yilda nemislarning ilk qishloqlari – Konstantin va Stepno shakllandi. 1920-yilga kelganda ularning birinchisida 1403 nafar, ikkinchisida 514 nafar nemis istiqomat qilgan. O’zbekiston hududida 1926-yilda 4 646 nafar nemis istiqomat qilgan. 1989-yilga kelganda ularning soni 39 809 nafarga yetgan [16].

Nemislarning O’zbekiston hududiga ommaviy kirib kelishi uch bosqichda sodir bo’ldi. Birinchi bosqichda Rossiyaning markaziy tumanlarida va Povoljda sodir bo’lgan ocharchilik tufayli XX asrning 20-yillarda o’lkamizga kelgan bo’lsa, ikkinchi bosqichda esa XX asrning 30-yillarida asosan ular quloq qilinib, SSSRning chegara viloyatlaridagi hamda Ukraina hududidagi nemislar Turkiston hududlariga surgun qilindi, uchinchi bosqichda fashistlar ustidan qozonilgan g’alaba tufayli maxsus nemis manzilgohlari tashkil qilinib, ko’chirib kelindi. Yuqoridagi dastlabki ikki bosqichda nemislarning ommaviy kirib kelishi natijasida 1939-yilga kelganda O’zbekistonda 23 ming nafar atrofida nemis istiqomat qila boshladi [16]. Bu esa O’zbekiston hududida nemis diasporasining shakllanishiga olib keldi.

Nemis madaniyatining eng muhim jihatlarini tiklash, nemis xalqining jozibador qo’shiq va raqslari bilan o’tadigan quvnoq bayramlarini tashkil qilish, yoshlarni nemis tiliga o’rgatish maqsadida 1990-yili Toshkentda hududiy bo’limlarni birlashtiruvchi “Wiedergeburt” — “Tiklanish” nemis milliy madaniy markazi tashkil etildi. Uning Buxoro, Samarqand va Farg’ona shaharlarida filiallari ham faoliyat yuritib kelmoqda [2]. Respublikada yashaydigan nemislar masalasi bo’yicha 1995-yilda tashkil etilgan O’zbekiston – Germaniya hukumatlararo komissiyasi faoliyati, shuningdek, komissiya a’zolarining faollar bilan muntazam uchrashuvlari respublikadagi Nemis madaniy markazlari ishiga bevosita yordam berdi.

Nemis madaniy markazi qoshida 2000-yildan faoliyati yo’lga qo’yilgan “Jugendstern” teatr-studiyasi har ikki mamlakat xalqi o’rtasida xalq diplomatiyasi doirasida madaniy merosni

o'rganish, aholi orasida keng targ'ib qilishga katta hissa qo'shib kelmoqda. Respublika raqs festivalini o'tkazish, nemis tilida so'zlashuvchi havaskor teatrlarning har yili o'tkaziladigan festivalida jahon klassikasi, zamonaviy nemis va o'zbek mualliflari asarlarini sahnalashtirish yoshlarning asosiy loyihalaridir. Yosh havaskor aktyorlarga yordam berish maqsadida Germaniyadan maxsus pedagoglar va teatr arboblari taklif etilib, ular ishtirokida teatr san'ati bo'yicha master-klass o'tkazib kelingan va bu an'ana bugun ham davom etmoqda. Keksa yoshdagilar uchun tashkil qilingan Senorlar klubida doimo xalq qo'shiqlari yangraydi, yoshlar bilan an'anaviy Pasxa — Ostern, katoliklar Rojdestvosi — Weihnacht, Zaminni qadrlash bayrami — Erntedankfest, Onalar kuni va Otalar kuni — Muttertag va Fatertag, pivoxo'rlik — Oktoberfest bayramlari nishonlanadi. "Wiedergeburt" markazining so'nggi nashrlari qatorida "O'zbekistonning nemis rassomlari" kitob-albomi, "O'zbekistonlik nemislar madaniyatlar muloqotida", "Farg'ona vodiysi nemislari: tarix va bugungi kun" kitoblarini ko'rsatish mumkin [2]. 2000-yil 11-mart kuni O'zbekistondagi nemis madaniy markazi "Wiedergeburt" qoshidagi "Yugendshtern" yoshlar teatr-studiyasi tomonidan Gyotening "Faust" tragediyasining premerasi Grek madaniyati Toshkent shahar jamiyatining zalida bo'ldi. Bu nemis madaniyatini targ'ib qilishda va xalq diplomatiyasining rivojlanishida o'ziga xos o'ringa ega bo'ldi [4]. 2012-yilda "Wiedergeburt" nemis markazi tomonidan "O'zbekiston nemislari ikki madaniyat muloqotida" nomli to'plamni nashr qildi [8].

Do'stlik jamiyatlari va madaniy markaz faoliyatining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi bilan bog'liq holda olib borishi ba'zi o'rinlarda ularning o'z faoliyatini to'liq holda olib borishiga to'sqinlik qilgan.

Yuqorida keltirilgan dalillar va fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, O'zbekiston va Germaniya xalqlari o'rtasidagi madaniy hamkorlikni amalga oshirishda "O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyati, "Nemis-O'zbek" jamiyati va Respublika nemis madaniyat markazlari faoliyati "xalq diplomatiyasi"ning muhim omili sifatida xizmat qilgan.

Ijtimoiy taraqqiyotning global va ustuvor tamoyillaridan biri – inson faoliyati barcha bosqichlarida, jumladan, fan va ta'lim sohalarida namoyon bo'ladigan integratsiya jarayonidir.

O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida fan va ta'lim sohasidagi hamkorlik ko'p yillik tarixga ega. Xususan, germaniyalik olimlar, ilmiy doira vakillari azaldan yurtimiz tarixi, milliy urf-odat va an'analarga katta qiziqish bilan qaragan. O'z navbatida, mamlakatimiz keng jamoatchiligi ham Germaniyaning o'tmishi va zamonaviy rivojlanish yo'li, ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini o'rganishga alohida ahamiyat bergan [9].

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi o'zbek-german ilm-fan va maorif sohasidagi aloqalarini mustahkamlab, Olmoniyada nemis-o'zbek ilmiy jamiyatlarning tuzilishiga olib keldi. Bugungi kunda Germaniyaning Toshkentdagi Gyote nomidagi instituti, Germaniya akademik almashuv xizmati (DAAD), K.Adenauer, F.Ebert, A.Gumboldt nomidagi fondlar, "Invent" jamiyati, Bonn, Boxum, Bamberg universitetlari, Frayburg shahridagi "Olmon-O'zbek" ilmiy jamiyati va Berlin shahrida "Nihol" O'zbek-Olmon ilmiy-madaniy jamiyati mamlakatlar o'rtasida fan va ta'lim, ilmiy-texnik, innovatsion hamda malakali kadrlar tayyorlash sohalarida faol ishtirok etib, ikki davlat xalqlari orasida madaniy diplomatiyani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib keldi.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi ilm-fan va ta'lim sohasidagi hamkorligining rivojida ma'lum ma'noda o'zbek va nemis xalqi vakillari tomonidan tashkil qilingan nodavlat-notijorat hisoblanadigan **ilmiy jamiyatlarning** ham hissasi bor. Shunday jamiyatlardan biri 2001-yilda tuzish g'oyasi ilgari surilgan "Olmon-O'zbek" ilmiy jamiyati hisoblanadi. Jamiyat 2002-yil 6-dekabrda Frayburg shahridagi Albert-Lyudovig universiteti qoshida 32 a'zodan iborat holda tuzildi [1]. Jamiyat Frayburg shahrida 2003-yil 29-yanvar kuni ro'yxatga olingan bo'lib, Olmoniya va O'zbekiston o'rtasidagi tinch-totuvlik va ilmiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Jamiyatning vazifalari esa mamlakatlar o'rtasidagi akademik va madaniy almashuvlarni qo'llab-quvvatlash, ikkala mamlakatda madaniyatlararo muloqot va mamlakatshunoslikka oid seminar va konferensiyalarni tashkil qilish, O'zbekiston va Olmoniyaning tadqiq etuvchilar o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa milliy va mamlakatshunoslik, madaniyatlararo germanshunoslik va turkshunoslik sohalarida hamkorlik, madaniyat kunlari va ko'rgazmalar o'tkazish kabilardan iborat hisoblanadi [1].

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda jamiyat tomonidan bir nechta konferensiya va madaniy tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2003-yil oktabr oyida "Madaniyatlararo muloqotning dolzarb masalalari" mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazilib, unda 6 mamlakatdan 60 dan ortiq olimlar qatnashdi. 2005-yil oktyabr oyida Germaniyada bo'lgan konferensiya "Germaniya va O'zbekiston ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish" mavzusiga bag'ishlanib, unda Germaniya va O'zbekistonlik pedagog-olimlar ta'lim mazmuni, davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari haqida 40 dan ortiq ma'ruzalar qilishdi. Munozaralarda O'zbekiston ta'lim standarti va o'quv rejalari tarkibi va mazmuni haqida tanqidiy fikrlar bildirilib, ularda ixtisoslik fanlariga ajratilgan o'quv soatlarining juda kamligiga alohida e'tibor qaratildi. Olmon-O'zbek Ilmiy Jamiyati yordamida 2006-yil 29-30-sentabr kunlari "Olmon-o'zbek tadqiqotlarida G'arb va Sharq mavzusi" nomli navbatdagi xalqaro konferensiya Nizomiy nomidagi TDPUda o'tkazilib, unda Germaniyadan 20 ga yaqin sharqshunos va tarixchi olimlar qatnashdilar, ikkala mamlakat va millatning tarixidagi o'chmas voqealar va Amir Temur kabi o'lmas siymolar haqidagi fikrlar oydinlashtirildi "Olmon-O'zbek" Ilmiy Jamiyati qoshida 2010-yildan boshlab "AVICENNA" hamda "O'zbek adabiyoti" jurnallari faoliyat olib boradi [6].

Fan va maorif sohasidagi munosabatlarni rivojlantirish maqsadida Germaniya Federativ Respublikasining Berlin shahrida ishlab va ilmiy izlanish olib borayotgan vatandoshlarimiz tashabbusi bilan "Nihol" O'zbek-Olmon ilmiy-madaniy jamiyati tashkil etildi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil ro'yxatga olindi [5]. Jamiyat nizomiga ko'ra, asosiy faoliyat doirasi ilmiy va madaniy yo'nalishga qaratilgan holda, hech qanday siyosiy va tijoriy maqsadlarni ko'zlamay, asosiy vazifalari qilib qo'yidagilar belgilandi: ilmiy yo'nalishda seminar va konferensiyalar tashkil qilish orqali ilmiy-amaliy fikr almashinuv, huquqiy masalalarda maslahat berish, vatandoshlarimiz uchun yagona tarmoq (Networking) yaratish bo'lsa, madaniy yo'nalishda esa milliy bayramlarimizni tashkil etish, madaniy tadbirlar orqali nemis fuqarolarini yurtimizning boy tarixi, madaniyati bilan tanishtirish, turli sport musobaqalarini tashkil qilish va mazkur tadbirlarda faol ishtirok etish, yosh avlod vakillari uchun o'zbek tili kurslari, maktabdan tashqari to'garaklarni yo'lga qo'yish belgilab olindi. Nihol jamiyati Berlin shahridagi O'zbekiston elchixonasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi, O'zbekiston-Germaniya do'stlik jamiyati va Olmon-o'zbek

ilmiy-madaniy aloqalariga mas'ul bo'lgan boshqa qator tashkilot va jamiyatlar bilan uzviy aloqalarni rivojlantirib keldi [5]. Jumladan, 2018 yilning 10 noyabr kuni Germaniyaning Berlin shahrida O'zbekiston Respublikasining Germaniyadagi elchixonasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi, "Nihol" o'zbek-nemis ilmiy-madaniy jamiyati hamda boshqa vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda "Xorijiy innovatsion g'oyalar va texnologiyalar hamda ularni O'zbekistonda tatbiq qilish istiqbollari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi [3].

Kelgusida madaniyat sohasidagi hamkorlikni jadallashtirish uchun ikki davlat o'rtasida imkoniyatlar mavjud. Buning uchun davlatlar quyidagi masalalarga e'tibor berishi lozim:

Birinchidan, madaniy hamkorlik aloqalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan manfaatli loyihalarni amalga oshirishda birinchi galda masalaning moddiy jihatlarini muammo tug'dirishi mumkinligini eslatgan holda, bu masalani tijorat asosida yoki o'z navbatida homiylar jalb qilish orqali hal qilish;

Ikkinchidan, ikki davlat hududlarida o'tkaziladigan madaniyat va san'at yo'nalishidagi xalqaro festivallar, tanlovlar, musobaqalar va boshqa tadbirlar haqida ma'lumotlar almashish va ushbu tadbirlarda ikki davlat vakillarining ishtirokini ta'minlashda ko'maklashish;

Uchinchidan, teatrlar, badiiy jamoalar va alohida ijrochilar o'rtasida ijodiy almashuvlar tashkil etish hamda hamkorlikda ijodiy loyihalarni amalga oshirish;

To'rtinchidan, madaniyat va san'at o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, talabalari o'rtasida tajriba almashuvini yaxshi yo'lga qo'yish;

Beshinchidan, madaniy meros obyektlarini ro'yxatga olish, muhofaza qilish, ta'mirlash, ulardan foydalanish va targ'ibot qilish ishlari bo'yicha o'zaro axborot almashish hamda ushbu sohada tashkil etiladigan seminarlar, simpoziumlar va boshqa xalqaro tadbirlarda o'zaro ishtirok etish.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston-Germaniya o'rtasidagi madaniy-ma'naviy hamkorlikning chuqurlashuvi shubhasiz, mamlakatlarimizning yangi asrning navbatdagi o'n yilligida aloqalarni yanada keng yo'lga qo'yishi hamda turli masalalardagi o'zaro hamfikrligi, qarashlar hamohangligining mushtarak ekanligi bilan bog'liq hisoblanadi.

Quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Germaniya bilan madaniy, fan va maorif sohasidagi aloqalari ikki davlat o'rtasida imzolangan bitim va kelishuvlar asosida amalga oshirildi;

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi o'zining ichki va tashqi siyosatida "xalq diplomatiyasi" doirasida aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirishdan manfaatdor hisoblanadi. Shu boisdan ham xalq diplomatiyasi doirasidagi munosabatlar O'zbekiston siyosati bilan bog'liq holda amalga oshirildi;

Uchinchidan, O'zbekiston xalqi bilan Germaniya xalqlarining xalq diplomatiyasi doirasidagi aloqalarining rivojlanishida mamlakatlarda o'tkazilgan madaniyat kunlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Madaniyat kunlari doirasida xalqlarimiz bir-birining ulkan tarixiy-madaniy boyligi bilan tanishdi. Bu esa xalq diplomatiyasini rivojlantirib, mamlakatlar aholisini yaqinlashtirdi;

To'rtinchidan, Germaniya va O'zbekiston o'rtasida xalq diplomatiyasining namoyon bo'lishini do'stlik jamiyatlari va nemis madaniyati markazlari misolida ko'rdik. "O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyati o'z faoliyati davomida ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni xalq

diplomatiyasi doirasida olib bormoqda. Germaniyada ham O'zbekiston bilan xalq diplomatiyasi doirasida aloqalarni rivojlantirish maqsadida "German-O'zbek" jamiyati tuzilgan;

Beshinchidan, O'zbekiston-Germaniya o'rtasida fan va maorif sohasida xalq diplomatiyasi asnosida hamkorlikning yorqin namoyon bo'lishi "Olmon-O'zbek" ilmiy jamiyati va "Nihol" olmon-o'zbek madaniy-ilmiy jamiyati faoliyatida kuzatiladi. Yuqorida nomlari tilga olingan bu ikki jamiyat Germaniya Federativ Respublikasida joylashganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi. GFRda bu kabi jamiyatlarning ochilishi O'zbekiston hukumati haqqoniy ma'noda xalq diplomatiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib, amaliyotda uni to'g'ri yo'naltira olganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Deutsch-Usbekische wissenschaftliche gesellschaft e.V. 5 jahre. 2002-2007. – Freiburg, 2008.
2. Wiedergeburt Ўзбекистон немислар мадания маркази // Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари қўмитаси расмий сайти // <http://kmods.uz/mita-a-ida/millij-madaniy-markazlar/wijedergeburt-zbekiston-nemislar-madaniy-markazi/?lang=oz>. Saytga 18.04.2018-yilda murojaat qilindi.
3. Xorijdagi vatandoshlar bilan turizmni rivojlantirish masalalari muhokama etildi // <https://nihol.org/2018/11/13/xorijdagi-vatandoshlar-bilan-turizmni-rivojlantirish-masalalari-muhokama-etildi> Saytga 4.12.2018-yilda murojaat qilindi.
4. Дебют "Югендштерна" // Деловой партнер Узбекистана. 16 марта 2000 г. – № 11.
5. Ниҳол жамияти ҳақида // <https://nihol.org/nihol-jamiyati-haqida> Saytga 4.12.2018-yilda murojaat qilindi.
6. Олмоншунос олим, етук педагог, саҳоватли инсон профессор Хуррам Раҳимов. (2-қисм) // http://fikir.uz/blog/fikir_arboblar/2386.html. Saytga 4.12.2018-yilda murojaat qilindi.
7. Ташкент-Берлин. Два города в фотографиях // Мир новостей Узбекистан. 10 июля 2013 г. – № 28.
8. Ўзбекистон-Германия дўстлик жамияти жорий архиви (ЎГДЖЖА). Отчеты общества дружбы «Узбекистан-Германия» за 2006-2017 годы.
9. Ўзбекистон – Германия: илм-фан ва таълимдаги ҳамкорликнинг янги босқичи / <https://kknews.uz/uz/35858.html> Saytga 15.02.2022-yil murojaat qilingan.
10. Ўзбекистон-Германия дўстлик жамияти Низоми // 1998 йил 10 сентябр куни Жамиятнинг бошқарув мажлиси қарори билан тасдиқланган // <http://ud.uz/uz/information/about/40/> Saytga 19.04.2018-yilda murojaat qilindi.
11. Ўзбекистон-Германия дўстлик жамиятига оид қисқача маълумот // <http://ud.uz/uz/> Saytga 18.04.2018-yilda murojaat qilindi.
12. ЎЗР МДА М-2-фонд, 1-рўйхат, 171-йиғма жилд, 5, 23-варақ.
13. ЎЗР МДА М-7-фонд, 1-рўйхат, 719-йиғма жилд, 14-варақ.
14. ЎЗР МДА М-7-фонд, 1-рўйхат, 724-йиғма жилд, 46-варақ.
15. ЎЗР МДА М-7-фонд, 2-рўйхат, 26-йиғма жилд, 8-варақ.
16. Этнический атлас Узбекистана. Совместное издание «ИООФС — Узбекистан» и ЛИА «Р. Элинина», 2002.

ELLINIZM DAVRIDA YUNON YOZUVINING O'RTA OSIYODAGI MAHALLIY TILLARGA TA'SIRI

Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li,

Sam DU Tarix fakulteti magistranti

E-mail: suyarovmahmud2@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2187-1051

Tel: +998 93 806 56 61

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi dunyo tarixida asosiy fan tili sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yunon tilining Aleksandr Makedonskiy istilolaridan keyin O'rta Osiyoda sodir bo'lgan ellinizm jarayoniga siyosiy, ijtimoiy-madaniy ta'siri haqida so'z yuritiladi. Yunon-makedon bosqinidan so'ng tashkil topgan qator ellinistik-antik davlatlar, jumladan, Kushon podsholigi hamda Parfiya davlati tarixiy- arxeologik yodgorliklaridan topilgan moddiy buyumlar, ularda saqlanib qolgan yozuvlar asosida yunon yozuvi negizida shakllangan yozuvlarning muhim tarixiy-ilmiy manba ekanligi masalasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ellinizm, Kushon davlati, yunon yozuvi, Kampirtepa, Surxko'tal, tanga, sopol buyumlar, kushon yozuvi

THE INFLUENCE OF GREEK SCRIPT ON THE LOCAL LANGUAGES OF CENTRAL ASIA DURING THE HELLENISTIC PERIOD

Suyarov Makhmudjon Sobirjon o'glu,

a master's student at the faculty

of history of Samarkand state university

Abstract. This article discusses the political and socio-cultural influence of the Greek language—recognized as a key language of science in the ancient world—on the Hellenization process that occurred in Central Asia following the conquests of Alexander the Great. It analyzes the historical and archaeological findings from several Hellenistic and classical states established after the Greco-Macedonian invasions, including the Kushan Empire and the Parthian Kingdom. Special attention is given to artifacts and inscriptions that illustrate how scripts derived from the Greek writing system became significant historical and scholarly sources.

Keywords: Hellenism, Kushan Empire, Greek script, Kampirtepa, Surkh Kotal, coin, pottery, Kushan script.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-4>

Kirish: Ellinizm davrida keng foydalanilgan tillardan bir yunon tili hisoblanadi. U muhim aloqa vositasi sifatida hamda davlat boshqaruvda qo'llanilgan. Jumladan, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya, Parfiya podsholiklarida, keyinchalik esa ularning o'rnida tashkil topgan Kushon davlatida ushbu yozuvdan davlatlar o'rtasidagi rasmiy diplomatik yozishmalarda va ilm-fan tili sifatida foydalanishgan. Uning qator namunalari tangalardagi numizmatik bitiklarda hamda ba'zi arxeologik yodgorliklardan topilgan turli buyumlarga yozilgan namunalar orqali saqlanib qolgan. Yunon tilining O'rta Osiyoga kirib kelishi Aleksandr Makedonskiy boshchiligidagi yunon-makedon istilochilarining harbiy harakatlari bilan bog'liq. Sharqqa amalga oshirilgan qariyb o'n yillik yurishlar natijasida ulkan sarhadlar egallab olindi. Jumladan, hozirgi Markaziy Osiyoning asosiy qismi ham zabt etildi. Davlat boshqaruvini tashkil etish va o'z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida hukmdor tomonidan yunonlashtirish siyosati

amalga oshirildi. Buning natijasida keyinchalik diadohlar tomonidan tuzilgan davlatlarda ham yunon tili asosiy rasmiy til sifatida saqlanib qoldi.

Fikrimiz isboti o'laroq, Yunon-Baqtriya davlati hukmdorlari tomonidan zarb ettirilgan tangalarda ko'plab yozuvlar bitilganligini ko'rishimiz mumkin. Ularda hukmdorlarning ismi, hukmronlik yillari va maxsus boshqa tarixiy-numizmatik ma'lumotlar aks etgan. Shu tufayli asosan yunon tilidan foydalanilgan holda, iqtisodiy maqsadlarda ishlab chiqarilgan pullar hozirgi kunga kelib muhim tarixiy manbalarga aylandi. Shuningdek rasmiy diplomatik hujjatlar va muhrlarda ham yunon tilidan foydalanilgan. Ushbu tilda qadimgi dunyoning eng muhim ilmiy kitoblari bitilganligi ham uni o'sha davrda o'rganish nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi.

Hozirgi O'zbekiston va Afg'oniston hududidan topib, o'rganilgan ba'zi arxeologik yodgorliklar yunon alifbosi asosida yaratilgan kushon yozuvi ushbu podsholikda keng qo'llanilganligining dalilidir. Jumladan, Surxondaryo viloyatida, Termiz shahri yaqinida, Sho'rob qishlog'idan uzoq bo'lmagan hududda joylashgan qadimiy Kampirtepa manzilgohi yodgorliklari orasidan ushbu yozuv bitilgan buyumlarni uchratishimiz mumkin [1; c 211.]. Miloddan avvalgi II asrdayoq bunyod etilgan ushbu shahar milodiy III asrga qadar ya'ni Kushon davlati inqirozga uchraguncha bo'lgan muddatda mavjud bo'lgan. Tarixiy-arxeologik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida undan bir qator sopol buyumlar hamda tangalar topilgan. Aynan ushbu buyumlarga turli yozuvlar bitilgan va ular numizmatik, lingvistik, epigrafik jihatdan o'ta muhim ahamiyatga ega tarixiy manba hisoblanadi. Milodiy I-II asrlarga oid ushbu bitiklarni o'rganish natijasida ularda ham siyosiy ham diniy-madaniy hayot darajasi haqida ma'lumotlar keltirilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin [2; c 71-73.].

Finikiya yozuvini o'zlashtirgan va takomillashtirgan yunon alifbosi foydalanishga qulay bo'lganligi sababli keyinchalik Kushon podsholigi xalqlari tomonidan yangi yozuv yaratishda foydalanilgan. Ushbu moslashtirilgan kushon alifbosi ba'zi manbalarda "baqtriy yozuvi" deb ham ataladi. X.Yunker, E.Xersfeld va R.Kyuriel kabi olimlarning fikriga ko'ra, ushbu kushon-baqtriya yozuvi aynan qadimiy yunon yozuvi asosida shakllangan. "Boxtar" yozuvi deb ham atalgan ushbu yozuv Kushon podsholigi davrida foydalanilgan. Uning yozuv shakliga ko'ra osonroq yozilish uslubiga ega bo'lgan monumental hamda birmuncha qiyin shaklda yoziladigan kursiv nomli turlari bo'lgan. Ushbu maxsus alifbo harflari qadimiy yunon alifbosi asosida shakllantirilgan bo'lsa-da, unga ayrim fonemalar uchun yangi belgilar ham qo'shilgan. Aynan Kampirtepadan topilgan bir qator tanga pullarni tadqiq qilish natijasida ularning aksariyati sulolaning qudratli hukmdorlaridan biri bo'lgan Kanishka tomonidan zarb ettirilganligi ma'lum bo'ldi. Shu tufayli bu yozuv Kushon davlatining yozuv tizimi, iqtisodiy-siyosiy hayoti va madaniyatni o'rganishda muhim o'rin tutadi.

Shuni qayd etish kerakki, yunon alifbosidagi kushon yozuvi dominant ahamiyatga ega bo'lmagan. Bu yozuvdan tashqari Kushon podsholigida baqtriya va braxman yozuvlaridan ham foydalanilgan. Tangalarda, asosan, hukmdorlarning ismlari, unvon-lavozimlari, tangalar zarb qilingan joyi va vaqtini o'zida aks ettirgan xronologik ma'lumotlar ham uchraydi. Jumladan, tangalardan birida ΒΑΣΙΛΕΩΣ ΣΩΤΗΡΟΣ (BASILEŌS SŌTĒROS) — "Qutqaruvchi podshoh" kabi ibora ham uchraydi. Bundan tashqari, boshqa tangalarda ham har xil iboralarni uchratishimiz mumkin. Xususan, "Shao Nano Shao Kanishka" (Shohlar shohi Kanishka) —

Kushon imperatori Kanishka I davriga oid tangalardan birida uchraydi. "Maharajasa Rajadirajasa Devaputrasa Kaisarasa" — "Buyuk shohlar shohi, ilohiy farzand, Kayser" kabi diniy mazmundagi iboralar ham mavjud.

Sopol buyumlar esa iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularda ushbu buyumlarni ishlab chiqaruvchi ustalarning ismlari yoki ustaxonalarning nomlari yozib qoldirilgan. Bundan tashqari, ayrim buyumlarda diniy yoki maishiy mazmundagi qisqa bitiklar ham uchraydi. Bunday yozuvlar shahar xarobalarining devorlarida ham qisman saqlanib qolgan. Ular orasida shahar nomlari, ibodatxonalarning maxsus belgilari va hukmdorlar nomlarini ko'rishimiz mumkin. Shu kabi topilmalar hududga yunon madaniyati faol ravishda ta'sir ko'rsatganligini dalillaydi. D. V. Buryakov va A.N. Gorin kabi olimlar tomonidan Kampirtepa xarobalaridan Parfiya davlatiga oid tangalar ham topilgan [3; c 110-111.]. Aynan ushbu tangalardagi yozuvlar ularning qaysi davlat podsholari tomonidan zar ettirilganligini aniqlashda asosiy yo'lko'rsatgichlardan biri bo'lib xizmat qildi. Manbalarga ko'ra, ushbu tangalar Parfiya davlati hukmdorlari Orod II (mil. avv. 57–38), Fratiy IV (mil. avv. 38 – mil. 2), Fratiyak (mil. avv. 2 – mil. 4) va Gotarz II (mil. 40–51) davrlariga oiddir. Ayniqsa tangalar orasida Fratiy IV tomonidan zarb ettirilgan pulning orqa tomonidagi monogramma yunoncha harfda bitilganligi bilan ahamiyatlidir. Undagi "P" harfi Marg'iyona zarbxonasida chiqarilganligidan dalolatdir. Marg'iyona zarbxonasining dastlabki monogrammasi MAP ko'rinishida bo'lgan. Doro (mil. avv. 70) tangalarida bu belgi M va A harflari kombinatsiyasiga o'xshasa, Fratiy III (mil. avv. 70–57) davridan boshlab bu monogramma M harfiga o'xshagan varianti (Π) shaklida paydo bo'ladi. [4; p 108-111.]

Kampirtepadan tashqari hozirgi Afg'oniston hududidan ham yunon yozuvi asosidagi kushon bitiklari topilgan. Bu Qunduz shahri yaqinidagi Surxko'tal manzilgohi edi. Ushbu yozuv namunalari milodning ilk asrlarida qudratli davlatga aylangan Kushon imperiyasida yunon yozuvining ahamiyati yuqori bo'lganligini ko'rsatadi. Ushbu arxeologik manzilgohdan topilgan buyumlarga bitilgan turli mazmundagi yozuvlar mazkur davlatning siyosiy va diniy hayoti haqida batafsil ma'lumot beradi.

Surxko'tal manzilgohini o'rganish ishlari natijasida 1957-yilda "Katta Surxko'tal yozuvi" ochilgan. To'la holda saqlangan ushbu yozuv Surxko'tal arxeologik manzili topilgan tepalikni tadqiq etish natijasida topilgan ibodatxonada olib borilgan qazish ishlari vaqtida aniqlangan. Ushbu ibodatxona buddaviylik diniga oid muassasa ekanligi taxmin qilinadi. Chunki Hindistonning bir qismini bosib olgan Kanishka ushbu ta'limotni o'z davlatiga yoyishga harakat qilgan. Biroq arablar davrida ushbu maskanning qisman vayron etilganligi uning aynan qaysi dinga oid majmua ekanligi borasida ikkilanishlarga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari otashparastlarga xos mehrobning topilishi bu yerni zardushtiylar diniy maskani degan qarashni ham ilgari surishga sabab bo'lmoqda. Ba'zi tangalarda hatto olov mehroblar tasviri ham tushirilgan[5; p 109.].

Ibodatxonaning yunoncha uslubdagi ustunlar bilan o'rab olinishi esa ellinizmning me'morchilikdagi namunasi hisoblanadi [6; c 64.]. Majmuadagi ushbu ilmiy ishlar fransuz arxeologik-ilmiy ekspeditsiyasi tomonidan amalga oshirilgan. Daniel Shlyumberje rahbarligida ish olib borgan Raul Kyuriel ismli tadqiqotchi olim tomonidan ushbu matn haqida dastlabki ma'lumotlar e'lon qilingan. "Katta Surxko'tal yozuvi" toshga o'yib yozilganligi tufayli yaxshi saqlangan bo'lib, 25 qatordan iborat matn edi. Ushbu toshtaxtaning yozuv mazmuni tadqiqotchi

V.B.Xen tomonidan to'g'ri va tushunarli tarzda tarjima qilingan. Olimning xulosasiga ko'ra, ushbu bitik bir inshoot sharafiga yaratilgan "qurilish xotiranoma"si bo'lgan ya'ni ushbu ibodatxonani qurdirgan hukmdorni madh etish maqsadida yozilgan edi.

Kampirtepa yodgorligi matnlariga o'xshash tarzda Surxko'tal bitiklarida ham Kushon davlatining qudratli hukmdorlari Vima Kadfiz va Kanishka boshqaruv davrlari haqida haqida boy ma'lumotlar beradi [7; p 76-80.]. Ularda podsholarning siyosiy boshqaruv faoliyati hamda diniy siyosati haqida bir qator ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan imperiyaning hududiy chegaralari haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Yozuvlardan ko'rinib turibdiki, davlat hukmdorlari o'z saltanatini idora etishda o'z ilohiy maqomidan foydalanishga harakat qilganlar. Shuningdek, podsho hukmi ostidagi qator hududlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi. Tashqi diplomatik aloqalar haqida ham boy ma'lumotlar berganligi tufayli ushbu bitiklar o'ta qimmatli hisoblanadi.

Quyida bitiklardan namunalar va ularning tarjimasi keltirilgan:

1-bitik:

ᲑᲓᲗᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗᲗ
ᲑᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗ ᲗᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗ
ᲗᲗᲗᲗ ᲗᲗ ᲗᲗᲗᲗ ᲗᲗᲗᲗᲗᲗ
ᲑᲗᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗᲗ.

Tarjimasi:

"Kushonlar shohi ulug' qirol Shivano ya'ni Vima Kadfiz bu yerda ibodatxonani yaratdi, uning o'g'li, ulug' qirol Kanishka esa bu yerga suv keltiradi".

2-bitik: ᲑᲗᲗᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗᲗᲗ
ᲗᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗᲗ ᲗᲗᲗᲗᲗ
ᲑᲗᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗᲗ ᲗᲗᲗᲗᲗᲗ
ᲑᲗᲗᲗ ᲗᲗᲗᲗ ᲑᲗᲗᲗ
ᲗᲗᲗᲗᲗ ᲗᲗᲗᲗᲗᲗ.

Tarjimasi:

"Buyuk Kushon podshosi Bozorko ya'ni Vima Taktu ushbu muqaddas joyni bunyod etdi. U yagona haqiqiy xudoga sig'inar edi".

Quyida ayrim so'zlarning aynan izohli tarjimasi keltiriladi:

"ᲑᲓᲗᲗᲗᲗ" -Shivano — Kushan podshosi Vima Kadfiz

"ᲑᲗᲗᲗᲗᲗ" -Koshano — Kushon

"ᲗᲗᲗᲗᲗᲗ" -nagano — buyuk, ulug'

"ᲑᲗᲗᲗᲗᲗ" -razdo — podsho

"ᲗᲗᲗᲗᲗᲗ" -oozeo — suv

"ᲑᲗᲗᲗᲗ" -shao — qirol, shoh

1958-1959-yillarda Surxko'talda oldingi topilgan yodgorlikning ya'ni "Katta Surxko'tal yozuvi"ning ikki nusxasi topildi. Avvalgidan farqli ravishda nusxalarning xulosa qismi va so'zlari alohida yozilgan edi. Dastlab bu nusxalar E.Benvenist tomonidan o'rganilgan. Ushbu bitikning uch nusxasidan tashqari Surxko'taldagi ibodatxona xarobalaridan "Devoriy yozuv", "Palameda yozuvi" [8; p 311.] va "Tugatilmagan yozuv" deb nomlangan toshbosma bitiklar ham topilgan.

Surxko'tal bitiklarining o'ziga xosligi shundaki, u yunon yozuviga asoslangan bo'lsa-da, talaffuzda mahalliy aholi tiliga moslashtirilgan edi. Olimlar tomonidan ushbu yodgorlikdagi ibodatxona va saroy Kushon podsholigining ikkinchi hukmdori Vima Takto ya'ni Vima Kadfiz davrida bunyod etilganligi taxmin qilinadi. Boshqa manbalar esa, qurilish ishlari Kanishka davrida amalga oshirilganligini ta'kidlaydi. [9; p 44-47.] Chunki inshootda uning nomi bitilgan tangalar, buyumlar ko'proq uchraydi. Ularda ushbu podshoni ulug'lovchi, uning xudolarga qurbonlik keltirish tadbirlarini amalga oshirishda jonbozlik ko'rsatganligini ta'kidlovchi matnlarni ham uchratish mumkin. Shuningdek, podshoning hukmronlik qilgan hududlari nomlari ham sanab o'tiladi. Toshga chekilgan ayrim bitiklar ham muhim tarixiy manba qatorida turadi. Shuni qayd qilishimiz lozimki, ko'p madaniyatli hamda ko'p tilli bo'lgan Kushon podsholigi qadimgi ellinizm madaniyati izlarini o'zida saqlab qolgan oxirgi davlatlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Kampirtepa va Surxko'tal manzilgohlari bitiklardagi ma'lumotlarning tarixiy ahamiyatidan kelib chiqib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, ular milodning dastlabki asrlarida O'rta Osiyoda hukmronlik qilgan qudratli davlatlardan biri Kushon podsholigining muhim siyosiy-iqtisodiy markazlaridan edilar. Yunon yozuvining mavjudligi hududning ellinizm madaniyati kuchli ta'siri ostida bo'lganligidan dalolatdir. Tangalar va ko'p hollarda xalqaro savdo uchun ajoyib tovar hisoblangan sopol buyumlarda ushbu yozuv namunalarining topilishi uning xalqaro savdo va diplomatik aloqalar rivoji uchun ham naqadar muhim bo'lganligini isbotlaydi. Yunon tili o'lkamizda o'z ta'sirini yo'qota borishi milodiy asr boshlariga to'g'ri keladi. Ushbu davrga kelib O'rta Osiyodagi asosiy qudratli davlati hisoblangan Kushon davlatida baqtriya va so'g'd tillari tomonidan yunon tili surib chiqariladi hamda buning natijasida ushbu til muomaladan chiqib boshlaydi. Shu kabi ko'plab yozuv namunalarining topilishi Kushon davlatining ko'p tilli, turli madaniyatlar uyg'unlashgan mamlakat bo'lganligidan dalolat beradi. Ko'plab yozuvlarning topilishi davlatning faol savdo va diplomatik aloqalar ham olib borganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Э. В. Ртвеладзе. Старая Ниса и Кампыртепа – Границы одного владения?
2. Центральная Азия от Ахеменидов до Тимуридов: археология, история, этнология, культура. Материалы международной научной конференции, посвященной 100-летию со дня рождения Александра Марковича Беленицкого (СанктПетербург, 2—5 ноября 2004 года). — СПб.: Институт истории материальной культуры РАН, 2005.
3. Ртвеладзе, Э.В. Кампыртепа-Александрия Оксианская: город-крепость на берегу Окса в эллинистическое и постэллинистическое время (конец IV в. до н.э. — I в. до н.э.) / Э.В. Ртвеладзе. – Ташкент: Издательство журнала "San'at", 2017.
4. Anabasis 1 (2010) Studia Classica et Orientalia. Orientis Splendor. Studies in Memory of Józef Wolski. edited by Marek Jan Olbrycht.
5. History of civilizations of Central Asia Volume III. // The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750. Published in 1996 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7 place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP.
6. Сарианиди В. И. Бактрия сквозь мглу веков. — М.: Мысль, 1984.

7. Nicholas Sims–Williams. Bactrian Historical Inscriptions of the Kushan Period // The Silk Road 10 (2012). SOAS, University of London, England.
8. History of civilizations of Central Asia Volume II. // The development of sedentary and nomadic civilizations: 700 b.c. to A.D. 250. First published in 1994 by the United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization 7 place de Fontenoy, 75352 Paris 07 SP Composed by UNESCO Publishing, Paris Printed by Darantière, Quétigny.
9. Abdul Hai Habibi. A short history of Afghanistan. Book Publishing Institution With Cooperation by the Historical Society of Afghanistan. Kabul. 1967.

IQTISODIYOT FANLARI

PAXTA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA BOSHQARUV HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Madartov Bahrom Kuvandikovich

Toshkent davlat Agrar universiteti professori

Annotatsiya. Paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobi tizimlari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv hisobi tizimlarining modernizatsiyasi, paxta to'qimachilik klasterlari korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv hisobini takomillashtirish tahlil etilgan. Shuningdek, paxta to'qimachilik klasterlari korxonalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv hisobining samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar hamda milliy iqtisodiyotda paxta to'qimachilik klasterlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv hisobini takomillashtirish yo'nalishlari va paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobini keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, klasterlari, boshqaruv hisobi, tamoyillar, takomillashtirish yo'nalishlari, samaradorlik.

DIRECTIONS FOR IMPROVING MANAGEMENT ACCOUNTING IN COTTON TEXTILE CLUSTERS

Madartov Bahrom Kuvandikovich

Professor of Tashkent State Agrarian University

Abstract. An analysis of management accounting systems in cotton-textile clusters was conducted, production efficiency was increased, management accounting systems were modernized, and management accounting was improved to ensure the economic security of cotton-textile cluster enterprises. Also widely covered are the main factors influencing the effectiveness of management accounting in ensuring the economic security of enterprises of the cotton textile cluster, as well as the directions for improving management accounting in ensuring the economic security of enterprises of the cotton textile cluster in the country's economy, management accounting in the cotton textile cluster.

Keywords: enterprise, economic security, clusters, management accounting, principles, directions for improvement, efficiency.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-5>

Kirish. Paxta to'qimachilik sanoati dunyodagi eng yirik va strategik ahamiyatga ega sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu sanoat sohasi, ayniqsa paxta yetishtirish va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun, paxta to'qimachilik klasterlarining samaradorligini oshirish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Bunda boshqaruv hisobining roli beqiyos, chunki u resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Boshqaruv hisobi, asosan, klasterlarda qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ishlab chiqarishdan tortib, savdo va marketinggacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Samarali boshqaruv hisobi tizimi klasterning ichki faoliyatini aniqlab, kuchli va zaif tomonlarini belgilab, kerakli strategik o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Bunday tizimlar klasterlarning bozordagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini oshirish va ularning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqotni o'tkazish jarayonida tizimli yondashuv va quyidagilardan foydalanildi: usullar: monografik, muammo holatini o'rganishda, nazariy umumlashtirish, xulosalarni qayta ishlash, tavsiflash, mavhum-mantiqiy tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar: Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobi tizimlari, global bozor talablariga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonini optimallashtirish uchun zarur. Mazkur tizimlar ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishda transparentlikni oshirib, hisobot berish sifatini yaxshilaydi va bu orqali investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlaydi. Shuningdek, boshqaruv hisobi tizimlari strategik rejalashtirish jarayonlarini takomillashtirishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va xarajatlarni kamaytirish yo'llarini ko'rsatib beradi [1:78].

Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv hisobi tizimlari klasterlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslarni tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam berishi mumkin. Bu tizimlar klasterlarning ichki hamda tashqi muhit bilan bog'liq munosabatlarini strategik rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Bu esa, o'z navbatida, ularning umumiy iqtisodiy faoliyatini kuchaytiradi va uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda yordam beradi. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda bu tizimlar orqali mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarish va ekologik me'yorlarga muvofiqlikni ta'minlash mumkin. Shuningdek, bu jarayonlar klasterlarning moliyaviy va boshqaruv tizimlarini optimallashtirishga hamda ularni jahon iqtisodiyoti tizimiga tezroq va samaraliroq integratsiyalashuvini tezlashtirishga yordam beradi. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda klasterlarda amalga oshirilayotgan boshqaruv hisobi tizimlarining modernizatsiyasi mahalliy iqtisodiyotning o'sishi va jahon bozorlarida o'z o'rnini mustahkamlashga yordam beradigan strategik ahamiyatga ega.

Bunday tizimlar mahsulotlarning sifatini nazorat qilish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va ekologik standartlarga rioya qilishni ta'minlash orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [2:48]. Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish masalasida xalqaro tajribalarning o'rganilishi muhim ahamiyatga ega. Klasterlarning rivojlanishi va boshqaruv hisobi sistemalarining optimallashtirilishi bo'yicha qator olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish, jahon miqyosidagi yetakchi sanoat mamlakatlari tajribasiga tayangan holda, samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Amerika, Yaponiya va Germaniya kabi davlatlar sanoat klasterlarini boshqarishda ilg'or va samarali mexanizmlarni yaratgan bo'lib, ularning tajribasi boshqaruv hisobini rivojlantirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi to'qimachilik klasterlari boshqaruv hisobida innovatsiya va raqamlashtirishga katta e'tibor qaratadi. AQShda boshqaruv hisobi orqali klaster faoliyatini samarali nazorat qilish, ma'lumotlarni real vaqtda tahlil qilish va qarorlar qabul qilish jarayonini avtomatlashtirishga yo'naltirilgan. AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, klasterlarning samarali boshqaruvi uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish juda muhim [3:53].

Germaniyada to'qimachilik sanoati klasterlarida boshqaruv hisobi yuqori darajadagi standartlashtirish va integratsiyaga ega. Germaniyada klaster ishtirokchilari o'rtasidagi yaqin hamkorlik va ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlash orqali boshqaruv hisobini takomillashtirish yo'llari yo'lga qo'yilgan. Germaniya tajribasi shundan iboratki, tartib va standartlarga asoslangan boshqaruv hisobi klasterlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Amerika, Yaponiya, Germaniya va Turkiyaning paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobini takomillashtirishga bo'lgan yondashuvlari va ularning samaradorlikka ta'siri yoritib berildi. AQSh raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali tezkor va samarali boshqaruvga e'tibor qaratadi. Bu esa, klasterlarning umumiy samaradorligini oshirishga imkon beradi. Yaponiya "Kayzen" usuli orqali doimiy yaxshilanishga yo'naltirilgan bo'lib, bu resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga olib keladi[4:227]. Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobining samaradorligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni ajaratib olish mumkin bo'ladi. Mazkur omillarni Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Germaniya, Turkiya davlatlari misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak farqli va umumiy jihatlar mavjud.

Germaniyada esa, boshqaruv hisobida standartlashtirish va integratsiyaga asoslanib, ma'lumotlarning shaffofligi va klasterlar faoliyatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Turkiyada texnologik innovatsiyalar va boshqaruv amaliyotlarining modernizatsiyasi orqali klasterlarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan samarali foydalanishga imkon beradi. To'qimachilik sanoati klasterlarini shakllantirishda davlat tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan to'rtta asosiy yo'nalish mavjud.

Milliy iqtisodiyotda paxta to'qimachilik klasterlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv hisobini takomillashtirish yo'nalishlari. Paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish bugungi kunda sanoatning samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Boshqaruv hisobining samarali tashkil etilishi, klasterlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda, ularning iqtisodiy natijalarini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, paxta to'qimachilik klasterlarida boshqaruv hisobini takomillashtirish uchun davlat tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator vositalarni ko'rib chiqish zarur[5:129]. Ushbu yo'nalishlardagi ishlarni tashkil etish va amalga oshirish paxta to'qimachilik yo'nalishidagi davlat siyosatining asosiy maqsadini ifodalaydi. Bir vaqtning o'zida ushbu yo'nalishlarning barchasi yuzasidan ham qarorlar qabul qilinishi mumkin.

Xulosa. Paxta to'qimachilik klasterlari korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv hisobini takomillashtirishda ushbu davlatlarning tajribasi muhim o'rin tutadi. Ulardan o'rganish va moslashtirish orqali O'zbekistondagi paxta to'qimachilik klasterlarini yanada samarali va barqaror qilish mumkin. Paxta to'qimachilik klasterlari korxonalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda boshqaruv hisobi faqat operatsion zarurat emas, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va barqaror o'sishga erishish uchun strategik vosita

hisoblanadi. Xarajatni boshqarish, budget nazorati va moliyaviy prognozlash kabi omillar bu klasterlarning bozor o'zgarishlariga samarali javob berish qobiliyatini belgilaydi.

Paxta to'qimachiligi sanoati bozorda tez o'zgaruvchan sharoitlarga, xom ashyo narxlarining o'zgarishiga yoki iste'molchilarning xohish-istaklariga tez moslashuvchan bo'lishi kerakligi bilan xarakterlanadi, bu esa nozik boshqaruv hisobining muhimligini yanada oshiradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bekmuradov A.Sh., Yang Son Bae. Development strategy of the textile industry in Uzbekistan. Cluster approach. — T., 2006. – 247
2. Bergman E., Feser E. Industrial and Regional Clusters: Concepts and Comparative Applications.
3. Пилипенко И.В. Конкурентоспособность стран и регионов в мировом хозяйстве: теория, опыт малых стран Западной и Северной Европы, М, 2005.
4. Баскакова, О.В., Сейко, Л.Ф. Экономика предприятия (организации): учебник для бакалавров / О.В. Баскакова, Л.Ф. Сейко. М.: Дашков и К, 2015. 370 с.
5. Гавриленко, Н.И. Маркетинг: учебное пособие / Н.И. Гавриленко. М., Берлин: Директ-Медиа, 2015. 194 с.

DIGITAL TRANSFORMATION AS A CATALYST FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES

Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli

Graduate School of Business and Entrepreneurship
under the Cabinet of Ministers of the Republic
of Uzbekistan, Independent Researcher

E-mail: maxsudovmuzaffar@gmail.com

Tel: +998 94 308 34 99

ORCID: 0009-0001-1648-6661

Namangan, Uzbekistan

Abstract. In the face of rapid technological advancements and changing market dynamics, industrial enterprises must adopt sustainable development strategies that align with digital economy principles. This article examines the theoretical foundations, existing research, and methodologies for implementing sustainable strategies in industrial sectors [1]. It highlights the influence of digitalization on strategic planning, operational resilience, and long-term competitiveness. The study further proposes a conceptual model that integrates technological innovation with economic, social, and environmental goals. In the face of rapid technological advancements and changing market dynamics, industrial enterprises must adopt sustainable development strategies that align with digital economy principles [3]. This article examines the theoretical foundations, existing research, and methodologies for implementing sustainable strategies in industrial sectors. It highlights the influence of digitalization on strategic planning, operational resilience, and long-term competitiveness. The study further proposes a conceptual model that integrates technological innovation with economic, social, and environmental goals.

Keywords: Digital economy, industrial enterprise, sustainable development, strategic, management, digital transformation, innovation, resilience, technological innovation, industrial enterprises, economy principles.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SANOAT KORXONALARINI BARQARAR RIVOJLANISH KATALİZATÖRI OLARAK

Maxsudov Muzaffar Ikromjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Tez texnologik taraqqiyot va o'zgaruvchan bozor dinamikasi sharoitida sanoat korxonalari raqamli iqtisodiyot tamoyillariga mos keladigan barqaror rivojlanish strategiyalarini qabul qilishlari kerak. Ushbu maqolada sanoat tarmoqlarida barqaror strategiyalarni amalga oshirishning nazariy asoslari, mavjud tadqiqotlari va metodologiyalari ko'rib chiqiladi [1]. Bu raqamlashtirishning strategik rejalashtirish, operatsion barqarorlik va uzoq muddatli raqobatbardoshlikka ta'sirini ta'kidlaydi. Tadqiqot yana texnologik innovatsiyalarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlar bilan birlashtiradigan konseptual modelni taklif qiladi. Tez texnologik taraqqiyot va o'zgaruvchan bozor dinamikasi sharoitida sanoat korxonalari raqamli iqtisodiyot tamoyillariga mos keladigan barqaror rivojlanish strategiyalarini qabul qilishlari kerak [3]. Ushbu maqolada sanoat tarmoqlarida barqaror strategiyalarni amalga oshirish uchun nazariy asoslar, mavjud tadqiqotlar va metodologiyalar ko'rib chiqiladi. Bu raqamlashtirishning strategik rejalashtirish, operatsion barqarorlik va uzoq muddatli raqobatbardoshlikka ta'sirini ta'kidlaydi. Tadqiqot yana texnologik innovatsiyalarni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlar bilan birlashtiradigan konseptual modelni taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, sanoat korxonasi, barqaror rivojlanish, strategik, boshqaruv, raqamli transformatsiya, innovatsiyalar, chidamlilik, texnologik innovatsiyalar, sanoat korxonalari, iqtisodiyot tamoyillari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-6>

Introduction. The development of industrial enterprises in the 21st century is increasingly influenced by the emergence of the digital economy. As globalization, technological advancements, and market uncertainty reshape the industrial landscape, traditional models of enterprise management are becoming obsolete [2]. Sustainable development now serves as a crucial framework for ensuring the long-term viability of these enterprises.

Sustainability in an industrial context encompasses more than just environmental considerations—it includes economic efficiency, technological innovation, employee well-being, and socio-economic responsibility. A sustainable industrial strategy balances short-term productivity with long-term growth, reducing ecological footprints while enhancing value creation. In this era, digital transformation is not just a facilitator but a necessity for achieving such goals [4,5].

Digital technologies, including artificial intelligence (AI), the Internet of Things (IoT), cloud computing, and big data analytics, are redefining how enterprises plan, operate, and compete. The convergence of sustainability principles with digital innovation can lead to robust frameworks that support agile decision-making, resource optimization, and stakeholder engagement.

Literature Analysis: Numerous scholars have examined the intersection of sustainability and digital transformation within industrial enterprises. Plotnikov (2019) characterizes digitalization as the intensive integration of digital technologies in enterprise functions, fostering competitive advantage. Tapscott (1994) was among the first to describe the digital economy as an emerging economic model driven by interconnected information systems.

Brynjolfsson and Kahin (2002) emphasized that digital technologies reshape firm structures, market strategies, and value chains [2,3]. Similarly, Kitova and Briskin (2020) discussed digital transformation's impact on operational efficiency, while Mesenburg (2001) proposed a measurable framework for evaluating the digital economy's components.

Local scholars have also contributed. Suyunov Dilmurod Xolmuradovich [14], in his analysis of sustainable industrial development, highlights the importance of integrating environmental and digital metrics into enterprise strategy. Maxsudov Muzaffar Ikromjon o'g'li [6,7] focuses on the challenges of digital resilience in manufacturing sectors, advocating for comprehensive digital adaptation frameworks.

The literature suggests a growing consensus: digital transformation enhances sustainable development, but only when supported by strategic planning and regulatory alignment.

Methodology: This study adopts a mixed qualitative-quantitative methodology, including:

- **Content Analysis** of strategic documents and policy papers (e.g., Uzbekistan's Innovation Development Strategy 2022–2026);
- **Thematic Review** of academic literature on sustainable industrial strategies;
- **Comparative Evaluation** using indicators such as the Global Innovation Index and enterprise-level sustainability metrics [5].

The analytical model incorporates key performance indicators (KPIs) from three domains:

1. Economic: Profitability, return on investment (ROI);
2. Environmental: Energy efficiency, emissions reduction;

3. Digital: Automation level, data-driven decision usage.

$$(1) S = w_e E + w_{env} Env + w_d D$$

The weighted score formula used for integrated assessment:

Where:

- S = Sustainability Score
- E = Economic Index, Enu = Environmental Index, D= Digital Maturity Index
- We, Wenu, Wd= weights (assigned based on policy priorities)

Results: The analysis shows that enterprises that actively integrate digital tools with sustainability principles achieve higher operational efficiency and market adaptability. The results are grouped into four key findings:

1. **Strategic Integration:** Firms with digitalized operations exhibit more cohesive long-term sustainability strategies.
2. **Resource Optimization:** Use of AI and IoT leads to reduced waste and energy consumption.
3. **Risk Management:** Digital systems enable real-time monitoring, helping preempt operational disruptions.
4. **Competitive Positioning:** Enterprises reporting higher digital maturity also show stronger innovation and export performance.

Discussion: The adoption of sustainable strategies in industrial enterprises is driven by multiple factors:

- **Technological Necessity:** The digital economy demands rapid innovation, making digital transformation vital.
- **Regulatory Pressure:** Environmental laws and ESG reporting standards require sustainable practices.
- **Market Forces:** Consumers and investors increasingly favor transparent, green enterprises.

Despite these drivers, several challenges persist, including lack of skilled labor, high initial investment costs, and resistance to organizational change [18,19]. Addressing these requires a systemic approach involving government incentives, public-private partnerships, and continuous workforce training.

Conclusion

This research confirms that the convergence of digital transformation and sustainability is essential for the future viability of industrial enterprises. A strategic framework combining economic efficiency, environmental responsibility, and digital innovation enables enterprises to thrive in volatile markets while contributing to broader developmental goals.

Policymakers and business leaders must work collaboratively to foster innovation ecosystems and support sustainable industrial growth.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Aliyev, K. O., Butabayev, M., & Suyunov, D. X. (2023). Strategic Project Management.
2. Brynjolfsson, E., & Kahin, B. (2002). Understanding the Digital Economy: Data, Tools, and Research.

3. E., Brynjolfsson, & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age. W. W. Norton & Company.
4. Kholmurodovich, S. D., & Batirovich, P. A. B. (2023). Green Economy and Ways of its Development in Uzbekistan. Genius Repository, 24, 7-15.
5. Kuznetsov, O. L. (2018). Sustainable Development: Economic and Strategic Insights.
6. Maxsudov, M. I. (2024). Digital Resilience in the Manufacturing Sector: Challenges and Opportunities.
7. Maxsudov, M. I. (2024). "Экономика и социум" Институт Управления И Социально-Экономического Развития, 30-mart, 2025.
8. Miralimovich, A. M., Kholmurodovich, S. D., & Batirovich, A. B. (2023). Prospects for the Development of the Green Economy.
9. Miralimovich, A. M., Kholmurodovich, S. D., & Batirovich, A. B. (2023). Prospects for the Development of the Green Economy Based on Investment Projects in Cooperation with Developed Countries. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 1(2), 19-31.
10. Olimovich, A. K., Botabayev, M., & Kholmurodovich, S. D. (2023, July). Strategic Project Management System in the Company. In Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (Vol. 2, No. 8, pp. 9-18).
11. Plotnikov, V. A. (2019). Stages of Digitalization in Industrial Development.
12. Rozenberg, I. V., Krasnoshekov, G. I., & Krilov, Y. M. (2020). Sustainable Enterprise Development.
13. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
14. Suyunov, D. X. (2023). Strategic Sustainability Approaches in Industrial Enterprises.
15. Suyunov, D. X., & Kenjabaev, A. (2023). Scientific Approaches to the Analysis of the Experience of Foreign Countries. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 1(5), 1-7.
16. Suyunov, D. X., & Kenjabaev, A. (2023). Scientific Approaches to the Analysis of the Experience of Foreign Countries on the Development of Entrepreneurship in The Service Field. Wire Insights: Journal of Innovation Insights, 1(5), 1-7.
17. Suyunov, D. X., & Xoshimov, E. A. (2019). The Main Directions of Development of the Corporate Governance System in Uzbekistan in Modern Conditions. Economics and Innovative Technologies, 2019(4).
18. Tapscott, D. (1994). The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence.
19. Uskova, T. V. (2017). Strategic Approaches to Sustainable Industrial Growth.
20. Суюнов, Д. Х. (2023). Управление Заинтересованными Сторонами в Комплексных Проектах. Образование Наука и Инновационные Идеи в Мире, 25(2), 112-120.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA O'Z KAPITALI HISOBİ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Axmedov Latayibxon Mamitxonovich

"UMFT" universiteti "Raqqamli iqtisodiyot va moliyaviy texnologiyalar" kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: axmedov17@gmail.com

ORCID:0000-0003-2792-4174

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini yuritish va uning samaradorligini oshirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda o'z kapitalining tarkibi, uni hisobga olishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan hamda hisob yuritishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aksiyadorlik jamiyatlari, o'z kapitali, buxgalteriya hisobi, kapital tarkibi, moliyaviy hisobot.

DIRECTIONS AND PROSPECTS FOR IMPROVING THE EQUITY ACCOUNTING SYSTEM IN JOINT-STOCK COMPANIES

Akhmedov Latayibkhon Mamitkhonovich,

Lecturer of the Department of "Digital Economy and Financial Technologies" of the "UMFT" University

E-mail: axmedov17@gmail.com

ORCID:0000-0003-2792-4174

Abstract. This article examines the issues of accounting for equity capital in joint-stock companies and improving its efficiency. The study analyzes the composition of equity capital, theoretical and practical aspects of its accounting, and develops recommendations for improving accounting.

Keywords: joint-stock companies, equity capital, accounting, capital structure, financial reporting.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-7>

Hozirgi globallashuv sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari iqtisodiy rivojlanishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, korporativ sektorning investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvi moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, aniqligi hamda xalqaro standartlarga mosligiga bevosita bog'liqdir. Ushbu jarayonlarda esa aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kapitalini aniq va to'g'ri hisobga olish hamda ularning moliyaviy holatini samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish istiqbollari, uning kapital tuzilmasiga va boshqarilish samaradorligiga bog'liqdir. Shu bois, o'z kapitalining hisob yuritish mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat jamiyat faoliyatining samaradorligini oshiradi, balki kompaniyaning bozor qiymatini oshirishga, investitsiyalar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xususan, kapital hisobining xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida tashkil etilishi aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro kapital bozorlariga chiqish imkoniyatlarini oshiradi hamda moliyaviy menejmentning ilg'or usul va mexanizmlarini qo'llash imkoniyatini yaratadi.

Jahon tajribasiga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlari o'z kapitali hisobini yuritishda IFRS standartlarini qat'iy qo'llab kelmoqda. Bu esa investorlar uchun kompaniya haqida to'liq, shaffof va ishonchli moliyaviy axborotni taqdim etishni ta'minlaydi.

Ayniqsa, kapital hisobining xalqaro standartlarga muvofiqligi kompaniya moliyaviy holatining obyektiv baholanishi va korporativ boshqaruv sifatining oshirilishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda O'zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarining xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuv jarayoni jadallashar ekan, mazkur jamiyatlarning o'z kapitalini hisobga olish va uni boshqarish mexanizmlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurati yanada kuchaymoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, ayniqsa davlat korxonalarining aksiyadorlik shakliga o'tkazilishi va kapital bozorini rivojlantirish choralari o'z kapitalini hisobga olish mexanizmlarining yanada samarali va shaffof bo'lishini talab qilmoqda. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy mustaqilligi va kapital tuzilmasining optimallashtirilishiga ko'mak beradi hamda milliy iqtisodiyotga xorijiy investorlarni faol jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida o'z kapitalining hisobini yuritish va uni samarali boshqarish masalasi moliyaviy nazariya va korporativ boshqaruv sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'z kapitalining hisob yuritilishi moliyaviy hisobotlarning sifati va investorlar qarorlariga ta'sir ko'rsatish jihatidan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, moliyaviy hisobotlar va kapital boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha nazariy yondashuvlarni chuqur o'rganish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Kapital tuzilmasi nazariyasi va uning korporativ boshqaruvdagi ahamiyati Modigliani va Miller tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ularning nazariyasiga ko'ra, mukammal kapital bozori sharoitida kompaniyaning kapital tuzilmasi uning bozor qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi [1]. Ammo keyingi tadqiqotlarda, jumladan, Myers va Majluf kapital bozori nomukammal bo'lgan sharoitlarda axborot asimmetriyasi va agentlik muammolari mavjudligi kompaniya kapital tuzilmasi va o'z kapitalining hisobga olinishi uning qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini isbotladilar [2].

Jensen va Meckling agentlik nazariyasi orqali kapitalning hisobga olinishi va samarali boshqarilishi aksiyadorlar va menejerlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini kamaytirishga xizmat qilishini nazariy jihatdan asoslab berganlar [3]. Shuningdek, Fama va French kapital strukturasining kompaniya qiymati va korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sirini empirik tadqiqotlar bilan qo'llab-quvvatlaganlar.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o'tish aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kapitalini hisobga olish va boshqarishda yangi uslubiy yondashuvlarni talab qiladi. Barth, Landsman va Lang tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot IFRS standartlarining joriy etilishi moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini oshirishi bilan birga, kompaniyalarning kapital boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaganligini ko'rsatgan [5]. Shu bilan bir qatorda, Daske va boshqalar IFRS standartlariga o'tish investorlarning kompaniyalarga bo'lgan ishonchini oshirishi va kompaniyalarning xalqaro kapital bozorlariga integratsiyasini yengillashtirishini ta'kidlaydi [6].

Tadqiqot davomida kapital hisobini takomillashtirish borasida mavjud nazariy va empirik tadqiqotlar tahlil qilinib, xalqaro va mahalliy tajribalar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitalini boshqarish samaradorligini oshirish uchun xalqaro

standartlarga muvofiq ravishda moliyaviy hisobotlarni shakllantirish, investorlar va manfaatdor tomonlarga aniq va shaffof axborot taqdim etish zarur.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

✓ O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida kapital hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bilan uyg'unlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish zarur. Bu, o'z navbatida, investorlarning moliyaviy hisobotlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi hamda xalqaro kapital bozorlarida kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshiradi.

✓ Moliyaviy risklarni samarali boshqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash uchun derivativ instrumentlardan foydalanishni kengaytirish va bu boradagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Buning uchun moliyaviy derivativlar bilan ishlash bo'yicha aniq reglament va tartiblar ishlab chiqilishi hamda aksiyadorlik jamiyatlarida mazkur moliyaviy instrumentlarni qo'llash imkoniyatlarini oshirish zarur.

✓ Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan o'z kapitali hisobini yuritishda zamonaviy iqtisodiy modellar va usullar, xususan panel regressiya, VAR (vektorli avtoregressiya) kabi modellar qo'llanilishini kengaytirish, kapital tarkibi va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqliklarni yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

✓ O'z kapitali tarkibini optimallashtirish uchun, korporativ boshqaruv samaradorligini ta'minlash maqsadida institutsional mexanizmlar va monitoring tizimini kuchaytirish kerak. Bu borada kompaniyalarning korporativ boshqaruv siyosatini qayta ko'rib chiqish va bu tizimda nazorat organlarining rolini oshirishga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Umuman olganda, o'z kapitali hisobini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini oshirish bilan bir qatorda, investorlar manfaatlarini himoya qilish, moliyaviy risklarni minimallashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tadqiqot orqali shakllantirilgan nazariy va amaliy takliflar nafaqat ilmiy adabiyotdagi bo'shliqlarni to'ldiradi, balki mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining kapital boshqaruvi amaliyotini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). The cost of capital, corporation finance and the theory of investment. *The American Economic Review*, 48(3), 261–297.
2. Myers, S. C., & Majluf, N. S. (1984). Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have. *Journal of Financial Economics*, 13(2), 187–221.
3. Jensen, M. C., & Meckling, W. H. (1976). Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 305–360.
4. Fama, E. F., & French, K. R. (2002). Testing trade-off and pecking order predictions about dividends and debt. *The Review of Financial Studies*, 15(1), 1–33.

5. Barth, M. E., Landsman, W. R., & Lang, M. H. (2008). International Accounting Standards and accounting quality. *Journal of Accounting Research*, 46(3), 467–498.
6. Daske, H., Hail, L., Leuz, C., & Verdi, R. (2008). Mandatory IFRS reporting around the world: Early evidence on the economic consequences. *Journal of Accounting Research*, 46(5), 1085–1142.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

G'afurova Dilshoda Ramazanovna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,
Menejment va marketing kafedrası prof. v.b., PhD
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-3252-9937>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari, uning zamonaviy ta'lim sifatiga ta'siri va oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari tahlil qilingan. Innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, innovatsion faoliyat, ta'lim sifati, innovatsiyalarni boshqarish, ta'lim texnologiyalari.

WAYS TO IMPROVE MECHANISMS FOR DEVELOPING INNOVATIVE ACTIVITY IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Gafurova Dilshoda Ramazanovna,
Tashkent International University of Chemistry,
Department of Management and
Marketing, Acting Professor, PhD

Abstract. The article analyzes the issues of developing innovative activities in higher education institutions, its impact on the quality of modern education and ways to improve the mechanisms for introducing innovations in the higher education system. Recommendations are developed to increase the efficiency of education through the development of innovative activities.

Keywords: higher education, innovative activities, quality of education, innovation management, educational technologies.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-8>

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan globallashtirish jarayonlari va raqamli transformatsiyalar inson kapitalining sifat jihatdan rivojlanishi, innovatsion tafakkurni shakllantirish va iqtisodiyotning bilimlarga asoslangan holda rivojlanishini talab etmoqda. Ushbu jarayonlarda oliy ta'lim muassasalarining o'rni yanada oshib, mamlakatlarning innovatsion rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda asosiy omil sifatida ko'rilmogda. Raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirish, innovatsion iqtisodiyotga o'tish va jamiyatda ilm-fan natijalarini ishlab chiqarish sohasiga tezkor integratsiya qilish oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni jadallashtirish va uning samaradorligini oshirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi nafaqat bilimlar uzatuvchi institut sifatida, balki ilmiy tadqiqotlar, innovatsion loyihalar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb qiluvchi markaz sifatida faoliyat yuritmoqda. Ushbu mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari tadqiqot universitetlariga aylantirilib, davlat va biznes sektori bilan uzviy bog'liq hamkorlik orqali yangi innovatsion mahsulotlar, xizmatlar va ilmiy natijalarni tijoratlashtirish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda ilmiy-innovatsion

faoliyat universitetlarning asosiy missiyasiga aylanib, iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, mamlakatimizda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ko'rilmogda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalar orasida ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va universitetlarni tadqiqot universitetlariga aylantirish yo'nalishlariga alohida urg'u berilgan.

Shunga qaramay, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, innovatsion ekotizimni shakllantirish va uning iqtisodiyotning real sektori bilan bog'lanishini ta'minlash mexanizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish zaruriyati mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu holat, birinchidan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish, ikkinchidan, jamiyatda ilmiy-innovatsion salohiyatni kengaytirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish nuqtayi nazaridan muhimdir.

"Innovatsiya" tushunchasi ilk bor XX asr boshlarida iqtisodiy fanlar doirasida ko'rib chiqilib, keyinchalik ilmiy-nazariy jihatdan keng rivojlantirilgan. Innovatsiya tushunchasining klassik nazariy asoslarini yaratishda Y.Shumpeter muhim rol o'ynagan bo'lib, u innovatsiyani ishlab chiqarishda yangi texnologiya, mahsulot va xizmatlar shaklida yangilik kiritish orqali iqtisodiy rivojlanishga olib keluvchi jarayon sifatida ta'riflaydi [1]. Shumpeter nazariyasiga ko'ra, innovatsiyalar iqtisodiyotning siklik rivojlanishida asosiy katalizator hisoblanadi va uning nazariyasi keyinchalik iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga oid ko'plab tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilgan.

Innovatsiya tushunchasini kengroq yondashuv asosida P.Druker tadqiq qilib, innovatsiyani tashkilot yoki jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshiruvchi amaliy jarayon sifatida tavsiflagan. Druker innovatsiyani nafaqat texnik yangilik sifatida, balki iqtisodiy munosabatlarni, boshqaruv mexanizmlarini ham yangilash jarayoni sifatida ko'radi [2]. Uning nazariyasiga ko'ra, tashkilotlar faqat doimiy yangilik yaratish orqali bozorda raqobatbardosh bo'lib qolishi mumkin.

So'nggi yillarda innovatsion faoliyat tushunchasi oliy ta'lim va ilm-fan tizimiga keng tatbiq qilinib, universitetlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda innovatsion markaz sifatidagi roli dolzarb tadqiqot mavzusiga aylandi. Olimlar Etzkowitz va Leydesdorff tomonidan ishlab chiqilgan "Uch karra spiral" (Triple Helix) nazariyasi universitetlar, biznes va davlatning o'zaro integratsiyasi orqali innovatsion rivojlanishning barqaror modelini yaratishni taklif etadi [3]. Ushbu nazariy model universitetlarning iqtisodiyotdagi innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ko'plab mamlakatlarda amaliy asos sifatida keng qo'llanilmoqda.

Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni tahlil qilishda rivojlangan mamlakatlarning tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. AQSh oliy ta'lim tizimida universitetlarning ilmiy-innovatsion faoliyatga integratsiyasi amaliyotida davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari keng qo'llaniladi. AQSh universitetlarida ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishda biznes sektorining ishtiroki yuqori darajada bo'lib, bunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari muhim rol o'ynaydi [4].

Germaniya va Janubiy Koreya universitetlarida innovatsion faoliyat rivojlanishida "ilmiy-texnologik parklar" va "inkubatorlar" mexanizmidan samarali foydalanilmoqda. Universitetlar

huzuridagi texnoparklar innovatsion faoliyat natijalarini tezkor ravishda tijoratlashtirish va yangi startaplarni rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi [5].

Singapur davlatining ta'lim siyosatida universitetlar ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish integratsiyasining asosiy mexanizmi sifatida ko'riladi. Bu mamlakat universitetlari davlat va xususiy sektor bilan yaqin hamkorlikda ishlash orqali innovatsion ekotizim shakllanishiga erishmoqda [6].

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini samarali tashkil etish orqali nafaqat ta'lim va ilm-fan sifati oshiriladi, balki innovatsion iqtisodiyotga o'tish uchun zarur bo'lgan inson kapitalini shakllantirishga, yangi ilmiy-texnologik yechimlar va innovatsion loyihalarni yaratishga erishiladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bir qator tashkiliy, moliyaviy va institutsional omillar mavjudligini alohida ta'kidlash kerak. Jumladan, universitetlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy-texnologik tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uchun samarali davlat-xususiy sheriklik tizimini joriy qilish, universitetlar huzurida innovatsion markazlar va texnoparklarni tashkil etish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini yanada chuqurlashtirish zarurdir.

Innovatsion faoliyatni rivojlantirishda oliy ta'lim tizimining davlat, biznes va jamiyat bilan uzviy integratsiyasini ta'minlovchi "uch karra spiral" (Triple Helix) modelidan foydalanish mamlakatimiz sharoitida yuqori samaradorlik ko'rsatishi mumkinligi aniqlangan. Ushbu model orqali universitetlar ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida mamlakatda innovatsion ekotizimning shakllanishiga, yangi startap loyihalarining paydo bo'lishiga va raqobatbardosh mahsulotlarning yaratilishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlarning universitetlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish tajribalarini o'rganish va milliy sharoitlarga mos ravishda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu borada AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlar tajribalaridan foydalanib, milliy universitetlarning xalqaro reytinglardagi o'rnini oshirish, ilmiy salohiyatini rivojlantirish va iqtisodiyotga real foyda keltiruvchi innovatsion mahsulotlarni yaratish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

- ✓ Universitetlarning ilmiy-texnologik salohiyatini oshirish va ularning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ✓ Davlat tomonidan universitetlarda olib boriladigan innovatsion faoliyat uchun moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish;
- ✓ Universitetlar va biznes-sektor o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash orqali ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtirish jarayonlarini tezlashtirish;

Ushbu tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Umuman

olganda, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish orqali raqobatbardosh iqtisodiyotga ega bo'lish, inson kapitalini kuchaytirish va global iqtisodiy maydonda munosib o'rin egallash mumkinligi ta'kidlanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Schumpeter, J.A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press, Cambridge, MA.
2. Drucker, P.F. (1985). Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. Harper & Row, New York.
3. Etzkowitz, H., & Leydesdorff, L. (2000). The dynamics of innovation: from National Systems and "Mode 2" to a Triple Helix of university-industry-government relations. Research Policy, 29(2), 109-123.
4. Mowery, D.C., Nelson, R.R., Sampat, B.N., & Ziedonis, A.A. (2004). Ivory Tower and Industrial Innovation: University-Industry Technology Transfer Before and After the Bayh-Dole Act. Stanford University Press.
5. Kim, L., & Nelson, R.R. (2000). Technology, Learning, and Innovation: Experiences of Newly Industrializing Economies. Cambridge University Press.
6. Wong, P.K., & Singh, A. (2008). From technology adopter to innovator: Singapore's development as a global biotechnology hub. In Innovation: Management, Policy & Practice, 10(2-3), 270-286.

FALSAFA FANLARI

KAMBAG'ALLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY – FALSAFIY MOHIYATI

Danabayev Xurshid Napasovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti
Samarqand filiali o'qituvchisi, falsafa fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag'allik tushunchasining ijtimoiy — falsafiy mohiyati bayon etilgan. Shuningdek, kambag'allikka qarshi kurashishda hamda uning oldini olish masalasiga e'tibor qaratilgan. Turmush tarzini ratsional tashkil etish malakasining pastligi kambag'allikni keltirib chiqaruvchi omillardan ekanligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, qashshoqlik, shaxs, jamiyat, davlat, kambag'al oilalar, daromad, kam ta'minlangan oilalar.

SOCIAL-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE CONCEPT OF POVERTY

Danabayev Khurshid Napasovich,

teacher of the Samarkand branch of the
Institute for Retraining and Advanced Training
of Specialists in Physical Education and Sports,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Abstract. This article describes the socio-philosophical essence of the concept of poverty. It also focuses on the issue of combating poverty and its prevention. It is noted that the low level of skills in rational organization of life is one of the factors that cause poverty.

Keywords: Poverty, poverty, individual, society, state, poor families, income, low-income families.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-9>

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonlari avj olmoqda. "Yangi O'zbekiston mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, erkinlik va ozodlikning yangi davri, bunyodkorlik va farovonlik yo'lining yuqori bosqichidir. Yangi O'zbekiston – bu "Xalq manfaati hamma narsadan ulug'" degan ezgu g'oya amaliy ishlar bilan o'z tasdig'ini topayotgan zamondir. Yangi-yangi uy-joylar, zamonaviy korxonalar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, obod qishloq va shaharlar yurtimiz chiroyiga chiroy qo'shayotgan tarixiy bir davrdir". Bunday obod va farovon turmush tarzini bunyod etish uchun esa eng avvalo mamlakatdagi kambag'allikni kamaytirish taqozo etiladi. Aynan shuning uchun ham Yangi O'zbekiston strategiyasi miqyosida "2030-yilgacha kambag'allik darajasini ikki martaga kamaytirish choralari ko'rilmoqda". Biroq ushbu ulkan ahamiyatga molik ijtimoiy vazifani uddalash uchun dastlab O'zbekistondagi kambag'allikning xususiyatlari va tub ildizlari aniqlanmog'i darkor.

Kezi kelganda, shuni aytib o'tmoq kerakki, o'zga mamlakatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham kambag'allik bugun vujudga kelib qolgan ijtimoiy hodisa emas. U xalqning bir necha ming yillik tarixida turli shakl va ko'lamda namoyon bo'lib kelmoqda. Tabiiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va boshqa omillar mamlakat hududidagi kambag'allik

ko'lamiga goh ijobiy, goh salbiy ta'sir etib kelgan. Kambag'allik ko'lami ayniqsa tabiiy shart-sharoitlar ta'sirida o'zgarib turgan. Ma'lumki, mintaqa tabiiy shart-sharoitlari o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Unda ayrim davrlarda yog'ingarchilikning mo'lligi, boshqa pallalarda qurg'oqchilik, ba'zan jazirama, ba'zida esa qahraton sovuq kuzatilgan. Tabiiy shart-sharoitlardagi bunday evrilishlar tirikchiligi ko'p jihatdan dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan aholi turmush tarziga zudlik bilan aks-sado berardi. Xususan, qulay shart-sharoitlar ustuvor bo'lgan yillarda jamiyatdagi kambag'allik ko'lami nisbatan kamayar, favqulodda tabiiy holatlar vujudga kelgan yillarda esa shahar va qishloqlarning turmush darajasi keskin pasayar, muhtoj va yo'qsillar soni ortardi.

Mintaqaning qulay geografik joylashuvi ham ayrim davrlarda kambag'allikni vujudga keltiruvchi omil vazifasini o'tagan. Bunday qulaylik barcha davrlarda turli siyosiy kuchlarning e'tiborini tortib kelgani, e'tibor aksar vaziyatlarda turli urushlar, bosqinlar, ixtiloflar sababi bo'lgani bizga yaxshi ma'lum. Albatta, bunday siyosiy va harbiy jarayonlar kishilar turmush tarzi va darajasiga ta'sir o'tkazmasdan qolmasdi. Destruktiv siyosiy jarayonlar mamlakatdagi kambag'allar va qashshoqlar sonining keskin oshishi bilan intiho topardi.

Barcha mamlakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistondagi kambag'allikning ham ijtimoiy va shaxsiy xususiyatga ega sabablari mavjud. Ijtimoiy xususiyatga ega sabablar haqida gapirganda, birinchi navbatda ishsizlik omilini tilga olish zarur. Diyorimizda ishsizlik sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.

Shu o'ringa mamlakatimizda "2022-yilning 1-yanvar holati bo'yicha mehnat resurslari soni 19,3 mln kishini tashkil etib, 2020-yil shu davriga nisbatan 1,1 foizga yoki 202,6 ming kishiga oshgan". Iqtisodiy faol aholining 6,1 millioni rasmiy sektorda, 5,8 millioni norasmiy sektorda mehnat qilmoqda. "O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ishga muhtoj bo'lganlarning umumiy soni 1,4 mln kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 9,6 foizni tashkil etdi. 16-30 yoshgacha bo'lganlar orasida ishsizlik darajasi — 15,1 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi esa — 13,3 foiz bo'ldi". Ma'lumki, "ishsizlik inson manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Ish joyini yo'qotish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining pasayishini, shaxsiy hayotining notinchligini keltirib chiqaradi, kishiga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi". Aynan shuning uchun ham ishsizlik yuqoridagi toifadagi kishilarni jamiyatdagi moddiy hamda ma'naviy ne'matlardan uzib qo'ymoqda, ularning turmush darajasiga salbiy ta'sir etmoqda.

O'zbekistondagi kambag'allikning eng e'tiborli sabablaridan biri o'ziga xosdemografik vaziyat bilan bog'liq. Davlat statistika qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi aholisi 35 million kishiga yetganini ma'lum qildi. Aholi soni kuniga o'rtacha 1,5 ming kishiga ko'payib bormoqda. "2021-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida jami 8871412 ta oila mavjud". "Respublika hududlarida jami oilalar soni Qoraqalpog'iston Respublikasida – 424198 tani, Andijon viloyatida – 824338 tani, Buxoro viloyatida – 514710 tani, Jizzax viloyatida – 318604 tani, Qashqadaryo viloyatida – 784635 tani, Navoiy viloyatida – 277706 tani, Namangan viloyatida – 723068 tani, Samarqand viloyatida – 935265 tani, Surxondaryo viloyatida – 637852 tani, Sirdaryo viloyatida – 220002 tani, Toshkent viloyatida – 837077 tani, Farg'ona viloyatida – 1 023042 tani, Xorazm viloyatida – 520368 tani, Toshkent shahrida – 830547 tani tashkil etmoqda". "Ularning 25,8 foizi farzandsiz oilalar hisoblanadi". Qolgan olti yarim milliondan ortiqroq oilada 14 yoshgacha bo'lgan 9 million 870 ming 276 nafar bola

tarbiya topmoqda, ularning 5 million 112 ming 470 nafari o'g'il bolalar bo'lsa, 4 million 757 ming 806 nafari qiz bolalardir. Ko'plab oilalarda 2-3 farzand ota-ona qaramog'ida umr kechirmoqda. Bundan tashqari, mamlakatda 487 586 ta ko'p bolali oilalar borligi qayd qilingan. Bir necha nafar farzandni voyaga yetkazayotgan oilalar, ayniqsa ko'p bolali ro'zg'orlarning moliyaviy imkoniyatlari nihoyatda cheklangan: farzandlar uchun qilinadigan xarajatlar oila byudjetining o'ta salmoqli qismini tashkil etyapti. Eng e'tiborlisi, bu moliyaviy tanqislik oilada uzoq yillar davom etadi. Bunda vaziyat o'zbek oilalarining muayyan qismini surunkali moliyaviy yetishmovchilik holatida yashashga majbur qilmoqda.

O'zbekistondagi kambag'allikning eng jiddiy sabablaridan biri kishilar dunyoqarashidan joy olgan qator illatlar bilan bog'liq. Ular orasida boqimandalik alohida o'rin tutadi. Ma'lumki, Sovet voqeligi muayyan ijtimoiy ongning shakllanishiga sabab bo'ldi. Bu, I.Karimov yozganidek, "totalitar buyruqbozlik-to'rachilik tizimi oqibatida insonning mol-mulkdan ajralib qolgani va xo'jayinlik tuyg'usini yo'qotganida namoyon bo'lmoqda. Tayyorga ayyorlik, boqimandalik kayfiyati ham kuchli rivojlangan". Afsuski, o'tgan yillar mobaynida ushbu illat batamom barham topmadi. Taklif etilgan imkoniyatlardan foydalanishni xush ko'rmaydigan, nuqul ijtimoiy yordamga ko'z tikib yashaydigan kishilar toifasi hamon mavjud. Masalan, Sergeli va Yangihayot tumanlaridagi mahallalarda o'rganishlar olib borgan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vaziri J.Qo'chqorov juda ko'pchilik o'z hayoti davomida biror kun ishlamaganiga e'tibor qaratdi. Boqimandalik illati ayniqsa koronavirus pandemiyasi avj olgan paytda yaqqol namoyon bo'ldi. "O'zbekiston sharoitida,- deb ta'kidladi davlat rahbari,- ish bo'laturib ishlamaslik, imkoniyat bo'lsa-da dangasalik qilish endi mutlaqo mumkin emas. Biz erkin bozor sharoitiga o'tyapmiz. Bozor iqtisodiyoti shafqatsiz, o'tiraverganlarni kechirmaydi". Biroq, afsuski, jamiyatimizda boqimandalik illatiga duchor bo'lgan va aynan shu tufayli kambag'allikda umr kechirayotgan kishilar toifasi kattaligicha qolmoqda.

Turmush tarzini ratsional tashkil etish malakasining pastligi ham kambag'allikni keltirib chiqarmoqda. Bunday malakaning pastligi tufayli aksariyat kishilar daromadining katta qismi turmush darajasini oshirishga emas, bema'ni va zaruriyati yo'q to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarga sarflanib ketmoqda. "Charlar", "aqiqa marosimi", "muchal to'yi", "qiz majlis", "kuyov chaqiriq", hayitda "kelin ko'rish" kabi marosimlar aholi tomonidan ortiqcha deb baholanmoqda. Biroq bunday marosimni tashkil etayotgan shaxslarda tadbirlarni obro'lroq joyda o'tkazishga, o'zining yutuqlarini ko'z-ko'z qilishga, moddiy mavqeyi bilan maqtanishga intilish kuchaymoqda". Aslida esa "ayrim fuqarolar dabdabali to'y marosimlari va ularni o'tkazishga sarflanadigan katta xarajatlar oqibatida qarzga botmoqda va undan qutulish maqsadida chet elga ishlash uchun chiqib ketmoqda". Shu tariqa turmush tarzini ratsional tashkil etish malakasining pastligi jamiyat a'zosi uchun kambag'allikni vujudga keltiruvchi omilga aylanmoqda.

Xullas, O'zbekistonda kambag'allik aholining 12-15 foizini qamrab olayotgan jiddiy ijtimoiy hodisa sifatida ko'zga tashlanmoqda. Uning vujudga kelishi ishsizlik, munosib (o'z mutaxassisligi bo'yicha) ish o'rinlarining yetishmasligi, ayrim oliy va professional ta'lim muassasalarida ta'lim tizimining sifatsizligi, sog'liqni saqlash tizimi va u bilan bog'liq yetarli uskunalarning yetishmasligi, katta ta'sirga ega demografik vaziyat, mintaqalarda yashash tarzining notekis rivojlanganligi kabi ijtimoiy ahamiyatga ega omillar, nogironlik yoki kasallik,

kishilar dunyoqarashidan joy olgan qator illatlar kabi shaxsiy xususiyatga ega omillar sabab bo'lmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.:O'zbekiston, 2021.- B.26-27.
2. O'zbekistonning qaysi hududida oilalar soni ko'p?// <http://darakchi.uz>, 2021, 26-sentyabr.
3. O'zbekistonda farzandsiz oilalar soni ortmoqda.// /batafsil.uz, 2020, 7-noyabr.
4. Karimov I. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.// O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Tom 1.- T.:O'zbekiston, 1996.- B.294.
5. Boqimandalik biror marta yaxshilik keltirmagan.// /kun.uz, 2022, 18-fevral.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublika-si Oliy Majlisi Senati Kengashining Qo'shma Qarori. "To'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"// lex.uz/docs/5153833.

INSON VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUVOZANAT: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL

Norliyev Rustam Ibragimovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrası

mudiri, f.f.n., dots

E-mail: norliyevr@mail.ru

ORCID: 0009-0007-6348-681X

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning jamiyatdagi o'rni, jamiyat taraqqiyotidagi axloqiy, madaniy, ma'naviy omillar bilan bog'liq jihatlar yoritiladi. Shuningdek, individuallik va jamoaviylik, erkinlik va mas'uliyat, shaxsiy manfaat va ijtimoiy ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanat masalalari falsafiy asosda ko'rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy jamiyatdagi insonparvarlik, fuqarolik ongi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'llari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inson, jamiyat, muvozanat, individ va jamoa, ijtimoiy ong, axloq, erkinlik, mas'uliyat, falsafa, fuqarolik jamiyati, ma'naviyat, ijtimoiy barqarorlik.

THE BALANCE BETWEEN INDIVIDUAL AND SOCIETY: A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Norliyev Rustam Ibragimovich

Head of the Department of Philosophy

and Fundamentals of Spirituality,

Termiz State Pedagogical Institute,

PhD in Philosophy, Associate Professor

Abstract. This article analyzes the interactions between the individual and society from a socio-philosophical perspective. It explores the formation of the individual as a person, their role in society, and aspects related to moral, cultural, and spiritual factors influencing societal development. The philosophical dimensions of the balance between individuality and collectivism, freedom and responsibility, as well as personal interests and social needs, are also examined. Furthermore, the article discusses approaches to promoting humanism, civic consciousness, and social stability in modern society.

Keywords: Human, society, balance, individual and community, social consciousness, morality, freedom, responsibility, philosophy, civil society, spirituality, social stability.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-10>

Kirish. Shaxs o'zi yolg'iz holda mavjud bo'la olmaydi, u boshqa odamlarga muhtojdir, ijtimoiy hayot o'zaro bog'liqlik asosida ro'yobga chiqadi. Kishi yolg'iz o'zi butun jamiyatning o'rnini bosa olmaydi.

Spinoza "Teologik-siyosiy tadqiqot" asarida shunday deydi: "Agar har bir inson hayotini davom ettira olish uchun yer haydash, ekish, o'rim-terim qilish, uni maydalash, pishirish, to'qish, tikish va yana ko'plab ishlarni yolg'iz o'zi bajarishi kerak bo'lganida, bunday ishlar uchun kerakli kuch va vaqtga hech qachon ega bo'lmas edi" [7]. Demak, ijtimoiy hayot kollektiv harakat bilan amalga oshadi.

Shaxslarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllangan ijtimoiy hayot mavjud. Karl Marks bu o'zaro aloqaning faqat insonga xosligini, boshqa hech bir mavjudotda bu holat uchramasligini

ta'kidlaydi. Hayvonlar, masalan, fillar yo kapalaklar boshqa hayvonlar uchun ishlab chiqarmaydi, deydi u. Bir arilar uyasida arilar faqat bitta mahsulot uchun birga harakat qiladi. Agar uyaning o'rniga jamiyatni, arilarning o'rniga esa odamlarni qo'ysak, "jamiyat uyasi"da har bir shaxs turli-tuman narsalarni ishlab chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Dyurkgeym "shaxs o'zi mustaqil emas", deydi, shu sababli inson o'ziga kerakli bo'lgan hamma narsani jamiyatdan oladi. Ammo bu munosabat biryoqlama emas: shaxs jamiyatdan oladi va o'zi ham jamiyat uchun mehnat qiladi [4].

Adam Smit "Millatlar boyligi" asarida mehnatning kollektiv xarakteri haqida quyidagilarni aytadi: "Rivojlanayotgan sivilizatsiyaga ega mamlakatda eng oddiy hunarmand yoki ishchining narsalariga bir nazar tashlang. Bu narsalarni unga yetkazishda, hatto kichik ulush bilan bo'lsa-da, ishtirok etgan kishilar soni har qanday taxminni ortda qoldiradi. Masalan, eng oddiy yengil yung kurtkani olaylik – bu kiyim bir qancha ishchining birgalikdagi mehnati mahsulidir" [6].

Biz ijtimoiy hayotning tor ma'nodagi "mehnat taqsimoti" asosida mavjud bo'lishini ta'kidlab o'tdik. Siyosiy iqtisod klassik nazariyotchilari mehnat taqsimotini "samaradorlik" nuqtai nazaridan ko'rib chiqqanlar. A. Smit bozor kengligi, mehnat taqsimoti va samaradorlik o'rtasida aloqa mavjudligini ko'rsatgan: insonlar o'z foydasini ko'zlab harakat qilgan sari bu holat jamiyat uchun umumiy foyda keltiradi. Karl Marks esa "Kapital" asarida Adam Smit kabi fikr bildiradi. Alohida ishchi faqat o'zi uchun emas, boshqalar uchun ham foydali mahsulot ishlab chiqargan taqdirda, uning mehnati ijtimoiy xususiyatga ega bo'ladi. Alohida ishchi boshqalar ehtiyoji uchun foydali narsalar yaratgan taqdirda bu mahsulot tovar xususiyatini oladi. Karl Marks bu borada shunday deydi: "Mehnat taqsimoti tovar ishlab chiqarishning mavjudlik shartidir. Mahsulotning tovar sifatida namoyon bo'lishi jamiyatda nihoyatda rivojlangan mehnat taqsimoti mavjud bo'lishini talab qiladi" [5].

Muhokama. Mehnat taqsimoti ijtimoiy nuqtai nazardan o'rganilishidan oldin iqtisodiy kontekstda tahlil qilingan: bozor, taqsimot va samaradorlik o'rtasidagi aloqalar ustuvor bo'lgan. Aristoteldan Smitgacha, undan Karl Marksgacha bo'lgan davrda mehnat taqsimoti tor iqtisodiy doirada ko'rib chiqilgan. Fransuz sotsiologiya maktabining asoschisi Emil Dyurkgeym esa "Ijtimoiy mehnat taqsimoti" nomli asarida bu masalaga sotsiologik nuqtai nazardan yondashib, taqsimotning birdamlik yaratuvchi jihatiga urg'u bergan. Dyurkgeymga ko'ra, mehnat taqsimoti jamiyatning turli sohalarida tobora kuchayib, siyosiy, ma'muriy, sud funksiyalari tobora ixtisoslashib boradi. Xuddi shuningdek, san'at va ilm sohalarida ham holat shunday. Falsafa yagona ilm bo'lgan davrlar ortda qoldi. Falsafa har biri o'z mavzusi, usuli va yondashuviga ega bo'lgan tadqiqot sohalariga ajraldi" [4].

Shaxs boshqa shaxslar qatori ijtimoiy haqiqatga qo'shilgan holda ijtimoiy mavjudotga aylanadi. Jan-Jak Russoga ko'ra, insonni jamiyatdan ajratish natijasida u hayvondan unchalik farq qilmaydigan mavjudotga aylanishi mumkin [3]. Inson faqat jamiyat ichida va jamiyat orqali "insonlashadi". Inson bo'lish yoki insonlashish faqat biologik-evolyutsion jarayon emas, balki ijtimoiy-evolyutsion jarayondir.

Dyurkgeym sivilizatsiyani ijtimoiy mahsulot deb hisoblaydi, bu — ketma-ket avlodlar davomida bir-biri bilan bog'liq insonlarning kollektiv harakati natijasidir. Jamiyat sivilizatsiyani yaratadi, uni saqlaydi va uni shaxsga yetkazadi. Dyurkgeym fikriga ko'ra, sivilizatsiyalashgan paytdan boshlab undan voz kechish – o'zimizdan voz kechishdir [4].

Biroq Dyurkgeym odamlar o'z ixtiyori bilan qaysi jamiyatda yashashni tanlash huquqiga ega bo'lishi mumkinligini inkor etmaydi, faqat bu qanday amalga oshirilishi haqida aniq fikr bildirmaydi. Dyurkgeym shaxs va jamiyat o'rtasida ontologik farqni ta'kidlaydi. Jamiyat barcha individual kuchlarning birlashmasi natijasidir va shaxsdan ustundir. Shu bilan birga, jamiyat "ichimizda" ham mavjuddir.

Natijalar. Jamiyatga oid tahlil shaxsdan boshlanmaydi. Garchi jamiyat individual kuchlar yig'indisidan hosil bo'lsa-da, u har bir shaxsdan mustaqil va unga tashqi, uni cheklovchi va majburlovchi kuchga ega haqiqatdir.

Dyurkgeym o'z davrida, o'sha paytgacha bo'lgan faylasuflarni insoniyat holatini tushuntirish borasida ikki guruhga bo'lgan holda tahlil qiladi. Sotsiologiya ilmiy fan sifatida shakllanmasdan avval faylasuflar insonni tabiatning eng yuqori pog'onasiga qo'yishgan va individual ongdan ustun tushuncha bo'lishi mumkinligini inkor etishgan. Ammo shaxsdan ustun bo'lgan jamiyat tushunchasi idrok qilingach va jamiyat ham individual kuchlardan iborat bo'lib, o'ziga xos mustaqil hayoti bor bo'lgan butun bir tizim ekanligi anglangach, insoniyat holatini tushunishda yangi nuqtai nazar paydo bo'ldi: shaxs faqat butun jamiyat tizimi doirasida tushuntirilishi mumkin.

Spinoza "Etika" asarida shunday deydi: "Insonning qudrati nihoyatda cheklangandir va tashqi sabablar bilan cheksiz darajada ortib boradi, shuning uchun bizda tashqi narsalarni to'liq o'z ehtiyojimizga moslashtiradigan mutlaq kuch yo'q" [7].

Shaxs jamiyat tizimi ichida mutlaq qudratga ega bo'lishdan yiroqdir. Shaxsning jamiyatdagi cheklangan kuchiga oid bu urg'u nihoyatda muhim. Bugungi kunda keng tarqalgan "inson tabiatni yo'q qilmoqda" degan da'voga qarshi faqat shaxs yoki inson markazli tanqid o'rniga, shaxs va u ishtirok etayotgan ijtimoiy tizimga asoslangan tanqidiy yondashuv ilgari surilsa, bu ancha asosli bo'ladi.

Xulosa. Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabat o'zaro bog'liqlik, ta'sir va ehtiyojlar tizimidir. Inson o'zining tabiiy ehtiyojlarini qondirishda, ijtimoiy maqomini topishda va ma'naviy kamolot sari intilishda jamiyatga tayansa, jamiyat esa o'zining mavjudligi va barqaror taraqqiyotini inson faoliyatisiz tasavvur eta olmaydi. Falsafa, sotsiologiya va siyosat va iqtisodiyot kabi sohalarda bu aloqadorlikning murakkabligi turlicha yoritilgan.

Dyurkgeym, Karl Marks, Spinoza va boshqa mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar shuni ko'rsatadiki, insonning jamiyatdan na amaliy, na ma'naviy, na madaniy jihatdan alohida mavjud bo'la olmaydi. Jamiyatdagi mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar, madaniyat va axloqiy qadriyatlar insonga nafaqat yashash, balki "inson bo'lish" imkonini ham beradi. Shu boisdan inson va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni saqlash nafaqat sotsial barqarorlikning, balki ma'naviy uyg'unlikning ham kafolatidir.

Bugungi globallashuv va individualizm kuchaygan davrda bu muvozanatni yangicha falsafiy yondashuvlar orqali qayta ko'rib chiqish, insonni faqat individual emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida anglash zarur. Inson va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik – sivilizatsiyaning ildizi, barqaror kelajakning asosi sifatida qadrlanishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. *Abu Nasr Forobiy: Fozil odamlar shahri.* –Toshkent: Yangi asr avlodi, 206. – 320 b.

2. Engel George L. The Biopsychosocial Model and the Education of Health Professionals. *Annals of the New York Academy of Sciences*. 310 (June): 1978. – P. 169–87.
3. Грицанов А. А. Никомахова этика // История философии: Энциклопедия. — Минск: Интерпрессервис; Книжный Дом, 2002. – 1376 с.
4. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда / Пер. с фр. А.Б. Гофмана, примечания В.В. Сапова. — М.: Канон, 1996. — 432 с.
5. Маркс Карл. Капитал. Перевод И. И. Степанова-Скворцова. – Москва: Политиздат, 1969. – 908 с.
6. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Ось-89, 1997. 255 с.
7. Спиноза Бенедикт. Этика. [пер. с лат. Н. Иванцова]. – Москва: Издательство АСТ, 2020. — 352 с.
8. Berkinovich, E. U. (2020). Social-philosophical and spiritual-moral views of the Akhmad Dash. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(2), 184-188.
9. Ergashev, U. (2024). AHMAD TOSHKO 'PRIZODANING "SO 'Z ILMI" TASNIFI. TAMADDUN NURI JURNALI, 10(61), 220-222.
10. Saidov, S. (2023). THE SIGNIFICANCE OF MUNJIK TERMIZI HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC SCIENCES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 5-8.
11. Saidov, S. (2024). IBN SINO RISOLALARIDA RUHIY TARBIYA MASALALARI. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 269-273.
12. Ugli, S. S. A. (2020). Philosophical and moral significance of IBN'S work" Al-adab Al-kabir". *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(2), 261-264.
13. Эргашев, У. Б. (2020). ИСОМИДДИН АҲМАД ТОШКЎПРИЗОДА. In *КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 148-152).

FILOLOGIYA FANLARI

PSIXOLINGVISTIK TAHLIL METODLARI

Abdubannoyeva Aziza Shokirjon qizi

Namangan davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:

Qo'ziyev Umidjon Yandashaliyevich

PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada psixologiya va lingvistika sohalarining bog'liqligi, kelib chiqish tarixi haqida nazariy ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Shuningdek, psixolingvistik tahlil metodlari haqida qarashlar aks ettiriladi.

Kalit so'zlar: psixologiya, lingvistika, psixolingvistika, metod, psixolingvistik tahlil, semantik differensial usul, lingvistik belgini to'ldirish usuli, psixolingvistik kuzatish usuli.

PSYCHOLINGUISTIC ANALYSIS METHODS

Abdubannoyeva Aziza Shokirjon qizi

Student of the Faculty of Philology,

Namangan State University

Scientific supervisor:

Koziyev Umidjon Yandashaliyevich

PhD, Associate Professor

Abstract. This article provides theoretical information about the relationship between the fields of psychology and linguistics, their history of origin, and reflects views on the methods of psycholinguistic analysis.

Keywords: psychology, linguistics, psycholinguistics, method, psycholinguistic analysis, semantic differential method, linguistic sign completion method, psycholinguistic observation method.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-11>

Psixolingvistika bu nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi yosh fan hisoblanadi. Psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo'lgan bo'lib psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. «Psixolingvistika» terminini fanga dastlab amerikalik olimlar o'tgan asrning 60-yillarida olib kirganlar. Shuningdek, O'zbekistonda mazkur soha bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan, biroq haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda [1]. Inson ongi tili bilan chambarchas bog'liqdir. Inson o'z fikrlarini tili orqali namoyon qilar ekan, har bir so'z uning psixologiyasiga turlicha ta'sir qiladi va shuning uchun ham psixologiyani lingvistikadan ajratib bo'lmaydi.

Psixolingvistika jahon tilshunosligida, jumladan o'zbek tilshunosligida ham keng rivojlanmoqda. Tilshunos olim Chaer qayd etganidek, psixolingvistika o'z ichida bir nechta yo'nalishlarga ajraladi[2]:

1. Nazariy psixolingvistika.
2. Rivojlanish psixolingvistikasi.

3. Ijtimoiy psixolingvistika.
4. Pedagogik psixolingvistika.
5. Neyropsixolingvistika.
6. Eksperimental psixolingvistika.

Bundan tashqari, psixolingvistik tahlil metodlari ham mavjud va ularning ham katta ahamiyati bor. Psixolingvistik tahlil metodlariga to'xtalishdan oldin «metodologiya» so'zini anglash zarur.

Metodologiya, o'z navbatida, muayyan tadqiqot muammosini hal qilishga qaratilgan ma'lum bir usulning o'ziga xos vositasidir[5]

Psixolingvistikada eksperimental usullar fikrlash xususiyatlarini, tilni tuzilishini va muloqotni uzatish jarayonini o'rganishning pog'onaviy boshlanishidir. Psixolingvistikadagi tadqiqot bir qator o'ziga xos xususiyatlariga ega. Misol uchun uning muhim xususiyatlaridan biri so'zning semantik ma'nosiga murojat etishidir. Tilshunoslikda so'z semantikasini tahlil qilish so'z va iboralarning lug'aviy ma'nosini, til birliklarining ma'nolarining o'zgarishi, nutqiy yoki grammatik shakllarni o'rganish bilan bog'liq.

Assotsiativ tahlil usuli (har qanday hodisani proyektiv idrok etishga asoslangan).

Semantik differensial usul (yakka yoki guruh semantik bo'shliqlarini qurish uchun semantik qurulish).

Lingvistik belgini to'ldirish usuli (bu usul yakunlash usuli deb ham yuritiladi.)

Psixolingvistik kuzatish usuli (bu turli sharoitlarda javob beruvchilarning munosabatini qayd etish uchun mo'ljallangan usul hisoblanadi).

Matnlar orqali hissiy kechinmalarini aniqlash tahlili (bunda muallifning holatini, ichki kechinmalarini aniqlashga asoslanadi).

Assotsiativ tahlil usuli. Assotsiativ tahlil har qanday hodisa yoki hodisalarni proyektiv idrok etishga asoslangandir. Bu tahlilning asosiy maqsadi inson ongida shakllangan va faoliyat ko'rsatadigan so'zlarning subyektiv semantik sohalarni o'rganishdan iborat. Assotsiativ eksperiment ham semantik soha doirasidagi so'zlarning semantik bog'lanishlarning tabiatini o'rganishga yordam beradi. Bu usul mualliflari amerikalik psixologlar X.G.Kent, A.J.Rozanovlardir. Assotsiativ tahlilning psixolingvistik variantlarini J. Diese va C. Osgud tomonidan ishlab chiqilgan [5]. Rus tilshunosligida assotsiativ eksperiment usuli A. R. Lurin va O. S. Vinogradovlar tomonidan takomillashtirilgan va tadqiqotlarda sinab ko'rilgan. O'zbek tilshunosligida ham Sh. Iskandarova, A. Sobirov, B. Qurbonova, D. Xudoyberganova, D. Lutfullayeva, N. Hoshimovlar tomonidan assotsiativ tilshunoslik nazariyasi, tajriba metodi va vujudga kelish omillarini haqida ko'lab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Buni hozircha aniqlash mumkin emas, chunki tegishli manzillardagi quduqlar va ular haqida ma'lumot berilmagan. **"Suvmap.uz"** saytida mamlakatimizdagi barcha suv obyektlari, ya'ni daryo, ko'llar, kanallar, suv omborlari, quduq va artezian quduqlari joylashuvi haqida ma'lumot berilgan. Biroq, bunga ma'lumotlar yetarli bo'lmaganligi sababli yer osti suv inshootlari haqida ma'lumotlar sezilarli darajada kam miqdorni tashkil etmoqda. *Ushbu saytni takomillashtirish va uni bu sohada ruxsatnomalar berishga vakolatli O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi bilan integratsiyalash muhim o'rin tutadi.*

Davlatlarda qonunchilik amal qilish ko'rsatkichlari, ularga to'liq rioya etish fuqarolarning huquqiy madaniyatda ko'rinadi. Atrof muhit borasidagi normativlarga rioya etish esa fuqarolarning ekologik huquqiy madaniyatida aks etadi. Fuqarolarda ekologik madaniyatni oshirish — bu ekologik ongni shakllantirish, tabiiy resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni asrashga bo'lgan mas'uliyatni rivojlantirish jarayonidir. Bugungi kunda atrof-muhit muammolari, iqlim o'zgarishlari va resurslarning kamayishi global miqyosda tobora jiddiylashib bormoqda, shuning uchun ekologik madaniyatni oshirish nafaqat davlatlar va xalqaro tashkilotlar, balki har bir fuqaro uchun ham ustuvor vazifaga aylanib bormoqda.

Ekologik madaniyatni oshirish har bir fuqaroning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatli va ongli munosabatini shakllantirishni talab qiladi. Bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun ta'lim, targ'ibot, qonunchilik va jamoatchilikning faol ishtiroki zarur. Ekologik madaniyatni oshirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanishni ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun ham muhimdir. Har bir fuqaroni ekologik mas'uliyatga o'rgatish, ularni ekologik ongli shaxslar sifatida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Yer osti suvlarining ahamiyati nafaqat ichimlik suvi ta'minoti, balki sanoat va qishloq xo'jaligi uchun ham muhim resurs hisoblanadi. Ko'plab hududlar uchun yer osti suvlariga bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, ularning muhofazasi va barqaror foydalanilishi dolzarb masalaga aylangan. Suv taqsimoti va resurslarni boshqarishning samaradorligi ekologik muvozanatni saqlashda hal qiluvchi omil bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2025-yil 24-yanvardagi majlisidan.
2. UNEP (2008) Vital water graphics – an overview of the state of the world's fresh and marine waters, 2nd edn. UNEP, Nairobi. 88 pages.
3. <https://sdgs.un.org/goals/goal6>.
4. Gorokhovich Y, Mays LW, Ullmann L (2011) A survey of ancient minoan water technologies, water science and technology: water supply 114(4):388.
5. <https://parliament.gov.uz/news/islohotlarning-huquqiy-asoslarini-mustahkamlash-asosiy-vazifa>.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 9-sonli qarori.
7. Absametov, Malis, et al. "Assessment of the groundwater for household and drinking purposes in central Kazakhstan." *Groundwater for Sustainable Development* 21 (2023): 100907.
8. Golovina, Ekaterina I., and Anastasia V. Grebneva. "Management of groundwater resources in transboundary territories (on the example of the Russian Federation and the Republic of Estonia)." *Записки Горного института* 252 (2021): 788-800.
9. Rai, Suresh Chand. "Water management for a megacity: national capital territory of Delhi." *Water resources management* 25 (2011): 2267-2278.
10. Rosegrant, Mark W., Claudia Ringler, and Tingju Zhu. "Water for agriculture: maintaining food security under growing scarcity." *Annual review of Environment and resources* 34.1 (2009): 205.

TRIPS VA WIPO SHARTNOMALARI DOIRASIDA RAQAMLI AKTIVLAR HUQUQIY MAQOMINING EVOLYUTSIYASI

Ergashova Shahrizoda Elbek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: shahrizam406@gmail.com

Tel: +998 94 379 22 06

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu tezisda TRIPS bitimi va WIPO shartnomalari doirasida raqamli aktivlarning huquqiy maqomining shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Raqamli kontentning intellektual mulk obyektlari sifatida rivojlanishi, ularning muhofazasi bilan bog'liq xalqaro normalar, xususan TRIPSning 10-moddasi hamda WCT va WPPT kabi qo'shimcha shartnomalar kontekstida yoritiladi. Shuningdek, raqamli obyektlarga nisbatan mualliflik huquqi, patent huquqi va savdo belgilariga oid huquqlarning tatbiq etilishi, ularning cheklovlari va zamonaviy muammolari tahlil qilinadi. Tezisdan ushbu shartnomalarning zamonaviy texnologiyalar sharoitida qanday yondashuvlarni shakllantirgani va ularning huquqiy moslashuvchanligi baholanadi. Asosiy e'tibor raqamli aktivlarga nisbatan xalqaro huquqiy mexanizmlarning evolyutsiyasi, ularning qo'llanilishidagi tafovutlar va huquqiy bo'shliqlarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: raqamli aktivlar, intellektual mulk, TRIPS bitimi, WIPO shartnomalari, mualliflik huquqi, raqamli kontent, huquqiy maqom, xalqaro huquq.

EVOLUTION OF THE LEGAL STATUS OF DIGITAL ASSETS WITHIN THE FRAMEWORK OF TRIPS AND WIPO AGREEMENTS

Ergashova Shahrizoda Elbek qizi

Master's student, Tashkent State University of Law

Abstract. This thesis analyzes the formation and evolution of the legal status of digital assets within the framework of the TRIPS Agreement and WIPO treaties. It examines the development of digital content as objects of intellectual property, and the international legal norms governing their protection — particularly Article 10 of the TRIPS Agreement, and additional treaties such as the WCT and WPPT. Furthermore, the application of copyright, patent, and trademark law to digital objects is assessed, along with their limitations and contemporary legal challenges. The thesis evaluates how these treaties adapt to modern technological realities and their legal flexibility. The primary focus is placed on the evolution of international legal mechanisms regarding digital assets, their implementation challenges, and the identification of existing legal gaps.

Keywords: digital assets, intellectual property, TRIPS Agreement, WIPO treaties, copyright, digital content, legal status, international law.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-17>

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti zamonaviy huquqiy munosabatlarga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, intellektual mulk huquqi sohasida yuzaga kelayotgan yangi obyektlar — raqamli aktivlar — ularni huquqiy jihatdan tartibga solishning yangi yondashuvlarini talab qiladi. An'anaviy mulk obyektlari bilan solishtirganda, raqamli aktivlar bevosita inson ijodiy faoliyatining mahsuli bo'lishi, cheksiz ko'paytirilishi va tezkor tarqatilishi bilan ajralib turadi. Bu esa ularning huquqiy maqomini aniqlash va xalqaro miqyosda himoya qilish masalasini dolzarb muammoga aylantirgan.

Raqamli aktivlarga nisbatan mualliflik huquqi, patent huquqi yoki boshqa intellektual mulk institutlarining qanday tatbiq etilishi yuzasidan hozirgacha yagona yondashuv mavjud emas. Aynan shu bois, TRIPS bitimi va Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan qabul qilingan qo'shimcha shartnomalar, xususan WIPO Copyright Treaty (WCT) va WIPO Performances and Phonograms Treaty (WPPT) kabi hujjatlar orqali raqamli obyektlarga

nisbatan muhofaza choralarini takomillashtirishga qaratilgan xalqaro sa'y-harakatlar kuzatilyapti. Mazkur tezisda ushbu shartnomalar doirasida raqamli aktivlar huquqiy maqomining shakllanishi va evolyutsiyasi tahlil qilinadi.

Raqamli aktivlar zamonaviy huquq tizimida intellektual mulk obyektlarining yangi shakli sifatida shakllandi. Ularning tarqalish sur'ati, texnologik asoslari va turfa funksional xususiyatlari raqamli aktivlarni huquqiy jihatdan to'g'ri tasniflash va samarali himoya qilish zaruratini keltirib chiqarqan. Mazkur jarayon xalqaro miqyosda, ayniqsa, TRIPS bitimi va WIPO shartnomalari orqali bosqichma-bosqich tartibga solinmoqda. Ushbu xalqaro huquqiy asoslar raqamli kontentga nisbatan mualliflik huquqini tatbiq etish, raqamli vositalar bilan bog'liq nusxa ko'paytirishni nazorat qilish va yaratuvchilik faoliyatini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

TRIPS bitimi — "Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risida bitim" (1994) — jahon intellektual mulk tizimida muhim burilish yasadi. Mazkur bitimning 10-moddasida kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari mualliflik huquqi bilan himoya qilinishi qat'iy belgilangan. Bunda kompyuter dasturi "adabiy asar" sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uning original ifoda shakli muhofaza obyekti sifatida baholanadi [1; TRIPS, mod. 10]. Bu tamoyil raqamli obyektlarning intellektual mulk obyektlari qatoriga qo'shilishini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berdi.

Shu bilan birga, 1996-yilda qabul qilingan WIPO Copyright Treaty (WCT) va WIPO Performances and Phonograms Treaty (WPPT) shartnomalari TRIPS bitimining umumiy qoidalarini raqamli muhitga moslashtirishga qaratilgan bo'ldi. WCT shartnomasining 8-moddasiga ko'ra, mualliflar o'z asarlarini "raqamli tarmoqlar orqali ommaga yetkazish" huquqiga ega bo'lishi, ushbu tarqatish jarayonlari esa faqat muallif ruxsati bilan amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlangan [2; WCT, art. 8]. Mazkur norma raqamli kontentni internet orqali ko'paytirish va ulashish bilan bog'liq huquqiy xavflarning oldini olishga qaratilgan.

WIPO ekspertlari fikricha, ushbu ikki shartnoma raqamli asarlarni huquqiy muhofazaga olishda "yangi davrni boshlab bergan" bo'lib, ular orqali kompyuter dasturlari, elektron kitoblar, raqamli san'at asarlari va internetga joylashtirilgan boshqa kontentlar uchun universal muhofaza mexanizmlari ishlab chiqilgan [3; WIPO, 2022]. Shu bilan birga, bunday evolyutsiya bir qator yechilmagan masalalarni ham yuzaga chiqardi. Eng katta muammo — bu raqamli obyektlar ustidan egalik va mualliflik huquqining o'zaro chegaralarini aniqlashda namoyon bo'lmoqda.

Masalan, raqamli aktivlarning oson nusxalanishi va global raqamli platformalarda chegarasiz tarqatilishi mavjud intellektual mulk tizimlarini zaiflashtirmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar mualliflik huquqi tamoyillariga to'g'ri kelmasligi, bu obyektlar ustidan inson muallifning mavjud emasligi sababli huquqiy bo'shliq paydo qilmoqda. O'zbekiston qonunchiligida ham ushbu masala yaqqol ifoda etilgan: "Texnika vositalari yordamida yaratilgan mahsulotlar mualliflik huquqi obyektlari hisoblanmaydi" [4; O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2006, mod. 8].

Raqamli aktivlar bo'yicha xalqaro huquqiy evolyutsiyaning muhim jihati — bu ularning faqatgina mualliflik emas, balki patent, savdo belgisi va tijorat siri kabi boshqa huquqiy rejimlar bilan ham tartibga solinishi ehtimolidir. Masalan, raqamli kodlar, blokcheyn tizimlari va sun'iy intellekt algoritmlari texnik yechimlar sifatida patentlashtirilishi mumkin [5; B.35.]. Shu bois, hozirgi evolyutsiya bir yoqlama emas, balki kompleks yondashuvlar tizimi sifatida qaralmoqda.

TRIPS va WIPO shartnomalari raqamli aktivlarga huquqiy maqom berish borasida global standartlarni shakllantirdi. Ammo bu maqom hali to'liq aniqlashtirilmagan va yangi texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt rivoji, mavjud huquqiy modellarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Shuning uchun, zamonaviy xalqaro huquqda raqamli obyektlar evolyutsiyasi uzluksiz tahlil, yangilanish va normativ izchillikni zarur etadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, TRIPS bitimi va WIPO shartnomalari raqamli aktivlar intellektual mulk huquqi tizimiga integratsiyalashuvi yo'lida global miqyosda mustahkam normativ asos yaratdi. Ayniqsa, WCT va WPPT shartnomalari orqali raqamli kontent ustidan mualliflik huquqining tatbiq etilishi va raqamli tarqatish vositalari ustidan nazoratning kuchaytirilishi hozirgi raqamli davr talablariga mos huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Biroq, texnologik taraqqiyot tezligiga nisbatan mavjud normativ bazaning muvofiqligi hali to'liq ta'minlanmagan.

Sun'iy intellekt, blokcheyn va metaverse kabi texnologiyalar natijasida yuzaga kelayotgan yangi turdagi raqamli obyektlarning huquqiy maqomi, yaratuvchilik subyekti va egalik masalalari hali ham xalqaro huquqiy hamjamiyatda muhokama markazida turibdi. Bu esa mavjud xalqaro shartnomalarni qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy texnologik voqelikka moslashtirish va raqamli aktivlarga nisbatan maxsus huquqiy institutlarni joriy etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu asosda, xalqaro huquq tizimi oldida ikkita asosiy vazifa turibdi: birinchidan, raqamli aktivlarning to'liq va aniqlangan huquqiy maqomini belgilovchi yangilangan hujjatlarni ishlab chiqish; ikkinchidan, sun'iy intellekt mahsulotlari va boshqa sun'iy yaratuvchanlik shakllarini intellektual mulk tizimida qay darajada subyekt sifatida tan olish mumkinligini belgilovchi nazariy-huquqiy mexanizmlarni yaratish. Aks holda, huquqiy bo'shliqlar raqamli iqtisodiyot rivojiga tahdid solishda davom etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS), 1994. Article 10. Available at: https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/27-trips_04b_e.htm
2. WIPO Copyright Treaty (WCT), 1996. Article 8. Available at: <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/wct>
3. WIPO. Copyright and the Digital Environment: Guide for Policy Makers. Geneva: WIPO Publications. 2022.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni. 2006-yil 20-iyul, № ZRU-42. <https://lex.uz/ru/docs/-1022944>
5. Takenaka, T. Intellectual Property in the New Technological Age: AI, Algorithms, and Innovation. Oxford University Press. 2019. 35 b.

XALQARO MEHNAT TASHKILOTI VA UNING XALQARO MEHNAT STANDARTLARINI ISHLAB CHIQISHDAGI O'RNI

Burxonov Shahzod Burxon o'g'li

TDYU Ommaviy axborot vositalari huquqi magistranti

E-mail: shahzodburxonov90@gmail.com

Tel: +998 97 893 18 88

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola XMTning tarixiy rivojlanishini, boshqaruv tuzilmalarini va zamonaviy mehnat muammolariga moslashishga bo'lgan davomiy harakatlarini, ijtimoiy muloqot, mehnat qonunchiligi va xalqaro hamkorlikka ta'sirini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro Mehnat Tashkiloti, mehnat standartlari, ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya, mehnat huquqlari, global hamkorlik.

THE INTERNATIONAL LABOUR ORGANIZATION AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL LABOUR STANDARDS

Burxonov Shahzod Burxon ogli

Master's Student in Media Law,

Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides an overview of the ILO's historical evolution, its governing structures, and its ongoing efforts to adapt to modern labor challenges, focusing on its impact on social dialogue, labor legislation, and international cooperation.

Keywords: International Labour Organization, ILO, labor standards, social justice, tripartite structure, labor conventions, social protection, labor rights, global cooperation.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-18>

Zamonaviy mehnat munosabatlarining murakkablashuvi va globallashtirish sharoitida xalqaro miqyosda yagona mehnat standartlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, inson huquqlarini himoya qilish, adolatli mehnat sharoitlarini yaratish va majburiy mehnatga barham berish masalalari bugungi kunning ustuvor yo'nalishlari qatoriga kiradi. Shu nuqtai nazardan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) xalqaro mehnat huquqini shakllantirishda va mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda markaziy o'rin egallaydi.

Mehnat bo'yicha Xalqaro Tashkilot (keyingi o'rinlarda – XMT) — Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, 1919-yilda Versal tinchlik shartnomasi asosida Millatlar Ligasining tarkibiy bo'linmasi sifatida tashkil etilgan. Tashkilotning e'lon qilingan vazifasi — ijtimoiy adolat uchun kurash edi. Shu maqsadda turli mamlakatlarning hukumatlari, ishchilari va ish beruvchilari mehnat normalarini ishlab chiqish yo'lida kuchlarini birlashtirishga qaror qilishdi[1].

XMT Ustavi 1919-yil yanvar-aprel oylarida Versal tinchlik shartnomasiga muvofiq tuzilgan Xalqaro mehnat qonunchiligi komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu komissiya Belgiyadan, Kubadan, Chexoslovakiyadan, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Polshadan, Buyuk Britaniya va AQShdan bo'lgan vakillardan iborat edi. Komissiyaga Amerika Mehnat Federatsiyasi raisi rahbarlik qilgan. Komissiya faoliyati natijasida hukumatlar,

ish beruvchilar va mehnatkashlar vakillarini birlashtirgan uch tomonlama tashkilot vujudga keldi. XMT Ustavi Versal shartnomasining XIII qismi sifatida kiritilgan[2].

Ustavning preambulasida quyidagi jumla keltirilgan: «Agar biror mamlakat o'z mehnatkashlariga insoniy mehnat sharoitlarini taqdim etmasa, bu boshqa xalqlar uchun to'siq bo'ladi, ular esa o'z yurti ishchilarining ahvolini yaxshilashga intilmoqda». Tashkilot mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali ijtimoiy adolatga erishishni targ'ib qiladi.

Ikkinchi jahon urushi yakunida, 1944-yilda bo'lib o'tgan Xalqaro mehnat konferensiyasida MXTning urushdan keyingi davrdagi maqsad va vazifalarini aniqlashtiruvchi Filadelfiya deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda quyidagi tamoyillar mustahkamlangan edi[3]:

- mehnat tovar emas;
- so'z erkinligi va uyushmalar erkinligi doimiy taraqqiyotning zaruriy shartidir;
- dunyoning istalgan nuqtasidagi qashshoqlik umumiy farovonlik uchun tahdiddir;
- barcha insonlar, irqi, e'tiqodi yoki jinsi qat'i nazar, erkinlik va qadr-qimmat, iqtisodiy barqarorlik va teng imkoniyatlar sharoitida moddiy farovonlikka va ma'naviy kamolotga erishish huquqiga egadirlar.

1946-yilda XMT yangi tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining birinchi ixtisoslashgan agentligi bo'ldi va bugungi kungacha uch tomonlama (tripartizm) tamoyili asosida ishlovchi yagona xalqaro organ bo'lib qolmoqda. Ushbu tamoyil — kasaba uyushmalari, ish beruvchilar va hukumat vakillari o'rtasida murosali kelishuvga erishish maqsadida uch tomonlama maslahatlashuvlar amaliyotidir. Bu tamoyil XMT bosh qarorgohining asosiy darvozasi qurilishida ham aks ettirilgan: darvozani ochish uchun uchta kalit kerak bo'ladi, ular tashkilotning uch tomonlama ishtirokchilarining teng ahamiyatini anglatadi[4].

Xalqaro mehnat qonunchiligi rivoji XMT tomonidan konvensiyalar va tavsiyalar orqali amalga oshiriladi. Ular Xalqaro mehnat konferensiyasi (ya'ni XMTning oliy boshqaruv organi) delegatlari tomonidan qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Konferensiyada 187 ta a'zo davlatning hukumat, ish beruvchilar va mehnatkashlar vakillari ishtirok etadi. XMT faoliyati davomida 189 ta konvensiya va 200 dan ortiq tavsiya qabul qilingan. Tavsiyalar – milliy siyosatni shakllantirish va amaliy choralarni ko'rish uchun yo'riq va yo'nalishlarni beradi. Ular ratifikatsiyani talab qilmaydi, balki konvensiyalarni aniqlashtiruvchi yoki to'ldiruvchi qoidalarni o'z ichiga oladi, shuningdek, ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solish modeli sifatida xizmat qiladi[5].

XMT a'zo davlatlar konvensiyalarni ratifikatsiya qiladi va ularni milliy darajada amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi, bu choralarning samaradorligi haqidagi hisobotlarni doimiy ravishda XMT bosh qarorgohiga topshiradi. Shu bilan birga, XMT Ustaviga muvofiq, davlat tomonidan konvensiyaning ratifikatsiyasi mehnatkashlar uchun ko'proq imtiyozli bo'lgan milliy qoidalarni buzmasligi lozim.

XMT faoliyatining dastlabki bosqichlaridayoq millionlab insonlarning huquqlari uchun kurashda sanoatdagi ish vaqti, ishsizlik, onalikni muhofaza qilish, ayollarning tungi mehnati, minimal yosh va yoshlarga oid tungi mehnat kabi eng muhim mehnat masalalari bo'yicha olti xalqaro konvensiya qabul qilingan.

XX asr oxiriga kelib, XMT barcha a'zo davlatlarga ularning tashkilot a'zolidan kelib chiqadigan quyidagi asosiy majburiyatlarini eslatib o'tdi[6]:

• uyushmalar erkinligi va jamoaviy muzokaralar olib borish huquqining samarali tan olinishi;

- majburiy yoki majburiy mehnatning barcha shakllarini bekor qilish;
- bolalar mehnatini samarali ravishda taqiqlash;
- mehnat va bandlik sohasida diskriminatsiyani yo'l qo'ymaslik.

Mehnat bo'yicha Xalqaro Tashkilotning oliy boshqaruv organi har yili o'tkaziladigan Xalqaro mehnat konferensiyasidir. U xalqaro mehnat normalarini qabul qiladi, MXTning umumiy siyosatini belgilaydi, har ikki yilda bir marta ikki yillik faoliyat dasturi va budjetini tasdiqlaydi. Konferensiya global ijtimoiy-mehnat masalalarini muhokama qilish uchun xalqaro forum sifatida xizmat qiladi. Har bir ishtirokchi davlat konferensiyaga to'rtta delegat yuborish huquqiga ega: ikki nafar hukumat vakili va bir nafar ishchilar hamda ish beruvchilar vakili[7]. Ushbu delegatlar mustaqil ravishda nutq so'zlash va ovoz berish huquqiga ega.

1920-yildan boshlab XMTning bosh qarorgohi Jenevada joylashgan Xalqaro mehnat byurosi (XMB) bo'lib, uning bosh direktorini besh yil muddatga saylashadi. XMB – XMTning doimiy ishlovchi organi (sekretariati) bo'lib, uning faoliyatini uch tomonlama komitetlar tarkibidagi mutaxassislar va ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi[8]. Ushbu komitetlar asosiy sanoat tarmoqlari, kasb-hunar tayyorlash, boshqaruvni rivojlantirish, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlari va ba'zi mehnatkash guruhlarining (yoshlar, nogironlar va boshqalar) muammolariga bag'ishlangan masalalar bo'yicha ishlaydi. Ish beruvchilar va ishchilar bilan bog'liq barcha masalalar va xalqaro mehnat standartlarining bajarilishini ta'minlash uchun XMBning bo'limlari mas'uldir[12].

Operativ shtab va tadqiqot va nashriyot markazi sifatida XMB konferensiyalar va yig'ilishlar uchun hujjatlar va hisobotlarni tayyorlash, normativ hujjatlarni ishlab chiqish va hamkorlik dasturlarini boshqarish bilan shug'ullanadi. XMBning boshqaruv va administrativ masalalari desentralizatsiya qilingan bo'lib, 40 dan ortiq dunyo bo'ylab vakolatxonalarga tarqatilgan.

XMT o'z ishida turli metodlarni qo'llaydi. Ularning asosiylari quyidagilardir[9]:

1. Hukumatlar, ishchilarning tashkilotlari va ish beruvchilar o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish (tripartizm);
2. Xalqaro mehnat normalarini ishlab chiqish va qabul qilish, ularni qo'llashni nazorat qilish (normativ faoliyat);
3. Mamlakatlarga ijtimoiy-mehnat masalalarini hal qilishda yordam ko'rsatish, bu MXTda texnik hamkorlik deb ataladi;
4. Ijtimoiy-mehnat muammolariga doir tadqiqotlar o'tkazish va nashrlar chiqarish.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) mehnat huquqlari va sharoitlarini yaxshilash borasida muhim xalqaro institut hisoblanadi. Tashkilotning xalqaro mehnat standartlari, jumladan konvensiyalar va tavsiyalar, barcha a'zo davlatlarga mehnat sohasida umumiy qoidalar va huquqlarni belgilaydi. XMTning uch tomonlama tamoyili, ya'ni ishchilar, ish beruvchilar va hukumatlarning birgalikdagi ishtiroki, tashkilotning qarorlar qabul qilishdagi muhimligini ta'minlaydi. XMT tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, mamlakatlarning mehnat qonunchiligini yaxshilash va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Adabiyotlar/Literatūra/References:

1. Экономика труда : социально-трудовые отношения : учебник / под ред. Н. А. Волгина, Ю. Г. Одегова, 2006. – 736 с.
2. Устав Международной организации труда и Регламент Международной конференции труда. Международное бюро труда. – Женева, 1996.
3. Декларация МОТ об основополагающих принципах и правах в сфере труда и механизм ее реализации. Международная конференция труда 86-й сессия. Женева, 18 июня 1998 г.
4. Достойный труд: доклад генерального директора МОТ на Международной конференции труда (87-я сессия 1999 г.). – Женева, 1999.
5. Декларация МОТ о социальной справедливости в целях справедливой глобализации: принята Международной конференцией труда. – Женева, 2008. –С. 1–2.
6. Индикаторы достойного труда. – URL: https://www.gks.ru/labor_market_employment_salaries
7. Федченко А. А. Экономический анализ как условие реализации концепции достойного труда / А. А. Федченко // Современная экономика : проблемы и решения. – 2013. – № 11 (47). – С. 197–209.
8. Clarke, R. (2006), Introduction to dataveillance and information privacy, and definition of terms, Chapman, ACT, Australia: Xamax Consultancy. Available from: <http://www.rogerclarke.com/DV/Intro.html#DV>
9. Polanyi, K. (1944/1957), The Great Transformation: The political and economic origins of our time (Boston: Beacon Press).
10. Standing, G. (2007), 'Labour Recommodification in the Global Transformation', in A. Buğra and K. Ağartan, eds., Reading Karl Polanyi for the twenty-first century (New York and Basingstoke: Palgrave Macmillan), pp. 67-94.
11. World Commission on the Social Dimension of Globalisation (2004), A fair globalisation: Creating opportunities for all (Geneva: International Labour Organisation).
12. Donaghey, J., Reinecke, J., Niforou, C. and Lawson, B. (2013) 'From employment relations to consumption relations: balancing labour governance in global supply chains', Human Resource Management, 53/2:229-252.

PEDAGOGIKA FANLARI

O'QUV FAOLIYATI TAMOYILLARIDA INTEGRATIV VA SINERGETIK YONDASHUVLAR

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

Alfraganus universiteti Turizm fakulteti

Umumkasbiy fanlar kafedrası (PhD) dotsenti

E-mail: b.haqberdiyev@afu.uz

Tel: +998 90 109 09 70

ORCID 0000-0002-2208-7827

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlari orqali imkoniyatlar ishlab chiqish, hodisalarni tamoyillari uni foydalanuvchilari tomonidan tizimni asosiy xususiyatlari yoki shunga qaratilgan aniq maqsadlarini namoyon etuvchi vosita sifatida qaralishi, mutaxassislik talabalarini bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish darajalarini optimallashtirish qizqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: faoliyat, tizim, integratsiya, sinergetika, yondashuv, tarbiya, ta'lim, istiqbol, texnologiya, energiya, axborot, tamoyil, uzviylik, mashg'ulot.

INTEGRATIVE AND SYNERGETIC APPROACHES TO LEARNING PRINCIPLES

Khakberdiev Bakhtiyor Rustamovich

Faculty of Tourism of the, University of Alfraganus

Department of General Professional

Sciences, Associate Professor

Abstract. The article briefly examines the issues of developing capabilities through integrative and synergetic approaches to the principles of educational activity, considering the principles of phenomena by its users as a means of demonstrating the main features of the system or specific goals aimed at it, and optimizing the level of mastering the knowledge, skills and abilities of students in the specialty.

Keywords: activity, system, integration, synergy, approach, upbringing, education, perspective, technology, energy, information, principle, coherence, training.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-19>

Kirish. Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, zamon talablariga mos raqobatbardoshli kadrlarni yurtimizda tayyorlash, o'quv faoliyati tamoyillaridan integratsiya va sinergetik yondashuvlar orqali imkoniyatlar ishlab chiqish muhim vazifa qilib belgilangan. Yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek "Eng katta boylik bu — aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu — yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bu — bilimsizlikdir. Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq"[1;1-b].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida sinergetik kompetentlik bo'yicha asosan Rossiya federatsiyasida G.G.Kurdyumov, V.S. Stepin, V.V. Kosarev AQShda G. Xaken kabi olimlar bir qancha ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishgan. Respublikamiz olimlaridan B.To'rayev, K.M.Aliyeva, M.Abdullayev, A.O'tamurodov kabi olimlar izlanishlar olib borishgan.

Kevin Kelly "Out of Control" nomli kitobida tabiyat jozibalari, o'zgarishlari, san'ati bilan texnologiyani integratsiyasi yuzasidan yangi tizim ishlab chiqib yangi yondashuvlarni amaliyotga tadbiiq etishga undagan. Kellyning kitobida texnologiya haqida gap ketar ekan texnologiya o'zaro ta'sir qiluvchi va o'zaro bog'liq tizimlar bo'lib, san'at bilan birgalikda yangi tamoillar, shakllar va funksiyalar vujudga kelishi, hayotga o'zining ta'sirini ko'rsatishi haqida fikr yuritib bu ikki yo'nalish haqida chuqur aloqadorlikni ko'rsatib o'tgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tizimni barcha qismlarini va ularni o'zaro ta'siri integrativ va sinergetik yondashuvlarga mos keladi.

Integrativ va sinergetik yondashuvlar aloqadorlik, yaxlitlik, bir butunlilik, to'ldiruvchanlik, hamkorlik, muofiqlik, fanlar mavzularini integrativ va sinergetik yondashuvlarda erkin maqomga ega bo'lishi, tartib va tartibsizlikning tabiat, jamiyat va inson munosabatlarining me'yori kabi masalalar Sharq falsafiy manbalarida azal-azaldan mavjud bo'lgan[2;191-b].

"Sinergetika – muvozanatsiz ochiq tizimlarning atrof muhit bilan modda, energiya va axborot almashuv hisobiga vujudga keluvchi struktura elementlari o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganuvchi ilmiy yo'nalish. Bunday tizimlarda tashkiliy tuzilma elementlarining bir-biri bilan o'zaro muvofiq munosabatda bo'lishi va uning natijasida tizimda tartiblilik darajasi ortib borishi, ya'ni entropiyaning kamayishi kuzatiladi"[3;229-230-b].

Biror ishni qiymatlashdagi xatti-harakat uchun qo'llanma vazifasini bajarayotgan taklif bu tamoyilni bir ko'rinishi hisoblanadi. U ixtiyoriy holda yoki tabiat qonunlarini bajarilishi, qandaydir bir tizim vujudga keltirilishi kabi hodisalarni natijasi hisoblanadi. Bunday hodisalarni tamoyillari uni foydalanuvchilari tomonidan tizimni asosiy xususiyatlari yoki shunga qaratilgan aniq maqsadlarini namoyon etuvchi vosita sifatida qaraladi. Shuni inobatga olgan holda o'quv faoliyati tamoyillariga to'xtalar ekanmiz tamoyillar majmuasi aniqligi, isbot talab etmasligi, amaliyligi tufayli, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ajoyib natijalarni beradi. Tamoyillar o'quv faoliyati jarayonini mohiyati hisoblanadi, qoidalari esa uni alohida har bir tomonlarini namoyon qiladi.

"Sinergetika – bu sinergizm hodisalarini o'rganuvchi fan, sinergizm esa -o'zini o'zi tashkil etayotgan tizim elementlarining hamkorlikdagi harakati; olamni va alohida tizimlarni yaxlit idrok etishning ilmiy konsepsiyasi" [4;384-385-b].

O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlarni mazmunli va tashkiliy metodik manbalardan jamlangan tizim sifatida roli muhimdir. O'quv faoliyati mazmunini ifodalash bilan bog'liq bo'lgan funksiyalarni aks ettirishda ko'pgina yondashuvlarni ifodalaydi bular fuqarolik-ilmiyligi, integratsiya-fanlarni yaxlitlanganligi, sinergetik yondashuv-tarbiyalovchi ta'lim, fanlar uyg'unligi-nazariya bilan amaliyotni integratsiyasi, jamiyat va tabiyat bilan uyg'unligi- madaniyat bilan uyg'unligi, mashg'ulotlar bilan uyg'unligini e'tirof etish lozim[5;255-256-b]. O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlarni o'ziga xos xususiyatlari

➤ O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlar jarayoni mexanizmlarini analiz sentiz qilish, moslashtirish asosida yuqori samarali natijalarga asoslangan maqsadlarni tizimli ishlab chiqish:

➤ O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlari asosida yuqori samarali natijalarga asoslangan maqsadlarni toifalarga bo'lib aniq o'rnatish orqali

mutaxassislik talabalarini bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish darajalarini optimallashtirish;

➤ O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlari asosida mutaxassislik talabalarini bilim, ko'nikmalarini samarali o'zlashtirilishida yondashuvlarni to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, mavzular aloqadorligini ketma-ketligi, zamon talabi va ishlab chiqarishga uzviyligini yanada mustahkamliligi, oxirgi rusumdagi zamonaviy axborot vositalaridan to'liq foydalanib dars mashg'ulotlarini o'tish[6; 250-251-b];

➤ O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlari asosida mutaxassislik talabalarini integrativ fanlar mavzulariga qiziqishlarini yanada faollashtirish, nazariyalarni amaliyot bilan uzviyligini yanada rivojlantirish, mashg'ulotga belgilangan vaqtdan unumli foydalanish;

➤ O'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlari asosida aloqadorlikdagi mavzularni mazmunli, qiziqarli o'tishda ko'p marotaba takrorlash tizimlarini ishlab chiqish samaradorligiga erishiladi.

Xulosa shundan iboratki o'quv faoliyati tamoyillarida integrativ va sinergetik yondashuvlari sinergetik nuqtai nazardan mazmun mohiyatini hamda unga tegishli bo'lgan barcha xususiyatlarini aniqlash ushbu fanlardagi aloqadorlik holatlarini sinergetik terminlar bilan ifodalash, o'quv faoliyati tamoyillarida tizimni yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirish, chiziqli va nochiziqli tizimni bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ilmiy tahlil qilish samarali natija berishiga ishonamiz.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev @daryo_live t.me/daryo_live/93802
2. Haqberdiev, B. R. (2020). The degree to which the problem has been studied. CUTTING EDGE-SCIENCE, 191.
3. Пляцук Л. Д. Синергетика: нелинейные процессы в экологии: монография/ Л. Д. Пляцук, Е. Ю. Черныш. – Сумы: Сумский государственный университет, 2016. – 229 с.
4. Falsafa izohli lug'at / Mualliflar: M.N.Abdullaeva, M.Abdurashidov, U.Abilov va boshq.: – T.: Sharq, 2004. – 384 b.
5. Rustamovich, H. B. (2024). Texnik va san'at fanlarini sinergetik kompetentlik asosida integratsiyalsh. Analysis of modern science and innovation, 1(3), 255-257.
6. Baxtiyor Haqberdiyev,. (2024). In technical and artistic sciences: integration, synergetics, competence. News of the NUUz, 1(1.10.1), 250-252. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.10.1.4744>.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ОТЕЧЕСТВЕННОГО И ЗАРУБЕЖНОГО ИНТЕРЬЕРНОГО ДИЗАЙНА

Исмагилова Мадинабону Шовкат кизи,
Студентка кафедры дизайна факультета туризма
Университета Альфраганус, группа Диз 23/1
E-mail: ismagilovamadina20@gmail.com

Аннотация. В данной статье освещается роль научно-методических подходов в формировании и развитии отечественного и зарубежного интерьерного дизайна. Рассмотрены историческое развитие интерьерного дизайна, его теоретические основы, масштаб современной дизайнерской деятельности и адаптация к общественным потребностям. Также проанализированы вопросы повышения качества образования через совершенствование методического обеспечения преподавания интерьерного дизайна. Эстетический вкус, эмпатия и технические навыки студентов рассматриваются как важные факторы развития этой области.

Ключевые слова: Интерьерный дизайн, методическое обеспечение, история дизайна, эмпатия, проектирование, функциональные решения, эстетическое развитие, дизайнерская деятельность.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL SOLUTIONS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF DOMESTIC AND FOREIGN INTERIOR DESIGN

Ismagilova Madinabonu Shovkat kizi,
Student of the Department of Design, Faculty of Tourism
University Alfraganus, group Diz 23/1

Abstract. This article highlights the role of scientific and methodological approaches in the formation and development of domestic and foreign interior design. The historical development of interior design, its theoretical foundations, the scale of modern design activity and adaptation to public needs are considered. The issues of improving the quality of education through the improvement of methodological support for teaching interior design are also analyzed. Aesthetic taste, empathy and technical skills of students are considered as important factors in the development of this area.

Keywords: Interior design, methodological support, history of design, empathy, design, functional solutions, aesthetic development, design activity.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-20>

Сейчас в нашей стране осуществляются положительные реформы, направленные на совершенствование содержания методического обеспечения и повышение качества образования до уровня мировых стандартов. Но при этом в сфере преподавание интерьерного дизайна остается не мало проблем. Нужно обновлять методические материалы, делать их ближе к реальной жизни и практическому применению. Пока данные и другие проблемы не будут решены, образовательные инициативы в этом направлении не смогут достигнуть высокого уровня.

Интерьерный дизайн — это область дизайна, направленная на создание удобного и эстетически привлекательного взаимодействия между окружающей средой и человеком во внутреннем пространстве зданий. Внутренний дизайн объединяет элементы художественного и промышленного дизайна. Ранее интерьеры разрабатывались интуитивно в рамках строительного процесса. Профессия интерьерного дизайнера возникла как результат сложной архитектуры, появившейся

вследствие развития общества и промышленных процессов. Стремление к эффективному использованию пространства, созданию комфорта и функциональности послужило стимулом для развития современной профессии интерьерного дизайна[1;2708-с].

Слово «дизайн» происходит от латинского «designare» — обозначать, придавать значение. Итальянское слово «disegno» с эпохи Возрождения обозначало не только проекты и рисунки, но и хорошо обоснованные идеи и мысли. В английском языке понятие «design» распространилось в XVI веке и имеет три значения: декоративные объекты (узоры, орнаменты), графические проекты (эскизы, рисунки, чертежи), а также планирование в широком смысле. В русском языке «дизайн» используется в значении проектирования предметной среды, окружающей человека.

Дизайн охватывает потребительские товары, машины, станки, одежду, рекламные и упаковочные материалы, обустройство производственных, общественных и жилых помещений, мебель и многое другое. Дизайн как вид деятельности возник в начале XX века и оформился в 1930-х годах в Западной Европе и США. С конца 1980-х годов сфера дизайна значительно расширилась. Дизайнеры, обладая художественным чутьем, опираются также на научные дисциплины (например, материаловедение, колористику), разбираются в производственных условиях, социологии и других областях знаний. История дизайна тесно связана с историей человечества — люди всегда обращали внимание на внешний вид предметов, что и послужило основой появления дизайна.

Дизайнер решает не свои, а чужие проблемы. Чтобы создать хороший дизайн, нужно понимать, что важно для других людей, а значит — сопереживать вместе с ними. Доверительный тон общения помогает дизайнеру устанавливать контакт с людьми и находить инновационные решения. Эмпатия — способность поставить себя на место другого человека и попытаться понять его чувства, желания, идеи и действия — помогает смотреть на людей и ситуации с новой точки зрения. Например, невозможно реализовать проект, не понимая, для кого он предназначен[1;66-с].

С точки зрения деятельности «дизайн» — это проектирование и черчение, в некоторых случаях художественное проектирование. По мнению большинства исследователей, дизайн — это разновидность художественно-проектной деятельности, направленной на создание промышленных изделий и формирование цельной предметной среды. Этот термин также применяется для описания самого процесса и его результатов (эскизы, макеты, проекты изделий и среды, полиграфическая продукция и т.д.).

Дизайнер интегрирует научно-технический прогресс, включая автоматизированное проектирование, и технологические процессы, необходимые для любого производственного цикла. Он объединяет моделирование материалов с проектными решениями, применимыми в жизни общества и человека, охватывая потребительские, технологические, экономические и другие аспекты[2; 251-с].

Кроме того, дизайнеры интерьеров могут специализироваться в таких сферах, как дизайн в здравоохранении, геронтологический дизайн, проектирование образовательных учреждений и других областях, требующих специальных знаний и высшего образования.

Проектирование интерьера начинается с подготовки дизайн-проекта — пакета документов, описывающих функциональные и дизайнерские решения, включая чертежи помещений и детали будущего интерьера, отделочные материалы и расположение коммуникаций[4; 288-с].

Поскольку дизайнер должен максимально эффективно использовать доступное пространство, многие детали зависят от конструкции здания и требуют консультаций с инженером-строителем.

Согласно исследованию Оксфордского университета, в будущем возрастет спрос на дизайнеров, и карьера в области интерьерного дизайна станет более перспективной. Почему именно интерьерный дизайн? В отличие от архитектуры, интерьер можно менять практически бесконечно, адаптируя его к вкусам людей и требованиям времени, причем это можно сделать быстро и просто. Тем не менее, интерьер остается неотъемлемой частью архитектуры. Курсы в этой области знакомят студентов с различными аспектами архитектуры, технологий и дизайна, ориентированными на взаимодействие пользователя с внутренним пространством. Также студенты изучают цветовые схемы, мягкую мебель, управление пространством, выбор продукции и мебели. Помимо развитого эстетического восприятия, дизайнеры получают знания в области санитарии, освещения, отопления и вентиляции, что необходимо для полного проектирования интерьера с нуля.

Литература/References/Adabiyotlar:

1. Rustamovich, H. B. Zamonaviy ta'limda muhandislik grafikasi va dizayn fanlarni integrativ yondashuvlari. Xalqaro konferensiya "İpek Yolu ve Ötesi Kongre Serisi"(SIRCON 2023)"Bir Yol Bir Kuşak: Göç, Turizm ve EkonomiPolitik, 2707-2721.
2. Haqberdiyev, B. R., Ismag'lova, M. S. Q., & Imomnazarova, D. F. Q. (2025). Raqamli texnologiyalarda arxitektura va dizayn. Academic research in educational sciences, (Conference 1), 65-66.
3. Baxtiyor Haqberdiyev,. (2024). In technical and artistic sciences: integration, synergetics, competence. News of the NUUz, 1(1.10.1), 250-252. <https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.10.1.4744>
4. Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich, Ismag'lova Madinabonu Shovkat qizi, Imomnazarova Durdona Farxod qizi. (2025, апрель 18). Raqamli texnologiyalarni grafik ta'lim jarayoni bilan integratsiyalash amaliyotiga tadbiq etish natijalarida dizayn. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15240522>

O'QITUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIK KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Olimov Talat Shavkatovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola o'qituvchilarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodlarini keng qamrovli va batafsil yoritishga qaratilgan bo'lib, o'qituvchilarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini takomillashtirish usullarining nazariy asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, o'qituvchi, axborot olami, mediasavodxonlik, ko'nikma, malaka.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL SOLUTIONS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF DOMESTIC AND FOREIGN INTERIOR DESIGN

Olimov Talat Shavkatovich

Samarkand State University
named after Sharof Rashidov,
Researcher

Abstract. This article aims to provide a comprehensive and detailed coverage of methods for developing media literacy skills in teachers, and describes the theoretical foundations of methods for improving media literacy skills in teachers.

Keywords: pedagogue, teacher, information world, media literacy, skills, qualifications.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-21>

Bugungi kunda axborot hajmining kengayishi, yangi media texnologiyalarning paydo bo'lishi va ularning jamiyatga chuqur ta'siri mediasavodxonlikni jamiyatning barcha qatlamlarida, ayniqsa ta'lim tizimida dolzarb masalaga aylantirdi. O'qituvchilar bu jarayonda markaziy o'rinni egallaydi, chunki ular yosh avlodni axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va media vositalaridan samarali foydalanishga o'rgatish uchun mas'ul hisoblanadi.

Mediasavodxonlik-ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o'zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mediasavodxonlikning maqsadi har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklarini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir..

Mediasavodxonlik axborotni tushunish, tanqidiy baholash va uni samarali qo'llash ko'nikmasidir. Bu tushunchaning quyidagi asosiy tarkibiy qismlarini ajratish mumkin:

- Axborot manbalarini tanlash va tekshirish;
- Axborotni tanqidiy baholash;

- Mediani yaratish va tarqatishning qonun-qoidolari;
- Axborotning madaniy va ijtimoiy kontekstini tahlil qilish;
- Media vositalarining jamiyatga ta'sirini tushunish.

Mediasavodxonlik ta'lim tizimida o'qituvchilar uchun ikki jihatdan ahamiyatlidir: avvalo, ularning o'zlari axborot muhitida samarali ishlash qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim; ikkinchidan, ular o'quvchilarga mediasavodxonlik ko'nikmalarini yetkazuvchi asosiy vositachilar hisoblanadi.

Bugungi kunda o'qituvchilarning mediasavodxonligini oshirish quyidagi sabablarga ko'ra juda dolzarbdir:

- Axborot hajmining keskin oshishi;
- Internet va ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri axborot (fake news) va manipulyatsiyaning keng tarqalishi;
- Yosh avlodda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish zaruriyati;
- Zamonaviy ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalarning muhim rol o'ynashi.

O'qituvchilarda mediasavodxonlik ko'nikmalarini takomillashtirish usullariga quyidagilarni kiritish mumkin.

Professional rivojlanish dasturlari. O'qituvchilar uchun maxsus tayyorgarlik dasturlari va seminarlar tashkil etish orqali mediasavodxonlik ko'nikmalarini oshirish mumkin. Bu dasturlar o'qituvchilarga zamonaviy media vositalaridan qanday qilib samarali foydalanishni, axborot manbalarini baholash va tanqidiy tahlil qilishni o'rgatadi.

Onlayn resurslardan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qituvchilar onlayn kurslar, vebinarlar va interaktiv platformalardan foydalanib, mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Bunday resurslar o'z-o'zini o'rganish imkonini beradi va o'qituvchilarning bilimlarini yangilashga yordam beradi.

Hamkorlik va tajriba almashish. O'qituvchilar o'zaro tajriba almashishi va hamkorlik qilishi orqali mediasavodxonlik ko'nikmalarini oshirishi mumkin.

Maktab ichida yoki boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda seminarlar, treninglar yoki ishchi guruhlar tashkil etish foydali bo'ladi.

Keywords: hypothyroidism, hyperandrogenism, polycystic ovary disease, estradiol valerate/dienogest, myoinositol.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-24>

Синдром поликистозных яичников (СПКЯ) является одним из наиболее распространённых эндокринных заболеваний у женщин репродуктивного возраста, встречаясь по различным данным у 6–15% популяции [Teede et al., 2018]. Патогенез СПКЯ является многофакторным и включает в себя нарушения в системе гипоталамус–гипофиз–яичники, инсулинорезистентность, а также сопутствующие эндокринные патологии, в том числе нарушения функции щитовидной железы. Причиной вторичного поликистоза яичников нередко является гипотиреоз. Частота выявления субклинического или явного гипотиреоза у женщин с поликистозом яичников составляет от 11 до 23% [Sinha et al., 2013; Enzevaei et al., 2012]. Нарушения продукции тиреоидных гормонов усиливают клинические проявления поликистоза яичников (ПКЯ), такие как ановуляция, гирсутизм, бесплодие и метаболические расстройства. Несмотря на частое сочетание СПКЯ и гипотиреоза, вопросы комплексного подхода к лечению этих состояний остаются недостаточно изученными. В ряде исследований показано, что своевременное назначение левотироксина при субклиническом гипотиреозе у пациенток с СПКЯ может способствовать восстановлению овуляции и улучшению метаболических параметров [Ganie et al., 2015]. Таким образом, разработка и оценка эффективности комплексной терапии у женщин с сочетанным течением СПКЯ и гипофункции щитовидной железы является актуальной задачей современной клинической эндокринологии и гинекологии. Это позволит улучшить репродуктивный прогноз, качество жизни пациенток и снизить риск долгосрочных осложнений, таких как сахарный диабет 2 типа, ожирение и сердечно-сосудистые заболевания.

Цель: Оценить клиническую эффективность комплексной терапии у женщин с поликистозом яичников на фоне гипофункции щитовидной железы.

Материалы и методы. В рамках проведенного исследования была оценена эффективность различных протоколов коррекции нарушений репродуктивной функции у женщин со вторичным поликистозом яичников (ПКЯ) на фоне гипофункции щитовидной железы (ЩЖ). В исследование были включены 74 пациентки репродуктивного возраста с подтвержденным диагнозом вторичного ПКЯ и гипофункцией ЩЖ. Все пациентки были обследованы и наблюдались в РСНПМЦЗМиР и его Ташкентском филиале. Основными жалобами у пациенток были нарушение менструального цикла, проявления гиперандрогении, бесплодие, невынашивание беременности. Средний возраст обследованных пациенток составил (средний возраст – $29,6 \pm 3,2$ года). Пациентки были разделены на две группы (по $n=37$) в зависимости от протокола назначенного лечения. I- группа получала левотироксина натрия по 25 мкг/сут натошак в течение 2 недель, далее 50 мкг/сут. в течение 6 месяцев с последующим титрованием дозы на основании уровня ТТГ и консультации эндокринолога и комбинированные оральные контрацептивы (КОК), содержащие эстрадиол валерат и диеногест (ЭВ/ДГ), в прерывистом режиме по 1 таблетке в день в течение 6 месяцев. II-группа получала КОК (ЭВ/ДГ), и левотироксина натрия по вышеуказанной схеме, а также дополнительно принимала препарат, содержащий миоинозитол (1000 мг/сут), фолиевую кислоту, L-тирозин, пиколинат хрома и L-селенометионин, в течение 6 месяцев. Оценка эффективности терапии осуществлялась

на основании динамики клинических, гормональных и ультразвуковых показателей по завершении 6 месяцев лечения.

Результаты. После 6 месяцев терапии в обеих группах зафиксировано снижение уровня ЛГ: $6,82 \pm 0,25$ мЕд/мл в I группе и $6,48 \pm 0,23$ мЕд/мл во II группе. Уровень пролактина составил $293,3 \pm 16,86$ мМЕд/мл и $299,62 \pm 16,40$ мМЕд/мл соответственно. Средние значения ТТГ снизились до $2,10 \pm 0,10$ мМЕ/мл в I группе и $1,69 \pm 0,07$ мМЕ/мл во II группе ($p < 0,05$). Свободный Т4 был выше во II группе — $14,13 \pm 0,32$ пг/мл против $12,14 \pm 0,36$ пг/мл в I группе ($p < 0,05$). Концентрация анти-ТПО составила $26,98 \pm 0,72$ и $30,81 \pm 0,83$ МЕ/мл ($p < 0,05$) соответственно. Свободный тестостерон оказался ниже во II группе — $1,07 \pm 0,08$ против $1,46 \pm 0,08$ нг/мл. Уровни ДЭАС и 17-ОП статистически не различались.

Эхографически выявлено значимое снижение объёма яичников и КАФ во II группе: объём правого и левого яичников — $7,68 \pm 0,14$ см³ и $7,63 \pm 0,12$ см³ соответственно, против $10,11 \pm 0,22$ и $10,26 \pm 0,21$ см³ в I группе ($p < 0,05$). КАФ в правом и левом яичнике составил $7,19 \pm 0,16$ и $7,22 \pm 0,17$ во II группе против $10,39 \pm 0,21$ и $10,49 \pm 0,20$ в I группе ($p < 0,001$). Объём ЩЖ был ниже во II группе — $16,75 \pm 0,18$ см³ против $19,10 \pm 4,80$ см³. Уменьшилось количество пациенток с усилением кровотока (15 против 23; $p < 0,001$) и очаговыми изменениями в ЩЖ.

Показатель АМГ составил $1,82 \pm 0,07$ нг/мл в I группе и $1,73 \pm 0,05$ нг/мл во II группе. Ингибин В был выше в I группе — $148,68 \pm 7,25$ против $80,64 \pm 7,31$ пг/мл ($p < 0,001$). Концентрация ГСПГ увеличилась значительно во II группе — до $59,39 \pm 4,37$ нмоль/л против $29,49 \pm 1,75$ нмоль/л ($p < 0,001$). Уровень инсулина снизился до $8,87 \pm 0,45$ мЕд/мл во II группе по сравнению с $14,45 \pm 0,44$ мЕд/мл в I ($p < 0,001$). Из субъективных жалоб: во II группе отмечено уменьшение раздражительности (17 против 28), сонливости (20 против 26), выпадения волос (10 против 14), жирности кожи (2 против 10), жирности волос (4 против 14) и гирсутизма (гирсутное число $7,59 \pm 0,20$ против $9,54 \pm 0,35$; $p < 0,001$).

Заключение. Проведенное исследование показало, что комбинированная терапия оральными контрацептивами с миоинозитолом и левотироксином у женщин с вторичным поликистозом яичников на фоне гипофункции щитовидной железы обеспечивает более выраженный положительный эффект по сравнению с монотерапией ОК. У пациенток второй группы зафиксированы значительные улучшения гормонального и метаболического профиля, эхографических параметров яичников и щитовидной железы, а также снижение выраженности клинических симптомов, таких как гирсутизм, жирность кожи и волос, раздражительность и сонливость. Эти данные свидетельствуют о целесообразности применения комбинированного подхода в комплексной терапии данной патологии для достижения более стабильного и клинически значимого результата.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Teede H.J., Misso M.L., Costello M.F. et al. Recommendations from the international evidence-based guideline for the assessment and management of polycystic ovary syndrome. Hum Reprod. 2018;33(9):1602–1618.

2. Sinha U., Sinharay K., Saha S. et al. Thyroid disorders in polycystic ovarian syndrome subjects: A tertiary hospital-based cross-sectional study from Eastern India. *Indian J Endocrinol Metab.* 2013;17(2):304–309.
3. Enzevaei A., Salehin S., Beigy M. et al. Thyroid function and thyroid autoantibodies in Iranian patients with polycystic ovary syndrome. *J Obstet Gynaecol Res.* 2012;38(5):925–930.
4. Raja-Khan N., Stener-Victorin E., Wu X. et al. The Role of Thyroid Dysfunction in PCOS. *Reprod Biol Endocrinol.* 2010;8:56.
5. Ganie M.A., Marwaha R.K., Aggarwal R. et al. Effects of subclinical hypothyroidism on hyperandrogenism and metabolic parameters in adolescent girls with PCOS. *J Pediatr Adolesc Gynecol.* 2015;28(5):381–385.
6. Benetti-Pinto, Cristina Laguna et al. “Subclinical hypothyroidism in young women with polycystic ovary syndrome: an analysis of clinical, hormonal, and metabolic parameters.” *Fertility and sterility* vol. 99,2 (2013): 588-92. doi:10.1016/j.fertnstert.2012.10.006.

JINSIY XROMOSOMALARDA GENLARNING ANORMAL KO'RINISHI

Ergashev Bekzod Jaloliddin o'g'li

Central Asian Medical University Stomatologiya
fakulteti talabasi

E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com

Tel: +998 94 832 55 22

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-0382-0811>

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqola XX erkak sindromi (46,XX testikulyar jinsiy rivojlanish buzilishi)ning klinik, molekulyar va genetik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Mazkur sindrom 46,XX kariotipga ega bo'lgan, biroq fenotipik erkak belgilarini namoyon qiladigan kam uchraydigan genetik buzilish hisoblanadi. Tadqiqotda sindromning etiologiyasi, ya'ni SRY geni translokatsiyasi va boshqa genetik mexanizmlar orqali yuzaga kelishi, shuningdek, uning molekulyar asoslari atroflicha tahlil qilindi. Klinik jihatdan XX erkak sindromiga ega shaxslar odatda normal erkak tashqi jinsiy organlariga ega bo'lishiga qaramay, bepushtlik, hipogonadizm va kichik moyaklar kabi muammolar bilan yuzlashadi.

Tadqiqotda biologik materiallar asosida genetik analiz, kariotip aniqlash, molekulyar diagnostika (PCR, FISH) usullari orqali XX erkak sindromining aniq tashxisi qo'yish imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, laborator va klinik diagnostika natijalari tahlil qilinib, bemorlarning fenotipik va genotipik tafovutlari aniqlashtirildi. Muhokama bo'limida ushbu sindrom bilan bog'liq bo'lgan psixososial omillar, rejalashtirilgan davolash yondashuvlari va gormonal terapiya imkoniyatlari bayon etildi.

Xulosa sifatida, XX erkak sindromi erta tashxis qo'yilsa, bemorlarning hayot sifati va psixologik holatini yaxshilashda muhim rol o'ynashi ta'kidlandi. Tadqiqot natijalari ushbu kam uchraydigan genetik buzilish haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish, diagnostika va davolash strategiyalarini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xromosomalar, jinsiy xromosoma, gen, SRY geni, Mariya Stivens, Hermann Xenking, Klarens Ervin Mak-Klang, Albert Fredrik de la Chapelle, sindrom, kariotip, fenotip.

ABNORMAL MANIFESTATIONS OF GENES ON SEX CHROMOSOMES

Ergashev Bekzod Jaloliddin ugli

Student, Faculty of Dentistry,
Central Asian Medical University
Fergana, Uzbekistan

Abstract. This article is dedicated to the study of the clinical, molecular, and genetic characteristics of XX male syndrome (46,XX testicular disorder of sex development). This syndrome is a rare genetic disorder in which individuals have a 46,XX karyotype but exhibit phenotypically male characteristics. The study thoroughly analyzes the etiology of the syndrome, including the translocation of the SRY gene and other genetic mechanisms, as well as its molecular basis. Clinically, individuals with XX male syndrome typically present with normal male external genitalia but face issues such as infertility, hypogonadism, and small testes.

The research explores diagnostic possibilities for XX male syndrome based on genetic analyses of biological materials, karyotyping, and molecular diagnostic methods such as PCR and FISH. Laboratory and clinical diagnostic results were analyzed to identify phenotypic and genotypic variations among patients. The discussion section highlights psychosocial factors associated with the syndrome, planned treatment approaches, and possibilities for hormonal therapy.

In conclusion, it is emphasized that early diagnosis of XX male syndrome plays a crucial role in improving patients' quality of life and psychological well-being. The study's findings provide a foundation for a deeper understanding of this rare genetic disorder and serve to enhance diagnostic and therapeutic strategies.

Keywords: chromosomes, X chromosome, gene, SRY gene, Maria Stevens, Hermann Henking, Clarence Erwin McClung, Albert Fredrik de la Chapelle, syndrome, karyotype, phenotype.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-25>

Tadqiqot dolzarbligi: XX erkak sindromi (De la Chapelle sindromi yoki 46,XX testikulyar jinsiy rivojlanish buzilishi) jinsiy rivojlanishning kam uchraydigan genetik buzilishi bo'lib, 46,XX karyotipiga ega shaxs erkak fenotipida rivojlanadi. Ushbu sindromning asosiy sababi Y xromosomasidagi SRY genining X xromosomaga translokatsiyasi bo'lib, bu erkak jinsiy rivojlanishini boshlaydi. XX erkak sindromi har 20,000 tug'ilishdan birida uchraydi va bu uni Klinefelter sindromidan kamroq tarqalgan holatga aylantiradi. Ko'pchilik holatlarda tashxis bepustlik yoki jinsiy rivojlanish muammolari aniqlanganda qo'yiladi. Ushbu sindromning o'ziga xosligi va kam uchrashi uni genetik va klinik tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu qiladi[1,2,3].

Tadqiqot maqsadi va vazifasi: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi XX erkak sindromining genetik, klinik va endokrinologik xususiyatlarini o'rganishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: 1) SRY genining translokatsiyasi va uning erkak fenotipiga ta'sirini tahlil qilish; 2) XX erkak sindromi bilan bog'liq klinik belgilar va gormonal o'zgarishlarni aniqlash; 3) Diagnostika va davolash usullarini baholash; 4) XX erkak sindromining bepustlikka olib keluvchi omillarini o'rganish[4,5].

Kirish: Xromosomalar- hujayra yadrosining eng muhim tarkibiy qismidir. Xromosomalarda irsiy ma'lumotlarni saqlovchi va nasldan-naslga o'tkazuvchi genlar joylashadi[6]. Sochlar va ko'zlarning rangidan tortib to odamning jinsini belgilovchi genlargacha bo'lgan barcha genlar xromosomalarda joylashgan. Odamlarning erkak yoki ayol jinsga mansubligi ma'lum xromosomalarning mavjudligiga yoki yo'qligiga bog'liq. Odam hujayralarida 23 juft xromosoma mavjud bo'lib, jami 22 juft autosomal (jinsiy bo'lmagan xromosomalar) va 1 juft jinsiy xromosomalar mavjud. Jinsiy xromosomalar har bir hujayradagi 23-juft xromosomalar hisoblanadi[7]. Bular, X xromosoma va Y xromosomalardir. Har bir insonning har bir hujayrasi odatda bir juft jinsiy xromosomaga ega. Ayollarda odatda ikkita X xromosoma, erkaklarda esa bitta X va bitta Y xromosomalari mavjud[8].

Jinsiy xromosomalar (*jinsni belgilovchi xromosomalar*) dunyoda eng birinchi bo'lib Netti Mariya Stivens (**1861-1912-yillar**) tomonidan aniqlangan. Netti Stivens qo'ng'iz qurti hujayralarining erkak va urg'ochi genomlari o'rtasidagi farqni payqadi[9]. Netti Stivens boshqa turdagi hasharotlarning hujayralari ustida ham tadqiqotlar olib boradi va shundan so'nggina ba'zi hasharotlar turlarida xromosomalar to'plami jinsga qarab farqlanishini aniqladi[10]. 1903-yilda Miss Stivens

tadqiqot natijalarini e'lon qildi va doktorlik darajasini oldi. Biroq, X va Y xromosomalarning rasmiy ochilish sanasi 1905-yil deb hisoblanadi. **X-xromosoma** –insondagi ikkita jinsiy xromosomadan biri (ikkinchisi Y xromosomasi). X-xromosoma taxminan 155 million DNK qurilish bloklarini (nukleotid juftlari) o'z ichiga oladi va hujayradagi umumiy DNKning taxminan 5 foizini tashkil qiladi[11]. Har bir xromosomadagi genlarni aniqlash genetik tadqiqotlarning faol sohasidir. Tadqiqotchilar har bir xromosomadagi genlar sonini bashorat qilish uchun turli yondashuvlardan foydalanganligi sababli, genlarning taxminiy soni farq qiladi. X xromosoma oqsillarni hosil qilish uchun ko'rsatmalar beradigan 900 dan 1400

gacha genlarni o'z ichiga oladi. Bu oqsillar organizmda turli xil rollarni bajaradi[12]. X-xromosoma uzoq vaqtdan buyon genetiklar orasida o'ziga xos xususiyatlari bilan mashhur. X xromosomasini nomlanishi uning shakli "X" ga o'xshaganligi uchun berilmagan. X-xromosomasini birinchi marta 1890-yilda Hermann Xenking tomonidan aniqlangan[13].



Xenking kanalar(*hashoratning bir turi*) ustida olib borgan tadqiqotlarida bitta xromosoma meyozda ishtirok etmayotganligini payqaydi. Xenking uni "X" elementi deb atagan, chunki uning g'alati xatti-harakatlari haqiqatdan ham xromosoma ekanligiga olimda shubha paydo bo'ladi[14]. Keyinchalik amerikalik sitolog Klarens Ervin Mak-Klang uning nafaqat xromosoma ekanligi balki, u jinsni belgilovchi xromosoma ekanligini o'z tadqiqotlarida aniqlaydi va ayon qiladi. Lekin Mak-Klang uni erkak jinsini belgilovchi xromosoma deb e'tirof etdi. Olimning bu fikri xatoligi va xromosomaning shakli "X" ko'rinishda ekanligi keyingi tadqiqotlar davomida ma'lum bo'ldi[15].

Y-xromosoma -ushbu xromosomaga "Y" nomi shunchaki "X" xromosomasiga alfabetik jihatdan mos kelishi uchun berilgan. Y xromosoma shakli tufayli shunday nom olganligi to'g'risidagi fikr noto'g'ridir[16]. Barcha xromosomalar normada mikroskop ostida amorfik yumaloq shaklda ko'rinadi va faqat mitoz vaqtida o'zining shakliga kiradi. Bu shakl esa barcha xromosomalarda nisbatan X shaklidir. Y xromosomaning kalta shoxlari qo'shilganday ko'rinishi mitoz davrida Y shakliga o'xshab ketishi shunchaki tasodif hisoblanadi.

Y-xromosoma ko'pchilik turlarda jinsni belgilovchi hisoblanadi. Chunki, uning bor yoki yo'qligi jinsiy ko'payishdan tug'iladigan avlodlarning erkak yoki urg'ochi ekanligini belgilab beradi. Odam Y xromosomasidagi DNK 59 million nukleotid juftligidan tuzilgan. Y xromosoma faqat otadan o'g'ilga o'tadi[17]. Odam Y xromosomasida o'rta hisobda 100-200 gen borligi hisoblangan va shulardan 45 tadan 73 tasi oqsil kodlovchi genlar hisoblanadi.

Bu juftlik jinsiy xromosomalar otaning urug' (sperma) hujayrasi va onaning tuxum hujayrasi qo'shilishining o'zidayoq odamning jinsini belgilaydi. Meyoz jarayonida erkaklardagi XY juft xromosomalari ajralib chiqadi va X yoki Y shaklida alohida gametalarga o'tadi. Bu gametalarning shakllanishiga olib keladi, bunda hosil bo'lgan gametalarning yarmi X xromosomasini o'z ichiga oladi. qolgan yarmi Y xromosomasini o'z ichiga oladi[12]. Spermatozoid X xromosomalik yoki Y xromosomalik bitta jinsiy xromosomani olib yuradi. Tuxum esa X xromosomasini olib yuradi. Shunga ko'ra, agar tuxum X xromosomalik spermatozoid bilan urug'lantirilsa, embrionda ikkita X xromosoma (XX) bo'ladi va agar tuxum Y xromosomalik sperma bilan urug'lantirilsa, embrion X va Y xromosomalarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun sperma va tuxumning birikmasi natijasida embrionning jinsi erkak (XY) yoki ayol (XX) sifatida aniqlanadi[19]. XX xromosomalari bo'lgan urg'ochilar gomogametik, XY xromosomalari bo'lgan erkaklar esa geterogametik jinslar deb nomlanadi.

Materiallar va metodlar: Tadqiqot XX erkak sindromiga chalingan bemorlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. Klinik baholash: Bemorlarning jismoniy ko'rinishi, jinsiy rivojlanish darajasi, bo'y va vazn o'lchovlari, jinsiy a'zolarining holati (masalan, mikrofalus, kriptorxizm) baholandi. Shuningdek, ginekologik va andrologik tekshiruvlar o'tkazildi.

2. Gormonal tahlillar: Qon namunalarida follikulostimulyator gormon (FSH), lyuteinlashtiruvchi gormon (LH), testosteron va estradiol darajalari o'lchandi. Bu gormonal profil gipogonadizm va boshqa endokrin buzilishlarni aniqlashga yordam berdi.

3. Genetik tahlillar: Karyotip tahlili orqali bemorlarning xromosoma to'plami aniqlanib, 46,XX karyotipi tasdiqlandi. Fluoresan in situ gibridizatsiya (FISH) usuli bilan SRY genining mavjudligi va uning X xromosomadagi joylashuvi aniqlandi. Polimeraza zanjir reaksiyasi (PCR) orqali boshqa jinsni belgilovchi genlar, masalan, SOX9, DAX1, SF1 va WNT4 genlarining mutatsiyalari tekshirildi.

4. Spermatogenez baholash: Bemorlarning sperma namunalarida spermatozoidlar mavjudligi va ularning harakatchanligi mikroskop ostida tahlil qilindi. Azoospermiya holatlari qayd etildi.

5. Tasviriy diagnostika: Ultrasonografiya yordamida ichki jinsiy a'zolar (masalan, moyaklar, bachadon) holati baholandi. MRI tekshiruvlari orqali jinsiy a'zolarining tuzilishi va joylashuvi aniqlashtirildi.

6. Psixologik baholash: Bemorlarning jinsiy identifikatsiyasi, psixoseksual rivojlanishi va psixologik holati psixologlar tomonidan baholandi. Zarurat bo'lsa, psixologik maslahatlar berildi.

7. Davolash strategiyalari: Bemorlarning klinik holatiga qarab, testosteron terapiyasi, jinsiy a'zolari tuzatish operatsiyalari va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi davolash usullari qo'llanildi. Bepushtlik holatlarida esa, sun'iy urug'lantirish yoki farzand asrab olish variantlari muhokama qilindi[20].

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilinib, XX erkak sindromining klinik va genetik xususiyatlari haqida chuqurroq tushuncha hosil qilindi.

Natija va muhokama: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, XX erkak sindromiga chalingan bemorlarning aksariyati erkak fenotipiga ega bo'lib, tashqi jinsiy a'zolari normal rivojlangan. Biroq, ularning ko'pchiligida kichik moyaklar, ginekomastiya va azoospermiya

kuzatildi. Gormonal tahlillar gipogonadotropik gipogonadizmni aniqladi, bu esa FSH va LH darajalarining yuqoriligi va testosteron darajasining pastligi bilan namoyon bo'ldi.

Genetik tahlillar bemorlarning 90% ida SRY genining X xromosomaga translokatsiyasini aniqladi. Bu holat erkak jinsiy rivojlanishini boshlovchi asosiy omil sifatida belgilandi[17].

Biroq, 10% bemorlarda SRY geni aniqlanmagan bo'lib, bu holatlarda boshqa genetik omillar, masalan, SOX9 yoki DAX1 genlarining mutatsiyalari jinsiy rivojlanishga ta'sir qilgan bo'lishi mumkin[12].

Spermatogenez baholashida barcha bemorlarda azoospermiya aniqlanib, bu ularning bepushtligini tasdiqladi. Tasviriyl diagnostika natijalari ichki jinsiy a'zolarining normal rivojlanmaganligini yoki umuman yo'qligini ko'rsatdi. Psixologik baholash bemorlarning ko'pchiligi o'zlarini erkak sifatida identifikatsiya qilishlarini va psixoseksual rivojlanishlarida muammolar yo'qligini aniqladi.

Davolash strategiyalariga kelsak, testosteron terapiyasi bemorlarning jinsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda samarali bo'ldi. Jinsiy a'zolaridagi anomaliyalarni tuzatish uchun jarrohlik amaliyotlari bajarildi. Bepushtlik holatlarida esa, bemorlarga sun'iy urug'lantirish yoki farzand asrab olish variantlari taklif qilindi.

Ushbu tadqiqot XX erkak sindromining genetik, klinik va endokrinologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga yordam berdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu sindromning tashxisini erta qo'yish va mos davolash strategiyalarini ishlab chiqish bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: XX erkak sindromi jinsiy rivojlanishning kam uchraydigan genetik buzilishi bo'lib, 46,XX karyotipiga ega shaxs erkak fenotipida rivojlanadi. Ushbu sindromning asosiy sababi Y xromosomasidagi SRY genining X xromosomaga translokatsiyasi bo'lib, bu erkak jinsiy rivojlanishini boshlaydi. Bemorlarning aksariyatida erkak fenotipi, kichik moyaklar, ginekomastiya va azoospermiya kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, XX erkak sindromining tashxisini erta qo'yish va mos davolash strategiyalarini ishlab chiqish bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Genetik tahlillar, gormonal profil va klinik baholashlar bu sindromni aniqlashda asosiy vositalardir. Davolash strategiyalari esa, bemorning klinik holatiga qarab, testosteron terapiyasi, jinsiy a'zolari tuzatish operatsiyalari va psixologik qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Ushbu tadqiqot XX erkak sindromining genetik, klinik va endokrinologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishga yordam berdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu sindromning tashxisini erta qo'yish va mos davolash strategiyalarini ishlab chiqish bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu sindromning genetik asoslarini yanada chuqurroq o'rganish va yangi davolash usullarini ishlab chiqish kelajakdagi tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalish bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Nussbaum RL, McInnes RR, Willard HF. Thompson & Thompson Genetics in Medicine. 8th ed. Elsevier; 2015.
2. Strachan T, Read AP. Human Molecular Genetics. 5th ed. Garland Science; 2018.

3. Gardner RJM, Sutherland GR, Shaffer LG. Chromosome Abnormalities and Genetic Counseling. 4th ed. Oxford University Press; 2012.
4. Borgaonkar DS. Chromosomal Variation in Man: A Catalog of Chromosomal Variants and Anomalies. Wiley-Liss; 1997.
5. Nielsen J, Wohler M. Chromosome abnormalities found among 34,910 newborn children: results from a 13-year incidence study in Aarhus, Denmark. Hum Genet. 1991.
6. Hook EB, Hamerton JL. The frequency of chromosome abnormalities detected in consecutive newborn studies. Am J Hum Genet. 1977.
7. Simpson JL. Genetics of the sex chromosomes: A review. Clin Obstet Gynecol. 1990.
8. Zinn AR, Page DC, Fisher EM. Turner syndrome: the molecular basis of monosomy X. Hum Mol Genet. 1993.
9. Lanfranco F, et al. Klinefelter's syndrome. Lancet. 2004.
10. Otto PA, Pavanello RCM. Cytogenetics of Turner and Klinefelter Syndromes. In: Sex Chromosome Abnormalities. Springer; 2015.
11. Migeon BR. Females are Mosaics: X Inactivation and Sex Differences in Disease. Oxford University Press; 2007.
12. Plenge RM, et al. Mechanisms of X-chromosome inactivation. Annu Rev Genomics Hum Genet. 2002.
13. Linden MG, Bender BG, Robinson A. Sex chromosome tetrasomy and pentasomy. Pediatrics. 1995.
14. Skuse DH, et al. Turner syndrome: Cognitive and social functioning. J Child Psychol Psychiatry. 1994.
15. Tartaglia NR, et al. XYY syndrome: phenotype and management. Am J Med Genet A. 2008.
16. D'Aurora M, et al. Sex chromosome aneuploidy and infertility: Role of Y chromosome microdeletions. Hum Reprod. 2010.
17. Grumbach MM, Conte FA. Disorders of sex differentiation. In: Williams Textbook of Endocrinology. Saunders; 2008.
18. Kent L, et al. Cognitive and behavioral functioning in males with sex chromosome aneuploidies. Psychol Med. 2003.
19. Rovet J. The cognitive and behavioral phenotype of Turner syndrome. J Dev Behav Pediatr. 1993.
20. Tüttelmann F, et al. Genetics of male infertility. Nat Rev Urol. 2018.

REVMATOID ARTRIT BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIKNING RIOVLANISH XAVF OMILLAR, KASALLIKNING TARQALGANLIGI VA BUYRAKLAR ZARARLANISH VARIANTLAR

Jurayeva Gulasalxon Muzafar qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

magistratura bosqichi,

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: gulasalxonjurayeva@gmail.com

Tel: +998 93 986 08 23

ORCID: 0009-0009-5455-8759

Annotatsiya. Revmatoid artrit (RA) -keng tarqalgan kasallik bo'lib, uning buyraklar bilan bog'liq muammolari nisbatan tez-tez uchraydi va bu asosiy kasallikning davomiyligi va o'limini yomonlashtiradi. Revmatoid artrit (RA) – surunkali autoimmun yallig'lanish kasalligi bo'lib, u nafaqat bo'g'imlarga, balki ichki organlarga, masalan, buyraklarga ham ta'sir ko'rsatadi. RA bilan bog'liq buyrak shikastlanishi surunkali buyrak kasalligi (SBK) rivojlanish xavfini oshiradi. Maskur maqolada RA bilan bog'liq buyrak zararlanishining , asosiy xavf omillari,patogenezi, klinik ko'rinishlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy davolash yondashuvlari bilan tanishiladi. RA va buyrak shikastlanishi bo'lgan bemorlarning biopsiya namunalaridagi gistoimmunologik tadqiqotlar, eng ko'p uchraydigan patologiyalarni aniqlashga yordam berdi.. RAda buyrak shikastlanishi ikkilamchi amiloidoz, nostriod yallig'lanishga qarshi dorilarning nefrotoksik ta'siri turadi. Yana ko'p uchraydigan buyrak shikastlanishi buyrak amilodoiz hisoblanadi va kasalligini kuchayishiga olib kelib va RAda surunkali buyrak kasalligining sababi hisoblanadi.. Ushbu izohda biz NYaQP va ba'zi dori vositalarning nefrotoksikligini, ayniqsa oltin birikmalari, D-penitsillamin, siklosporin A ta'sirlarini no'joya ta'sirlarni ko'rib chiqamiz. Leflunomid va TNF bloklovchi retseptor (etanercept) bilan immunosuppressiv davolashda IgA glomerulonefriti bilan bog'liq kam uchraydigan holatlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: revmatoid artrit, surunkali buyrak kasalligi,amilodoiz, mezangial glomerulonefrit,IgA glomerulonefrit, koptokchalar filtratsiya tezligi, nefropatiya,nostreoid yalig'llanishga qarshi preparatlar, metatreksat.

RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF CHRONIC KIDNEY DISEASE, PREVALENCE OF THE DISEASE, AND TYPES OF RENAL INVOLVEMENT IN PATIENTS WITH RHEUMATOID ARTHRITIS

Jurayeva Gulasalxon Muzafar qizi

Postgraduate Student, Tashkent Medical Academy

Tashkent, Uzbekistan

Abstract. Rheumatoid arthritis (RA) is a widespread disease, and kidney-related complications are relatively common, which worsens the course and mortality of the underlying disease. Rheumatoid arthritis (RA) is a chronic autoimmune inflammatory disease that affects not only the joints but also internal organs such as the kidneys. Kidney damage associated with RA increases the risk of developing chronic kidney disease (CKD). This article discusses the main risk factors, pathogenesis, and clinical manifestations of kidney involvement in RA. In addition, modern treatment approaches are reviewed. Histopathological and immunological studies of biopsy samples from patients with RA and kidney damage have helped identify the most common pathologies. Kidney damage in RA primarily includes secondary amyloidosis and the nephrotoxic effects of non-steroidal anti-inflammatory drugs (NSAIDs). Amyloidosis worsens the patient's condition and is considered a cause of both RA and chronic kidney disease. This review discusses the nephrotoxicity of NSAIDs and some drugs, especially the effects and side effects of gold compounds, D-penicillamine, cyclosporine A, . Rare cases of IgA glomerulonephritis associated with immunosuppressive treatment using leflunomide and the TNF receptor blocker (etanercept) are also reported.

Keywords: rheumatoid arthritis, chronic kidney disease, amyloidosis, mesangial glomerulonephritis, IgA glomerulonephritis, glomerular filtration rate, nephropathy, non-steroidal anti-inflammatory drugs, methotrexate.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-26>

Kirish. Revmatoid artrit (RA) – surunkali autoimmun yallig'lanish kasalligi bo'lib, u bo'g'imlardagi zo'rayib boruvchi o'zgarishlarga sabab bo'ladi hamda ichki organlarning tizimli yallig'lanishi va yallig'lanishga qarshi dorilarning nojo'ya ta'siri bilan bog'liq bo'lgan autoimmun kasallik hisoblanadi. RA bilan kasallanish ko'rsatkichi taxminan 40/100 000 ni tashkil etadi. Revmatoid artrit bilan og'rikan bemorlarda buyraklar shikastlanishi 20% dan 50% gacha bo'lishi mumkin. Bu holat asosan glomerulonefrit, revmatoid vaskulit va amiloidoz ko'rinishida bo'ladi. Kasallikning tarqalishi Yaponiyada RA bemorlarida buyrak shikastlanishi 18.6% ni tashkil etadi. Yevropa populyatsiyasida taxminan 10% da o'rta va og'ir darajada buyrak shikastlanishi aniqlangan. Zamonaviy dori vositalarining keng doirada qo'llashiga qaramay, ular kasallik prognozini sezilarli darajada yaxshilaydi, ammo buyraklarning zararlanishi kabi turli asoratlar xavfi saqlanib qolmoqda [4-6]. Revmatoid artrit bilan og'rikan bemorlarda buyraklarning surunkali buyrak kasalligi (SBK) rivojlanishi, koptokchalar filtratsiya tezligi (KFT) 60 ml/min/1,73 m² dan past bo'lishi RA bo'lmagan bemorlarga qaraganda ancha yuqori bo'lishi qayd etilgan. Masalan, bir tadqiqotda RA bilan og'rikan bemorlar orasida SBK tarqalishi 24,5% ni tashkil etgani aniqlangan [7]. L.J. Hikson va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan 20 yillik kuzatuvda, boshlang'ich KFT normal bo'lgan RA bemorlarida SBK rivojlanish takrorlanish tezligi 25,1% ni tashkil qilgan [6]. AQShda RA bilan bog'liq SBK tarqalishi 13,3% ni tashkil etib, umumiy populyatsiyaga qaraganda ikki baravar yuqori bo'lgani qayd etilgan [8]. Rossiya Federatsiyasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, RA bilan og'rikan bemorlar orasida SBK takrorlanish tezligi 20,3% dan 43,6% gacha o'zgaradi [9–11]. A.P. Rebrov va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotda 301 nafar RA bilan og'rikan bemorda buyrak shikastlanishining erta markerlari o'rganilgan. Tadqiqot davomida bemorlarning 44,5% da tekshiruv vaqtida KFT ko'rsatkichlari (SBK II bosqichi) bilan birga siydik tahlillarida turli xil o'zgarishlar aniqlangan, 20,3% bemorlarda esa <60 ml/min/1,73 m² (SBK III bosqichi va undan yuqori) KFT pasayishi kuzatilgan. Shuningdek, oldindan buyrak kasalliklari bo'lmagan ammo RA bilan kasallangandan keyin bemorlarning 76% ida albuminuriya, 82% ida esa buyrak koptokchalarining funksiyasini buzilish markerlari qayd etilgan [11]. Tadqiqot natijalari RA bilan og'rikan bemorlarda buyraklar zararlanishi kasallik prognoziga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi, ayniqsa SBKning yuqori yurak-qon tomir asoratlari xavfi va umumiy o'lim darajasi oshishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, RAda SBK rivojlanishi va unga bog'liq xavf omillari masalasi bugungi kunda katta dolzarblik kasb etib, keng o'rganilmoqda.

RAda buyrak shikastlanishi xavf omillari.

RAda asosiy kasallik patogenezi bilan bog'liq buyrak shikastlanishi kam uchraydi, boshqa tizimli kasallikka nisbatan misol uchun: tizimli vaskulit, podagrik nefropatiya. RAda SBK avj olib borishiga sabab – bu kasallikni davolashda qo'llaniladigan dorilarning nojo'ya ta'siri, ya'ni buyrakni zararlaydi, ayniqsa NYaQP (nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar) va GKS (glyukokortikoidlar) hisoblanadi. Masalan, MIDAL nomli 18 oylik randomizatsiyalangan klinik tadqiqotda (RKT), unda 34 700 RA bilan og'rikan bemorlar tekshirilgan va dorilar qo'llash

davomida buyrak funksiyasining pasayishi aniqlangan va dorillarni qo'llashda cheklovlar bo'lgan, misol uchun Diklofenak (150 mg kuniga) – 1% bemorda, Etorikoksib (60 mg – 0,4% va 90 mg – 2,3%). Shuningdek, PRECISION nomli 20 oylik RKTda 24 081 RA bor bemorlar qatnashgan, quyidagi dorilar buyurilishi bekor qilingan: Tselekoksisib – 0,7% bemorda, Naproksen – 0,9% bemorda, Ibuprofen – 1,1% bemorda. NYaQP dori vositalarini qo'llash RA bor bemorlarda SBK rivojlanishi va KFTning $<30 \text{ ml/min/1,73 m}^2$ darajagacha pasayishining xavf omili hisoblanadi. Shu sababli RA bilan og'riqlar uchun ko'pgina izlanishlar olib borilmoqda, NYaQPga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish haqida. Bu farmakoterapiyaning o'rganilishi kerak bo'lgan vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu zamonaviy "Maqsadga erishish uchun davolash" (Treat to Target) konsepsiyasiga mos keladi [17]. MATRIX retrospektiv tadqiqotiga ko'ra, buyrak funksiyasining pasayishi va qon plazmasidagi kreatinin darajasining oshishi 129 nafar RA bemorining 19% da qayd etilgan. Bu bemorlardan 20% da SBK II, 15% da esa SBK III darajalari aniqlangan. Shu bilan bir qatorda, buyrak koptochkalar filtratsiya tezligi (KFT) $<60 \text{ ml/min/1,73 m}^2$ bo'lgan bemorlarning 90% da kamida bitta dori vositasi kerakli dozada moslashtirilmagan va 70% da potentsial nefrotoksik preparatlar hisoblanadi. Qo'shimcha omillar SBK ning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin, misol uchun yurak-qon tomir kasalliklari, dislipidemiya va uglevod almashinuvini buzilishlari. Xususan, NYaP qo'llanilishi, shu bilan bir qatorda avvoldan mavjud bo'lgan SBK, arterial gipertenziya, gipovolemiya va surunkali yurak etishmovchiligi bilan birga, ba'zi dorivor vositalarning (diuretiklar, angiotenzin-aylantiruvchi ferment ingibitori, aminoglikozidlar va boshqa) qo'llanilishi SBK sabab bo'lishi mumkin. Klinik belgilar – RA da buyrak shikastlanishining eng keng tarqalgan klinik belgilaridan biri proteinuriya bo'lib, bu amiloidoz yoki glomerulonefrit rivojlanishini ko'rsatadi. Ammo, KFT pasayishi ba'zan siydik sindromisiz ham rivojlanishi mumkin. 1987 yilda M. Boers va hamkasblari 132 ta RA bemorining buyrak biopsiyalarini o'rganib, ulardan 120 (91%) bemorda nefroskleroz aniqlangan. Bu holat arterial gipertenziya bilan bog'liq deb ta'kidlangan. Biroq, nefrosklerozning darajasi va RA davomiyligi o'rtasidagi bog'liqliklar, kasallikning surunkali yallig'lanish ta'siri orqali nefrosklerozning rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, RA da doimiy ravishda yuqori bo'lgan yallig'lanish markerlari bo'lgan C-reaktiv oqsil (CRO) darajasi, kamida 6 oy davomida, IL-6 va TNF- α , KFT $<60 \text{ ml/min/1,73 m}^2$ darajasiga pasayishning mustaqil prognoz belgilari sifatida aniqlangan. RA bilan og'riqlar bemorlarda SBK va surunkali yallig'lanish faolligi bilan bog'liq yuqori ECHT darajalari aniqlangan [26]. CROning oshishi SBKning boshqa xavf omillari bilan bog'liq bo'lishi mumkin, ya'ni arteriya gipertenziya, qonidagi glukoza va lipidlarga darajasi, semizlik. Boshqa tomondan, CRO buyrak koptochkalar endoteliyasida va tubular epiteliyada to'planishi mumkin, bu esa yallig'lanish va buyraklarni shikastlanishiga sabab bo'ladi. Uzoq muddatli yallig'lanish va tubulointerstitsial o'zgarishlarning asosiy sabablari T-limfotsitlari va makrofaglar tomonidan, shuningdek, yallig'lanishga qarshi sitokinlar, xemokinlar va adgeziv molekulalar ishlab chiqarilgan mediatorlarga bog'liq. CRO darajasining oshishi RA bilan og'riqlar bemorlarning qon plazmasida endotelial funksiyasini buzadi va vazokonstriksiya chaqiradi, bu esa gipertenziya va buyraklarda qon aylanishini izdan chiqarganidan keyin afferent arterialarning shikastlanishiga sabab bo'ladi, olib keladi koptochkalar ichki bosimini oshishiga olib keladi.

Revmatoid artrit bor bemorlarda buyraklar zararlanish variantlari:

1. Glomerulonefrit va uning tasnifi:

- Mezangial-buyrak glomerullari mezangial hujayralar va to'qima o'zgarishlari.
 - IgA nefropatiyasi — immunoglobulin A ning glomerullarda to'planishi natijasida yallig'lanish.
 - Membranoz nefropatiya — immun komplekslari glomerulalar bazal membranasida yig'ilishi, uning qalinlashishiga sabab bo'ladi.
 - Minimal o'zgarishlar kasalligi — buyrak to'qimasida kam miqdorda o'zgarishlar bo'lsa ham, klinik alomatlar va nefrotik sindromni o'z ichiga oladi.
 - Fokal segmental glomeruloskleroz — glomerulalarning ba'zi segmentlarida o'zgarishlar bilan kechadi.
2. Amiloidoz — amiloid oqsillari buyrak to'qimasiga to'planib, uning funksiyasini buzadi.
3. Revmatoid vaskulit — qon tomirlarining yallig'lanishi, bu buyraklarga ta'sir qilishi va glomerulonefrit yoki interstitsial nefritni keltirib chiqarishi mumkin.
4. Interstitsial nefrit (IN) — buyraklarning interstitsial to'qimalarining yallig'lanishi bilan bog'liq bo'ladi
5. Dori-darmonlar sababli — ba'zi dori-darmonlar (masalan, NYaQP, antibiotiklar, diuretiklar) tomonidan keltirib olib kelgan nefrit.
6. Dori-darmonlarsiz — infeksiyalar, autoimmun kasalliklar va boshqa xavf omillar sababli yuzaga kelgan nefrit.
7. NYaQP— nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar (NYaQP) tomonidan keltirib chiqarilgan buyrak to'qimsi yallig'lanishi.

RAda buyraklarning zararlanishi variantlari:

RA bor bemorlarda klinik belgilar, siydik sindromining xususiyatlari va nefropatiyaning klinik alomatlari har doim ma'lum bir morfologik zararlanish varianti bilan aniq mos kelavermaydi, bu ko'p hollarda buyrak biopsiyasini o'tkazish va morfologik tasdiqlashni talab qiladi. RAda buyraklarning eng ko'p uchraydigan shakllari quyidagilardir: amiloidoz, mezangio-proliferativ glomerulonefrit, membranoz nefropatiya, minimal o'zgarishlar kasalligi va interstitsial nefrit, shu jumladan NYaQP qabul qilish natijasida yuzaga kelgan interstitsial nefrit [32, 33]. So'nggi 25-30 yillikda uning tarqalishida ma'lum darajada pasayish bo'lsa-da, revmatoid artrit bilan bog'liq amiloidoz, yoshga qarab boshlanadigan revmatoid artrit (RA)da va kattalarda kasallikning yuqori nogironlik va erta o'limining muhim sababidir. Boshqa turdagi reaktiv amiloidozlar kabi, revmatoid kasalliklar bilan bog'liq amiloid fibrillalari AA turidagi oqsil bo'lib, hosil bo'lishi bo'lgan PO'O(plazma o'tkir fazali oqsil), qon plazmasida yuqori zichlikdagi lipoprotein bilan kompleks hosil qiladi. Yuqori PO'O darajasi reaktiv AA amiloidining rivojlanishiga olib kelishi uchun zaruriy shartlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Buyrak kasalliklarida ikkilamchi amiloidozning eng og'ir va hayot uchun xavfli oqibati bo'lgani uchun, bunday bemorlarda gemodializ va buyrak transplantatsiyasini sabab bo'ladi.Yillar davomida RAda va barcha nefropatiya variantlari orasida ikkilamchi amiloidozning yetakchi o'rinni egallashi, bunga asosiy sabab, kasallikning yallig'lanish faolligin to'g'ri nazorat qilmaslik bilan bog'liq edi [34–38].Ikkilamchi AA amiloidozining rivojlanishi RAda, yallig'lanish sitokinlari (TNF- α , IL-6, IL-1) ta'sirida hepatotsitlar tomonidan ishlab chiqariladigan aktiv fazaning oqsil asosi bo'lgan plazma amiloid A (PAA) ning ishlab chiqarilishi bilan bog'langan. RAda buyrak amiloidozining eng keng tarqalgan klinik ko'rinishlari — izolyatsiyalangan

proteinuriya, nefrotik sindrom va davolash samarasiz bo'lganda buyrak yetishmovchiligi rivojlanishidir. Rada buyrak amiloidoz uzoq davom etadigan shakli hisoblanadi ammo, boshqa shakllari, misol uchun, membranoz nefropatiya yoki mezangial nefrit shakllari ancha erta rivojlanadi [33]. Hozirda ikkilamchi amiloidozning uchrashish tezligi kamaygan bo'lsa-da, uzoq muddatli surunkali yallig'lanish bilan og'rikan bemorlar hali ham amiloidoz rivojlanishi xavfi yuqori guruhda qolmoqda. Yallig'lanishga qarshi dori vositalar faol davolash amiloidning buyrak to'qimalariga to'planishining kamayishiga olib kelishi mumkin [39, 40]. Masalan, Finlyandiya olimlari bergan ma'lumotlarga ko'ra, 1995–2008 yillar davomida RA bilan og'rikan bemorlarda metotreksat bilan davolash ikkilamchi amiloidoz bilan bog'liq bo'lgan buyrakning terminal bosqichlarining kamayishiga olib kelgan [41]. Oxirgi yillarda farmakoterapiya rivojlanishga qaramay ba'zi dori vositalar Rada buyrak zararlanishining sabab bo'ladi t. morfologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, surunkali glomerulonefrit amiloidoz bilan bir xil takrorlanish tezligida uchraydi [42]. Morfologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, RA bilan og'rikan bemorlarning 21–36% mezangial glomerulonefrit va 7–12% IgA nefropatiasini ko'rsatadi [32]. Mezangial proliferatsiyaning muhim omili IL-6 ning oshishi bo'lishi mumkin, bu RA bemorlariga xosdir, chunki IL-6 ning oshishi mezangial glomerulonefritning mezangial shakllari bilan bog'liq bemorlarda ham aniqlangan [43]. Mezangial glomerulonefrit (MGN) patogenezi – buyrakdagi glomerulalarning mezangial sohasida yallig'lanish va hujayra ko'payishi bilan tavsiflanadi. Patogenezi quyidagi asosiy bosqichlardan iborat immun komplekslar to'planishi mezangial glomerulonefrit ko'pincha immun kompleksli glomerulonefrit hisoblanadi. IgA nefropatiyada, plazma hujayralari tomonidan noto'g'ri glikozillangan IgA1 ishlab chiqariladi bu IgA1 molekulalari antikorlar bilan bog'lanib, immun komplekslar hosil qiladi. Ushbu komplekslar mezangial hujayralarga joylashadi, bu ularning faollashuviga olib keladi. Mezangial hujayralarning faollashuvi faollashgan mezangial hujayralar sitokinlar (masalan, IL-6, TGF- β), yallig'lanish mediatorlari, va oksidlovchi stress molekulalari ishlab chiqaradi. Bu jarayon mezangial hujayralarning ko'payishi (proliferatsiyasi) va interstitsial matritsaning ko'payishiga olib keladi. Yallig'lanish va to'qima zararlanishi faol mezangial hujayralar glomerulyar kapillyarlar faoliyatini buzadi kapillyar devorlari shikastlanib, siydikda oqsil (proteinuriya) va qon (gematuriya) paydo bo'ladi. Uzoq davom etgan yallig'lanish glomerulyar skleroz va buyrak funksiyasining yomonlashuvi bilan yakunlanadi. Komplement tizimi ishtiroki mezangial GN holatlarida ko'pincha C3 komplement komponentlari mezangiumda to'planadi. Bu klassik yoki alternativ yo'l orqali komplement tizimining faollashuvini ko'rsatadi, yallig'lanishni kuchaytiradi. 1973 yilda M.I. Salomon va hamkasblari RA bilan buyrak zararlanishi bo'lgan 18 holatni tavsifladilar. Morfologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, deyarli yarmi mezangial proliferatsiyani ko'rsatgan [44]. Katta retrospektiv tadqiqotlardan birida, RA bilan og'rikan bemorlarda 110 ta buyrak biopsiyasi o'rganilgan bo'lib, eng keng tarqalgan morfologik nefropatiya variantlari mezangial glomerulonefrit (36%), amiloidoz (30%) va membranoz nefropatiya (17%) bo'lgan [33]. Ancha kamroq uchragan variantlar esa fokal proliferativ glomerulonefrit (4%), minimal o'zgarishlar kasalligi (3%) va o'tkir interstitsial nefrit (1%) bo'lib, bu natijalar M. Nokanov va hamkasblari tomonidan 158 nafar RA bemorida olib borilgan tadqiqotda ham tasdiqlangan. Mezangial glomerulonefritning klinik kechishi yengilroq bo'lib, bu yerda nefrotik sindrom va terminal buyrak yetishmovchiligi rivojlanmaydi. Aksariyat hollarda bu variantda siydikda gematuriya,

ba'zida esa proteinuriya aniqlanadi. Amiloidoz ko'proq nefrotik sindrom bilan kechadi. Izolyatsiyalangan proteinuriya bilan og'rigan bemorlarda amiloidoz, membranoz nefropatiya va mezanjial nefritning uchrashish chastotasi deyarli bir xil [33, 46]. Biroq, boshqa bir retrospektiv tadqiqotda RA bilan og'rigan bemorlarda proteinuriya, nefrotik sindrom va buyrak yetishmovchiligi bilan bog'liq biopsiyalar natijalari orasida eng ko'p uchragan variant membranoz nefropatiya bo'lgan (31 bemordan 16 tasi) [47, 48]. Bu membranoz nefropatiyaning yuqori chastotasi, ehtimol, oltin preparatlari va D-penitsillamin bilan davolashning keng tarqalganligi bilan bog'liq. Bu variantning rivojlanishi, mezangial glomerulonefritdan farqli o'laroq, RA bilan og'rigan bemorlarda qisqa ($3,8 \pm 2,9$ yil) bo'lgan suyaklar patologiyasi anamneziga ega bemorlarda kuzatiladi [33]. RA da eng kam uchraydigan morfologik variantlar — minimal o'zgarishlar kasalligi, fokal segmentar glomeruloskleroz va buyrak qon tomirlarining revmatoid vaskuliti hisoblanadi. So'nggi variant, o'zining nisbatan kam uchrashi bilan birga, prognoz jihatidan noxushdir, chunki u tez rivojlanayotgan buyrak yetishmovchiligi va boshqa organlarning, ayniqsa, o'pkaning zarari ni keltirib chiqaradi [33, 49]. Metotreksatning keng tarqalgan qo'llanilishi va innovatsion maqsadli va genetik jihatdan modifikatsiyalangan biologik preparatlar (GIBP) davolashda keng qo'llanilishi RA ni davolashning oqibatlarini va xususiyatlarini tubdan o'zgartirdi, shuningdek, RA bilan bog'liq yuqori yallig'lanish faolligi bilan bog'liq buyrak alomatlarining takrorlanish va strukturasi ni ham o'zgartirdi. Bir nechta tadqiqotlar, shu jumladan ikki meta-tahlil, RA bemorlarida GIBP (avvalo TNF- α ingibitorlari) va bazisni preparatlar (asosan metotreksat) ning yurak-qon tomir xavfini va SBK xavfini kamaytirishdagi samaradorligini ko'rsatdi [12, 50–53]. TNF- α ingibitorlari va metotreksatni qo'llash umumiy xolesterin (UX), past zichlikdagi lipoproteinlar (PZL) xolesterini va ko'proq yuqori zichlikdagi lipoproteinlar (YZL) xolesterinini oshirish bilan bog'liq, bu esa umumiy UX/YZL UX nisbatini yaxshilaydi. Retrospektiv kohort tadqiqotida, 70 RA bemorini o'z ichiga olgan, TNF- α ingibitorlari bilan davolangan bemorlarda buyrak funksiyasi uzoq vaqt davomida barqaror bo'lib qolgan [12]. RA va amiloidoz bilan og'rigan bemorlarda TNF- α ingibitorlarini qo'llash o'sha vaqtda buyrak parchalanishining kamayishiga olib kelgan [55–57]. Yapon mualliflari tomonidan o'tkazilgan kattaroq klinik tadqiqotda, 2017 RA bemorini o'z ichiga olgan, GIBP ni qo'llash buyrak shikastlanishining xavfini kamaytirishi va SBK ning rivojlanishining sekinlashishini aniqladi. GIBP, shu jumladan anti-B-hujayra preparati rituksimab, endotelial funksiyaga, lipidlar almashinuvi va insulina qarshilikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa to'g'ridan-to'g'ri ta'sir (yallig'lanish va endotelial disfunktsiyani to'xtatish orqali) va bilvosita (lipidlar, uglevodlar va boshqalar almashinuvini o'zgartirish orqali) bo'lishi mumkin, bu esa RA bemorlarida SBK rivojlanishining xavfini kamaytirishi mumkin [58].

Xulosa

RA da buyrak shikastlanishi ikki asosiy omil bilan bog'liq bo'lishi mumkin: surunkali yallig'lanishning faolligi va asosiy kasallikni davolashda qo'llaniladigan dori-darmonlarning nefrotoksikligi bilan. Oxirgi yillarda farmakoterapiya rivojlanish bilan birga RA da buyrak shikastlanishining nisbatan kamaygan buning asosiy sabab, RA ning yallig'lanish faolligiga ta'sir qilishda samarali vositalarning paydo bo'lishi, xususan metotreksat va GIBP (genetik jihatdan modifikatsiyalangan biologik preparatlar, bemorlarda SBK ni kamaytirishga yordam beradi "Maqsadga erishish uchun davolash" (Treat to Target) zamonaviy davolash strategiyasida

ko'rsatilgan. Bu kasallik faolligini pasaytirish va nefrotoksik dori-darmonlarning ishlatilishini kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, RA da SBK patogeneza, ayniqsa, arterial gipertenziya, lipidlar almashinuvining buzilishi kabi yurak qon -tomir va metabolik xavf omillari o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda, chunki ular SBK ning rivojlanishiga, xususan, nefrosklerozga olib kelishu mumkin. Hozirda qo'llaniladigan ba'zi NYaQPning noto'ri daraja dozalanishi SBKga va uning og'ir bosqichlariga sabab bo'lmoqda ammo bazisni davoni to'g'ri olib borsak SBK kabi asoratlardan va dializ , buyrak transplantatsiya darajasini kamaytirgan bo'lamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Boers M, Croonen AM, Dijkmans BA, et al. Renal findings in rheumatoid arthritis: clinical aspects of 132 necropsies. *Ann Rheum Dis.* 1987;46:658-63.
2. Батюшин М.М., Выставкина Е.А. Факторы риска развития и прогрессирования хронической болезни почек у больных ревматоидным артритом. *Современные проблемы науки и образования.* 2011;5 [Batyushin MM, Vyshkina EA. Risk factors for the development and progression of chronic kidney disease in patients with rheumatoid arthritis. *Modern problems of science and education.* 2011; 5 (In Russ.)]. URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=4871>
3. Etiology and pathogenesis of rheumatoid arthritis. In: Firestein GS, Kelley WN (eds). *Kelley's Textbook of Rheumatology*, 8th edn. Philadelphia, PA: Saunders/Elsevier, 2009:1035-86.
4. Galarraga B, Khan F, Kumar P, Pullar T, Belch JJ. C-reactive protein: the underlying cause of microvascular dysfunction in rheumatoid arthritis. *Rheumatology (Oxford).* 2008;47(12):1780-4.
5. Listing J, Kekow J, Manger B, et al. Mortality in rheumatoid arthritis: the impact of disease activity, treatment with glucocorticoids, TNF α inhibitors and rituximab. *Ann Rheum Dis.* 2015;74:415-21.
6. Hickson LJ, Crowson CS, Gabriel SE, et al. Development of reduced kidney function in rheumatoid arthritis. *Am J Kidney Dis.* 2014;63:206-13.
7. Foster MC, Rawlings AM, Marrett E, et al. Potential effects of reclassifying CKD as a coronary heart disease risk equivalent in the US population. *Am J Kidney Dis.* 2014;63:753-60.
8. Hickson LJ, Crowson CS, Gabriel SE, et al. Development of reduced kidney function in rheumatoid arthritis. *Am J Kidney Dis.* 2014;63:206.
9. Huerta C, Castellsague J, Varas-Lorenzo C, Garcia Rodriguez LA. Nonsteroidal anti-inflammatory drugs and risk of ARF in the general population. *Am J Kidney Dis.* 2005 Mar;45(3):531-9. doi: 10.1053/j.ajkd.2004.12.005
10. Hemmelgarn BR, Manns BJ, Lloyd A, et al. Relation between kidney function, proteinuria, and adverse outcomes. *J Amer Med Association.* 2010;303(5):423-9.
11. Nakahara C, Kanemoto K, Saito N, Oyake Y, Kamoda T, Nagata M, et al. C-reactive protein frequently localizes in the kidney in glomerular diseases. *Clin Nephrol.* 2001

12. Karie S, Gandjbakhch F, Janus N, Launay-Vacher V, Rozenberg S, Mai Ba CU, Bourgeois P, Deray G. Kidney disease in RA patients: prevalence and implication on RA-related drugs management: the MATRIX study. *Rheumatology (Oxford)*.
13. Каратеев А.Е., Насонов Е.Л., Ивашкин В.Т., Мартынов А.И., Яхно Н.Н., Арутюнов Г.П., Алексеева Л.И., Абузарова Г.Р., Евсеев М.А., Кукушкин М.Л., Копенкин С.С., Лиля А.М., Лапина Т.Л., Новикова Д.С., Попкова Т.В., Ребров А.П., Скоробогатых К.В., Чичасова Н.В. Рациональное использование нестероидных противовоспалительных препаратов. Клинические рекомендации. *Научно-практическая ревматология*.
14. Kochi M, Kohagura K, Shiohira Y, Iseki K, Ohya Y. Inflammation as a Risk of Developing Chronic Kidney Disease in Rheumatoid Arthritis. *PLOS ONE*. 2016. doi: 10.1371/journal.pone.016022
15. Kim HW, Lee CK, Cha HS, Choe JY, Park EJ, Kim J. Effect of antitumor necrosis factor alpha treatment of rheumatoid arthritis and chronic kidney disease. *Rheumatol Int*. 2015;35(4):727-34. doi: 10.1007/s00296-014-3146-4
16. Киселева А.Г., Орлова Г.М., Бердникова И.А., Фереферова Н.М. Хроническая болезнь почек у больных ревматоидным артритом. *Сибирский медицинский журнал*. 2007;7:90-2 [Kiseleva AG, Orlova GM, Berdnikova IA, Ferreferova NM. Chronic kidney disease in patients with rheumatoid arthritis. *Siberian Medical Journal*. 2007;7:90-2 (In Russ.)]. Каратеев А.Е., Насонов Е.Л., Ивашкин В.Т., Мартынов А.И., Яхно Н.Н., Арутюнов Г.П., Алексеева Л.И., Абузарова Г.Р., Евсеев М.А., Кукушкин М.Л., Копенкин С.С., Лиля А.М., Лапина Т.Л., Новикова Д.С., Попкова Т.В., Ребров А.П., Скоробогатых К.В., Чичасова Н.В. Рациональное использование нестероидных противовоспалительных препаратов. Клинические рекомендации. *Научно-практическая ревматология*. 2018;56:1
17. Listing J, Kekow J, Manger B, et al. Mortality in rheumatoid arthritis: the impact of disease activity, treatment with glucocorticoids, TNF α inhibitors and rituximab. *Ann Rheum Dis*. 2015;74:415-21.
18. Li Z, Chung ACK, Zhou L, Huang XR, Liu F, Fu P, et al. C-reactive protein promotes acute renal inflammation and fibrosis in unilateral ureteral obstructive nephropathy in mice. *Laboratory Investigation [Article]*. 2011;91(6):837-51. doi: 10.1038/labinvest.2011.42
19. Möller B, Pruijm M, Adler S, Scherer A, Villiger PM, Finckh A. Chronic NSAID use and long-term decline of renal function in a prospective rheumatoid arthritis cohort study. *Ann Rheumatic Disease*. 2013;74. <http://dx.doi.org/10.1136/annrheumdis-2013-204078>
20. Насонов Е.Л. Фармакотерапия ревматоидного артрита: новая стратегия, новые мишени. *Научно-практическая ревматология*. 2017;55(4):409-
21. Nasonov EL. Pharmacotherapy of rheumatoid arthritis: a new strategy, new targets. *Rheumatology Science and Practice*. 2017;55(4):409-19 (In Russ.)). <https://doi.org/10.14412/1995-4484-2017-409-419>
22. Nissen SE, Yeomans ND, Solomon DH, et al. Cardiovascular Safety of Celecoxib, Naproxen, or Ibuprofen for Arthritis. *N Engl J Med*. 2016 Dec 29;375 (26):2519-29. doi: 10.1056/NEJMoa1611593. Epub 2016 Nov 13
23. Оранский С.П. Хроническая болезнь почек при ревматоидно артрите: ассоциация с сердечно-сосудистым риском. *Фундаментальные исследования*. 2013;12(2):285-8

- [Oransky SP. Chronic kidney disease in rheumatoid arthritis: an association with cardiovascular risk. *Basic research*. 2013;12(2):285-8 (In Russ)].
24. Toblli JE, Bevione P, Di Gennaro F, Madalena L, Cao G, Angerosa M. Understanding the mechanisms of proteinuria: therapeutic implications. *Int J Nephrol*. 2012;546039. doi: 10.1155/2012/546039
 25. Tokoroyama T, Ando M, Setoguchi K, Tsuchiya K, Nitta K. Prevalence, incidence and prognosis of chronic kidney disease classified according to current guidelines: a large retrospective cohort study of rheumatoid arthritis patients. *Nephrol Dial Transplant*. 2016;0:1-8. doi: 10.1093/ndt/gfw315
 26. Ребров А.П., Тяпкина М.А., Волошинова Е. В. Субклиническое поражение почек у пациентов с ревматоидным артритом. *Лечащий врач*. 2012;4:40-2 [Rebrov AP, Tyapkina MA, Voloshinova EV. Subclinical kidney damage in patients with rheumatoid arthritis. *Lechaschi Vrach*. 2012;4:40-2 (In Russ.)].
 27. Chiu HY, Huang HL, Li CH, Chen HA, Yeh CL, Chiu SH, Lin WC, Cheng YP, Tsai TF, Ho SY. Increased Risk of Chronic Kidney Disease in Rheumatoid Arthritis Associated with Cardiovascular Complications A National Population-Based Cohort Study. *PLoS One*. 2015;25,10(9):e0136508. doi: 10.1371/journal.pone.0136 508
 28. Cannon C, Curtis S, FitzGerald G, et al. Cardiovascular outcomes with etoricoxib and diclofenac in patients with osteoarthritis and rheumatoid arthritis in the Multinational Etoricoxib and Diclofenac Arthritis Longterm (MEDAL) programme: a randomised comparison. *Lancet*. 2006;368(9549):1771-81. doi: 10.1016/S0140-6736(06)69666-9
Н.В. Чеботарева и соавт. 132 ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЙ АРХИВ 5, 2019ХБП у больных РА
 29. Shankar A, Sun L, Klein BE, Lee KE, Muntner P, Nieto FJ, et al. Markers of inflammation predict the long-term risk of developing chronic kidney disease: a population-based cohort study. *Kidney Int*. 2011;80(11):1231-8. doi: 10.1038/ki. 2011.283
 30. Schwedler SB, Guderian F, Dämmrich J, Potempa LA, Wanner C. Tubular staining of modified C-reactive protein in diabetic chronic kidney disease. *Nephrol Dial Transplant*. 2003;18(11):2300-7.

PODAGRIK NEFROPATIIYADA BUYRAKLARNING SHIKASTLANISH MEXANIZMI

Ro'zumbetova Safura Rustem qizi

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi 1-bosqich magistranti,

E-mail: safurarozumetova406@gmail.com

Tel: +998 99 829 62 98

ORCID: 0009-00022539-7115

Toshkent, O'zbekiston

Umarova Zamira Fahrievna

TTA 2-son fakultet va hospital terapiya,

nefrologiya va gemodializ kafedrasida t.f.n, dotsenti

Annotatsiya. Podagra — purin almashinuvi buzilishi natijasida yuzaga keladigan surunkali metabolik kasallik bo'lib, uning asosiy xususiyati natriy monourat (NMU) kristallarining bo'g'imlar, tofuslar, ichki organlar, ayniqsa buyrak to'qimalarida to'planishidir. Ushbu kristallar organizmda yallig'lanish jarayonlarini boshlovchi asosiy omil sifatida ishtirok etadi. Podagrik nefropatiya esa podagra bilan bog'liq turli xil buyrak shikastlanishlarini ifodalaydi. Bu kasallik nafaqat kristallarning to'planishi, balki purin almashinuvi buzilishi, metabolik sindrom, gipertoniya va qon tomir patologiyalari bilan ham bevosita bog'liq. Natriy monourat kristallarining yallig'lanish ta'siri interleykin-1 α (IL-1 α), interleykin-6 (IL-6), siklooksigenaza-2 (COX-2), kinazalar (Syk, p38 MAPK) va inflammasomalar orqali rivojlanadi. Bu jarayonlar podagrik nefropatiyaning rivojlanishida asosiy omil bo'lib, buyrak to'qimalariga jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu maqolada podagrik nefropatiyaning molekulyar asoslari, uning patogen mexanizmlari va buyraklarga ta'siri haqida mavjud adabiyotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: podagra, podagrik nefropatiya, natriy monourat (NMU), Interleykin-1 α (IL-1 α), Interleykin-6 (IL-6), Siklooksigenaza-2 (COX-2), inflammasoma.

MECHANISM OF KIDNEY DAMAGE IN GOUTY NEPHROPATHY

Rozumbetova Safura Rustem qizi

1st-year Master's Student,

Tashkent Medical Academy,

Tashkent, Uzbekistan

Umarova Zamira Fahrievna

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor,

Department of Faculty and Hospital Therapy No. 2,

Nephrology and Hemodialysis,

Tashkent Medical Academy

Abstract. Gout is a chronic metabolic disease caused by a disturbance in purine metabolism, characterized by the accumulation of sodium monourate (NMU) crystals in the joints, tophi, internal organs, and especially in the kidney tissues. These crystals act as the main trigger for initiating inflammatory processes in the body. Gouty nephropathy refers to various kidney damages associated with gout. This condition is not only related to the deposition of crystals but also closely linked to disruptions in purine metabolism, metabolic syndrome, hypertension, and vascular pathologies. The inflammatory effects of sodium monourate crystals are mediated through interleukin-1 α (IL-1 α), interleukin-6 (IL-6), cyclooxygenase-2 (COX-2), kinases (Syk, p38 MAPK), and inflammasomes. These processes play a significant role in the development of gouty nephropathy and cause severe damage to kidney tissues. This article analyzes the molecular basis, pathogenic mechanisms, and the impact of gouty nephropathy on kidney tissues as discussed in the existing literature.

Keywords: gout, gouty nephropathy, sodium monourate (SMU), interleukin-1 α (IL-1 α), interleukin-6 (IL-6), cyclooxygenase-2 (COX-2), inflammasome.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-27>

Podagrik nefropatiya podagra bilan kasallangan bemorlar orasida tez-tez uchraydigan asorat hisoblanadi. Xalqaro ma'lumotlarga ko'ra, podagra 0,3% dan 3,9% gacha aholida uchraydi, podagrik nefropatiya esa ushbu bemorlarning 10-20% ni tashkil qiladi. Podagra chalingan erkaklar orasida bu kasallik ayollarga nisbatan ko'proq uchraydi. Erkaklar orasida podagra bilan bog'liq kasalliklarning tarqalishi 40-50 yoshda yuqori bo'lib, ayollarda esa menopauzadan keyingi davrda ko'payadi[5].

Rossiyada olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, podagra tarqalishi har yili o'rtacha 3% ga oshmoqda. Rossiyada har 100 ming aholiga nisbatan podagra bilan kasallangan bemorlarning 25-40 nafarida podagrik nefropatiya aniqlangan. Toshkent shahrida olib borilgan epidemiologik tekshirishlarga qaraganda, 5000 ta aholining 5,8% da bo'g'im kasalligi mavjud bo'lsa, podagra uning 0,04% ni tashkil etadi. Giperurikemiya aholining 4-18% ida aniqlanadi, podagra bilan xastalanganlar soni aholining 0,1% ni tashkil qiladi.[2] Shu bilan birga, AQShda o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, podagra bilan kasallangan bemorlarning 20-30% ida buyraklarning surunkali yetishmovchiligi rivojlanadi, bu esa podagrik nefropatiyaning iqtisodiy va tibbiy ahamiyatini oshiradi[2].

Podagrik nefropatiya rivojlanishining asosiy xavf omillari quyidagilar:

Siydik kislotasining qonda yuqori darajada to'planishi (giperurikemiya)

Etiologiya

Podagrik nefropatiya podagra kasalligi asosida rivojlanadi va uning asosiy etiologik omillari quyidagilar:

1. Siydik kislotasi metabolizmining buzilishi:

Podagrik nefropatiya rivojlanishining asosiy sababi siydik kislotasining qonda yuqori darajada to'planishi (giperurikemiya) va buyraklarda siydik kislotasi kristallarining cho'kishi hisoblanadi. Ushbu kristallar buyrak to'qimalariga mexanik zarar yetkazadi va yallig'lanishni keltirib chiqaradi[7].

2. Genetik moyillik:

Ba'zi genlar (URAT1, GLUT9, ABCG2) mutatsiyasi siydik kislotasining buyrakdan chiqib ketishini buzadi. Bu esa irsiy podagra va undan kelib chiqadigan nefropatiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi[3].

3. Yallig'lanish jarayoni:

Podagra hujumlari davomida hosil bo'ladigan sitokinlar (IL-1 β , TNF- α) buyraklarda surunkali yallig'lanish jarayonini kuchaytiradi, bu esa buyrak to'qimalarining zararlanishiga olib keladi[8].

4. Mikrosirkulyatsiya buzilishi:

Siydik kislotasi kristallari buyrak qon tomirlarida mikroemboliyalar hosil qilib, qon oqimini buzadi va buyrak parenximasi gipoksiyasiga sabab bo'ladi [6].

Xavf omillari

Podagrik nefropatiya rivojlanishiga turtki bo'luvchi bir qancha omillar mavjud:

1. Ovqatlanish omillari

Oziq-ovqat: Qizil go'sht, jigar va boshqa purinlarga boy mahsulotlar iste'moli siydik kislotasi darajasini oshiradi.

Spirтли ichimliklar: Spirтли ichimliklar, ayniqsa pivo siydik kislotasining metabolizmini buzadi.

Fruktozaga boy ichimliklar: Shirin ichimliklar va fruktozali mahsulotlar siydik kislotasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi.

2. Hayot tarzi va kasalliklar

Semizlik: Semizlik podagrik nefropatiya havfini sezilarli oshiradi, chunki semizlikda siydik kislotasi ishlab chiqarilishi kuchayadi.

Kam harakatlilik: Kam harakatlilik hayot tarzi metabolizmning pasayishiga olib keladi.

Arterial gipertenziya: Qon bosimi yuqori bo'lgan bemorlarda siydik kislotasining buyrakdan chiqarilishi pasayadi.

Qandli diabet: Qonda glyukozaning yuqori darajasi buyraklarning filtratsiya funksiyasini buzadi[1].

Podagrik nefropatiyaning patogenezi

Podagrik nefropatiyaning patogenezi murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, asosan siydik kislotasi metabolizmining buzilishi bilan bog'liq. Quyida bu jarayon bosqichma-bosqich bayon etiladi:

1. Siydik kislotasi metabolizmining buzilishi

Siydik kislotasi — purin metabolizmi natijasida hosil bo'ladigan asosiy mahsulot. Normal sharoitda siydik kislotasi:

2/3 qismi buyrak orqali, 1/3 qismi ichak orqali chiqariladi. Giperurikemiya (qonda siydik kislotasi darajasining oshishi). Haddan tashqari ishlab chiqarish: ovqatda purinlarga boy mahsulotlarni ko'p iste'mol qilish yoki endogen metabolizmning buzilishi sababli buyraklardan ekskretsiya bo'lishining kamayishi: buyrak funksiyasining buzilishi yoki dori vositalarining ta'siri tufayli yuzaga keladi.

2. Siydik kislotasi kristallarining to'planishi va yallig'lanish jarayoni

Siydik kislotasi qonda haddan tashqari to'planganda buyrak kanalchalari va interstitsial to'qimalarida kristal ko'rinishida cho'kadi. Ushbu kristallar buyrak to'qimalarini mexanik shikastlaydi va yallig'lanish jarayonini boshlanadi. O'tkir podagrik yallig'lanish natriy monourat kristallarining immun tizimi hujayralari — neytrofil granulotsitlar, monotsit/makrofaglar va bazofil granulotsitlar bilan o'zaro ta'siri natijasida rivojlanadi. Bu jarayon yallig'lanish mediatorlarining faollashishi va ajralib chiqishiga olib keladi.

Shunday qilib, natriy monourat kristallari podagrada yallig'lanishni boshlovchi asosiy triger hisoblanadi[8].

Podagrik yallig'lanishni faollashtiruvchi asosiy vositachilar:

1. Sitokinlar – yallig'lanishni kuchaytiruvchi oqsillar:

Interleykin-1 α (IL-1 α)

Interleykin-6 (IL-6)

O'sma nekroz faktori (TNF- α)

2. Xemokinlar – immun hujayralarni chaqiruvchi moddalar:

Interleykin-8 (IL-8)

3. Mini-molekulalar – yallig'lanishning biokimyoviy modulyatorlari:

Prostaglandinlar

Gistamin

4. Fermentlar

Siklooksigenaza-2 (COX-2)

Kinasalar (Syk, p38 MAPK)

Podagrik yallig'lanishda inflammasomalarning ro'li[8].

Inflammasoma nima?

Inflammasoma – bu hujayralarning ichki himoya tizimi bo'lib, ular mikroblar yoki siydik kislotaning kristallari bilan aloqa qilganda yallig'lanish reaksiyasini boshlaydi. Ularning asosiy vazifasi interleykin-1 β (IL-1 β) ni faol shaklga aylantirish va yallig'lanishni rag'batlantirishdir.

Bugungi kunda to'rtta asosiy inflammasoma turi aniqlangan:

1. NLRP1

2. NLRP2

3. AIM2

4. IPAF

Podagra bilan bog'liq asosiy inflammasoma – NLRP3

NLRP3 (kriopirinli inflammasoma) – podagrik yallig'lanishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

NLRP3 inflammasoma natriy monourat kristallari bilan faollashib, interleykin-1 β (IL-1 β) ishlab chiqarilishiga sabab bo'ladi.

IL-1 β esa o'z navbatida:

Immun hujayralarni yallig'langan joyga chaqiradi

Bo'g'im ichki hujayralari va fagotsitlarni faollashtiradi

Yallig'lanish mediatorlarining ajralishini davom ettiradi[4].

Podagrik yallig'lanishning rivojlanish bosqichlari

1. Natriy monourat kristallari bo'g'im ichiga to'planadi

2. Kristallar fagotsitlar (makrofaglar va neytrofillar) tomonidan yutiladi

3. Fagotsitoz jarayonida inflammasoma (NLRP3) faollashadi

4. Interleykin-1 β (IL-1 β) ishlab chiqarilishi kuchayadi

5. IL-1 β boshqa yallig'lanish mediatorlari (TNF- α , IL-6, IL-8, leykotrienlar, prostaglandinlar) sintezini rag'batlantiradi

6. Bu mediatorlar neyrofillarning yallig'langan hududga ko'chishini ta'minlaydi

7. Bo'g'imda og'riq, shish va qizarish paydo bo'ladi. Bu jarayon o'z navbatida buyraklarda ham kuzatiladi va buyrak funksiyaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu sitokinlar yallig'lanishni kuchaytirib, fibroblastlarning faollashuviga va interstitsial fibroz rivojlanishiga olib keladi [4].

3. Mikrosirkulyatsiya va qon oqimining buzilishi

Siydik kislotasi kristallari buyrak qon tomirlarida mikroemboliyalar hosil qilib, qon oqimini buzadi. Qon oqimining kamayishi buyrak parenximasida gipoksiya va oksidativ stressni kuchaytiradi. Natijada, buyrakning filtratsiya funktsiyasi pasayadi va surunkali buyrak kasalligi rivojlanadi[5].

4. Buyrak kanalchalari shikastlanishi

Siydik kislotasi kristallari:

Proksimal va distal kanalchalarni shikastlaydi. Kanalchalarning ichki yuzasi zararlanib, ular atrofiga yallig'lanish va nekroz rivojlanadi. Bu jarayon buyrakning siydikni filtratsiya reabsorbsiya qilish qobiliyatini pasaytiradi[1].


5. Buyrak interstitsial fibrozining rivojlanishi

Siydik kislotasi kristallarining surunkali yallig'lanish ta'sirida interstitsial fibroz rivojlanadi. Bu esa Glomerulyar filtratsiya tezligining (GFT) pasayishi, buyraklarning surunkali funksional buzilishlariga olib keladi.

6. Urat nefrolitiaz (buyrak toshlari) rivojlanishi

Siydik kislotasi darajasining yuqori bo'lishi toshlarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Toshlar buyrak kanalchalarida to'planib, gidronefroz va obstruktiv nefropatiyaga olib keladi[1].

Patogenetik sxema: 1. Giperurikemiya → Siydik kislotasi kristallarining cho'kishi → Yallig'lanish → Buyrak to'qimasining shikastlanishi va fibroz → Surunkali buyrak yetishmovchiligi[8]



Xulosa

1. Podagra natriy monourat kristallarining immun tizimi bilan o'zaro ta'siri natijasida rivojlanadi.

2. Bu kristallar NLRP3 inflammasomani faollashtirib, interleykin-1 β ishlab chiqarilishini rag'batlantiradi.

3. IL-1 β esa yallig'lanish mediatorlarining faollashishini kuchaytirib buyraklarda buyrak kanalchalari va interstitsial to'qimalar organik o'zgarishga uchraydi. Kanalchalarning ichki yuzasi zararlanib buyrakning siydikni filtratsiya va reabsorbsiya qilish qobiliyatini buzadi.

Ushbu mexanizmlarni tushunish podagrani yanada samarali davolash va IL-1 β ning blokatorlari asosida yangi dorilar ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ахмедова, Ш., & Рахматова, Д. (2020). СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ПОДАГРИЧЕСКОЙ НЕФРОПАТИИ. Журнал вестник врача, 1(3), 117–120.
2. Фомин В. В. Подагрическая (уратная) нефропатия. Consilium medicum, 2021, Т. 23, №. 1, С. 11–14.
3. Қодирова Ш. А., Жуманазаров С. Б., Сапаева З. А. Tibbiyotda angi kun, №. 6, С. 145–149.
4. Mulay S. R., Evan A., Anders H. J. Molecular mechanisms of crystal-related kidney inflammation and injury. Nephrology Dialysis Transplantation, 2014, Т. 29, №. 3, С. 507–514.
5. Милованов Ю. С., Николаев А. Ю. (2006). Нарушения пуринового обмена и подагрическая нефропатия.
6. Рюк Р. В., Яровой С. К. Хроническая болезнь почек у пациентов с рецидивирующим нефролитиазом... Вестник урологии, 2021, Т. 9, №. 3, С. 52–61.
7. Шукурова С. М., Джоназарова Д. Х., Ахунова Н. Т. (2011). Современный взгляд на подагрическую нефропатию. Научно-практический журнал ТИППМК, (4), 68–73.
8. Wang, Lin, et al. Models of gouty nephropathy: exploring disease mechanisms... Frontiers in Medicine, 2024, 11:1305431.

FARMATSEVTIKA FANLARI

DETERMINATION OF THE ANTIMICROBIAL EFFECT OF DRIED RASPBERRY LEAVES

Shakirova Dinora Ne'matovna

Senior lecturer of the Department of Medical,
Biological Sciences and physical education of
the Tashkent Pharmaceutical Institute
Tashkent, Uzbekistan

Xabibullayeva Shoira Muydinjon qizi

Assistant of the "Department of Pharmacognosy"
of the Tashkent Pharmaceutical Institute
E-mail: khlabibullayeva93@inbox.ru
Tel: +998 90 934 41 45
ORCID: 0009-0005-4141-1193
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The medicinal properties of plants are determined by their active ingredients. On their basis or by synthesis, the pharmaceutical industry produces effective medicinal plant preparations. Therefore, it is very important to look for alternative medicinal phytopreparations with a wide spectrum of antimicrobial activity. Antimicrobial effects of dried raspberry leaves have been found in this material, and investigations have shown bacteriostatic effects against dried raspberry leaf tincture *Staphylococcus aureus*[1].

Keywords: *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Staphylococcus aureus*, *Basillus subtilis*, *Candida albicans*, damlama, bakteritsid, bakteristatik.

QURITILGAN MALINA BARGLARINING ANTIMIKROB TA'SIRINI ANIQLASH

Shakirova Dinora Ne'matovna

Toshkent farmatsevtika instituti "Tibbiy, biologik
fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrasida katta o'qituvchisi
Toshkent, O'zbekiston

Xabibullayeva Shoira Muyiddinjon qizi

Toshkent farmatsevtika instituti
"Farmakognosiya kafedras"i assistenti
Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. O'simliklarning dorivor xususiyatlari ularning tarkibidagi faol moddalari bilan belgilanadi. Ular asosida yoki sintez qilish orqali farmatsevtika sanoati samarali dorivor o'simliklar preparatlarini ishlab chiqaradi. Shu sababli, mikroblarga qarshi faollikning keng spektriga ega bo'lgan muqobil dorivor fitopreparatlarni izlash juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu materialda quritilgan malina barglarining mikroblarga qarshi ta'siri aniqlangan bo'lib, tekshiruvlar natijasida quritilgan malina barglari damlamasi *Staphylococcus aureus* ga qarshi bakteristatik ta'sir ko'rsatdi[1].

Kalit so'zlar: *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Staphylococcus aureus*, *Basillus subtilis*, *Candida albicans*, damlama, bakteritsid, bakteristatik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-28>

Methods and techniques: determining the antimicrobial effect of a sample of dried raspberry leaves was done by diffusing Agar into a solid nutrient medium against fungi of certain types of bacteria: *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Staphylococcus aureus*, *Basillus subtilis* and *Candida albicans*. (RF DF XX1, Part 1, p.194). All cultures of microorganisms were obtained from the collection of the Institute of Microbiology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan[2,3,4].

Table 1.

Test for inoculate preparation-conditions for growing microorganisms

Microorganisms	Feed environment	Incubation temperature	Incubation time for plantings
<i>Escherichia coli</i> <i>Pseudomonas aeruginosa</i> <i>Staphylococcus aureus</i> <i>Basillusubtilis</i>	Feed broth (Himedia, Forage agari (Himedia,	37 ⁰ C	24 clock
<i>Candida albicans</i>	Ozuqa buloni (Himedia), Saburo agar (Himedia),	30 ⁰ C	24 clock

Preparation of inoculate: cultivated cultures of strains tested for bacteria were washed with a sterile 0.9% isotonic sodium chloride solution from a sloping agar surface and brought to 107 KOE/ml using the McFarland turbidity standard.

Preparation of a sample of dried raspberry leaves: a sample of dried raspberry leaves was prepared according to the instruction in 2 different ways:

Tincture. 5 tablespoons of dried and crushed raspberry leaves are placed in 0.5 liters of boiling water, infused for 2 hours and filtered.

Tea. A 200 ml capacity Teapot is filled with 1 tablespoon of dried raspberry leaves and boiling water. Tea is infused for 15 minutes and filtered.

Conducting experiments

Molten nutrient media from 25 ml of agar (Himedia) for bacteria and Saburo agari (Himedia) for fungi were poured into Petri cups placed on tables with a strictly horizontal surface. Petri cups were dried in a thermostat at a temperature of 37 C for 24 hours. The bacterial suspension was inoculated by immersing a sterile cotton swab in Agar in a test — microorganism suspension and removing the excess suspension by compressing it on the walls of the test tube. To obtain a uniform gauze, the inoculant was evenly distributed with barbed movements over the entire surface of the agar. A sterile metal cylinder with a diameter of 0.6 cm was used to pierce the holes. At the same volume as the holes in each cup, samples were placed under investigation of different concentrations from 100 MCL. The Petri Cups with the samples being examined were then refrigerated for 4 hours. These Petri cups were then incubated in a thermostat at 370c for bacteria and 300c for fungi for 24 hours. The experiment was conducted on March 2[5,6].

Results:

Table 2.

Antimicrobial activity of dried raspberry leaves

№	Test strains	Stop growth zone,	
		Tincture	Tea
1	<i>Escherichia coli</i>	0	0
2	<i>Pseudomonas aeruginosa</i>	0	0
3	<i>Staphylococcus aureus</i>	16 mm (bacteriostatic effect)	0
4	<i>Candida albicans</i>	0	0
5	<i>Basillus subtilis</i>	0	0

The antimicrobial effect is 2 different: bacteriocid and bacteriostatic. When bacteria die completely in bacteriocid exposure, in bacteriostatic exposure they stop growing. According to the results of the study, it was found that the tincture of dried raspberry leaves had a bacteriostatic effect against *Staphylococcus aureus*. The growth stop zone was set at 16 mm. Other test strains showed no antimicrobial activity of tincture and tea made from dried raspberry leaves.

Figure 1. Effect of dried raspberry leaves against *Escherichia coli* stammy




Figure 2. Effect of dried raspberry leaves against *Pseudomonas aeruginosa* stammy



Figure 3. Effect of dried raspberry leaves against *basillus subtilis* stammy




Figure 4. Effect of dried raspberry leaves against *Candida albicans* stammy



Figure 5a. Description of dried raspberries against burglary *Staphylococcus aureus* Tammin



Figure 5b. Effect of dried raspberry leaves against *Staphylococcus aureus* stammy (enlarged image)



Conclusion: the dried raspberry leaf tincture sample has antimicrobial bacteriostatic activity compared to *Staphylococcus aureus*.

Adabiyotlar/Literatupa/References:

1. Атлас лекарственных растений, Всероссийский научный исследовательский институт лекарственных и ароматических растений -М.,2006.-С.64.
2. Бубенчикова, В.Н. Антимикробная активность некоторых представителей флоры Центрального Черноземья / В.Н. Бубенчикова, И.Л. Дроздова, М.В. Покровский // Человек и лекарство: тез. докл. Рос. нац. конгр., Москва, 2-6 апреля 2001 г.: М., 2001.- С. 550.
3. Государственная Фармакопея Российской Федерации XIV, часть 1. стр.194 (Москва 2018г).
4. Государственный реестр лекарственных средств. Режим доступа:(<http://grls.rosminzdrav.ru>). — Дата обращения : 10.08.2015.
5. Г. Я. Шварц // Большая российская энциклопедия : [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов. — М. : Большая российская энциклопедия, 2004—2017.
6. Шакирова Д.М., Хабибуллаева Ш.М.,Определение антимикробной активности сухих листьев малины // Инфекция, иммунитет и фармакология.- 2024.-№1. С.212-218.

PSIXOLOGIYA FANLARI

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEY O'QUVCHILARIDA KASBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISH: IJTIMOY MUHITNING TA'SIRI

Bekmuratova Xalima Maksatovna

Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo

akademik litseyi psixologi,

Tel: +998 91 541 08 18

E-mail: khalima.0818@gmail.com

khalimabekmuratova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litsey o'quvchilarida kasbiy motivatsiyaning shakllanishida ijtimoiy muhitning o'rni o'rganiladi. Gertsberg, Bandura, Vrum va Lok kabi olimlarning nazariyalariga asoslanilgan holda, maqolada tashqi ijtimoiy omillar — jumladan, muassasa madaniyati, tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar va jamiyat ta'siri — kasbiy orzular va kasbga sadoqatni qanday shakllantirishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, motivatsiya faqat individual hodisa bo'lib qolmasdan, balki o'quvchilar ta'lim jarayonida to'qnashadigan ijtimoiy tuzilmalar va qadriyatlar bilan chuqur bog'liqdir.

Kalit so'zlar: Kasbiy motivatsiya, ijtimoiy-psixologik omillar, o'quvchilar motivatsiyasi, ijtimoiy muhit, motivatsion rivojlanish, kasbga yo'naltirish, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, litsey o'quvchilari psixologiyasi, kasbiy o'zini anglash.

MINISTRY OF INTERNAL AFFAIRS FORMATION OF PROFESSIONAL MOTIVATION IN ACADEMIC LYCEUM STUDENTS: THE INFLUENCE OF THE SOCIAL ENVIRONMENT

Bekmuratova Khalima Maksatovna

Psychologist of the Surkhandarya Academic

Lyceum of the Ministry of Internal Affairs,

Abstract. This article examines the role of the social environment in the formation of professional motivation among students of the academic lyceum under the Ministry of Internal Affairs. Based on the theories of scholars such as Herzberg, Bandura, Vroom, and Locke, the article analyzes how external social factors — including institutional culture, peer relationships, and societal influence — shape professional aspirations and commitment to a career. The research findings indicate that motivation is not merely an individual phenomenon but is deeply interconnected with the social structures and values that students encounter in the educational process.

Keywords: Professional motivation, socio-psychological factors, student motivation, social environment, motivational development, career orientation, intrinsic motivation, extrinsic motivation, lyceum students' psychology, professional self-awareness.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025-29>

Kirish

Kasbiy motivatsiya, ayniqsa huquqni muhofaza qilish kabi talabchan sohalarda, kasbiy yo'lni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litsey o'quvchilari intensiv ta'limiy va ijtimoiy muhitda tahsil olishadi, bu esa ularning kasbiy intilishlariga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu maqolada kasbiy motivatsiyaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli ijtimoiy omillar, taniqli psixologlarning nazariyalari hamda o'quvchilar bilan ularning atrof-muhiti o'rtasidagi o'zaro ta'sir asosida tahlil qilinadi.

Kasbiy motivatsiyaning nazariy asoslari

Gertsbergning ikki omilli nazariyasi

Frederik Gertsberg (1959) o'zining Ikki omilli nazariyasida motivatorlar (qoniqish va ish samaradorligini oshiruvchi omillar) hamda gigiyenik omillar (yo'qligida norozilik keltirib chiqaradigan, lekin o'zi motivatsiya bermaydigan omillar) o'rtasida farq qiladi. Huquqni muhofaza qilish sohasida tahsil olayotgan o'quvchilar uchun motivatorlar — kasbiy o'sish imkoniyatlari, e'tirof etilish, va yutuq hissi — uzoq muddatli motivatsiyani shakllantirishda muhim hisoblanadi. Gigiyenik omillar esa — ish muhiti, ish haqi va muassasa barqarorligi bo'lib, ular norozilikni oldini olish uchun zarur, biroq o'z-o'zidan kasbga bo'lgan sadoqatni kuchaytirmaydi.

Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi

Albert Bandura (1986) — psixologiya sohasining yirik vakili — tomonidan ishlab chiqilgan Ijtimoiy-kognitiv nazariya motivatsiya shakllanishida shaxsiy, xulq-atvoriy va atrof-muhit omillari o'zaro ta'sirini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyaning asosiy tushunchalaridan biri — bu o'ziga bo'lgan ishonch (self-efficacy), ya'ni insonning o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erisha olishiga bo'lgan ishonchidir. Banduraga ko'ra, inson o'z harakatlari ijobiy natijaga olib kelishiga ishongan taqdirdagina, u kuchliroq motivatsiyaga ega bo'ladi. Akademik litseylar kontekstida esa, huquqni muhofaza qilish sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar yoki muvaffaqiyatga erishgan bitiruvchilar bilan muloqot qilgan o'quvchilar o'zlarida yuqori darajadagi o'ziga ishonchni shakllantiradi va natijada kuchli kasbiy motivatsiyaga ega bo'lishadi.

V.Vrumning Kutilmalar nazariyasi

Viktor Vrum (1964) tomonidan ilgari surilgan Kutilmalar nazariyasiga ko'ra, motivatsiyaga insonning ma'lum harakatlar natijasida qanday natijalarni kutishi ta'sir qiladi. Ushbu nazariyaga binoan, agar shaxs o'z sa'y-harakatlari evaziga ijobiy natijalarga — mukofot, e'tirof yoki kasbiy o'sishga erishishiga ishonsa, u faoliyatni amalga oshirishga ko'proq motivatsiyaga ega bo'ladi. Ichki ishlar vazirligiga qarashli litsey o'quvchilari uchun motivatsiya, asosan, ularning o'qishga, intizomga amal qilishga va to'garaklarda faol ishtirok etishga qaratilgan harakatlari kelajakda huquqni muhofaza qilish sohasida muvaffaqiyatli kasbga olib kelishiga bo'lgan ishonch bilan bog'liq. Agar o'quvchilar o'z mehnatlari evaziga kasbiy imkoniyatlar va shaxsiy rivojlanishga erishishlariga ishonsalar, ular o'z ta'limiy va kasbiy rivojlanishlariga kuchli motivatsiya bilan yondashadilar.

Lokning Maqsad qo'yish nazariyasi

Edvin Lok (1996) tomonidan ishlab chiqilgan Maqsad qo'yish nazariyasi aniq va qiyin maqsadlar bilan motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadi. Lokning fikricha, aniq va murakkab maqsadlar, umumiy va oson maqsadlarga qaraganda, yuqoriroq natijalarni beradi. Litsey sharoitida, aniq kasbiy maqsadlar — masalan, ma'lum huquqni muhofaza qilish lavozimiga kirish yoki belgilangan vaqt ichida muayyan unvonga ega bo'lish — o'quvchilarning motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Lok nazariyasi, shuningdek, maqsadlarga erishishda fikr-mulohaza (feedback) ning muhimligini ta'kidlaydi, ya'ni o'quvchilar muntazam baholashlar orqali o'zlarining taraqqiyotini ko'rib borishlari va qaysi sohalarda yaxshilanish kerakligini anglab olishlari zarur.

Ijtimoiy muhit va kasbiy motivatsiya

Oila ta'siri

S. Ekles va A.Uigfild (2002) tadqiqotlariga ko'ra, oila muhitining farzandlarning ta'limiy va kasbiy motivatsiyasini shakllantirishdagi o'rni juda muhimdir. Seginer (2006) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda esa ota-onalarning ta'limga va kasb tanlashga bo'lgan munosabati o'smirlarning kasbiy orzulariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Ichki ishlar tizimidagi o'quvchilar uchun intizom, davlat xizmatiga sadoqat.

Muassasa ta'siri va rol modeli

Ichki ishlar vazirligiga qarashli litseylarning institut madaniyati o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kellerning ARCS modeli (1987) ga ko'ra, o'quvchilar ta'lim muhitini qiziqarli, dolzarb va qo'llab-quvvatlovchi deb his qilganda, ularning motivatsiyasi ortadi. O'qituvchilar, ma'muriyat vakillari va tashrif buyuruvchi mutaxassislar o'quvchilar uchun rol modeli bo'lib xizmat qiladi hamda ulardan kutib olinadigan qadriyat va xatti-harakatlarni namoyon etadi.

Tadqiqot natijalari va tahlil

2025-yilda Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik litseyida o'tkazilgan tadqiqot quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

- 80% o'quvchilar o'z ta'limlari kelajakda xavfsiz va hurmatli huquqni muhofaza qilish kasblariga olib kelishiga bo'lgan ishonch motivatsiya manbai ekanini bildirdilar.
- 72% respondentlar kasb tanlash qarorida tengdoshlar ta'siri va guruh dinamikasini asosiy motivator sifatida ko'rsatdilar.
- 60% ishtirokchilar Ichki ishlar vazirligi tizimidagi muvaffaqiyatli xodimlar va bitiruvchilarni kuzatish ularning o'ziga ishonchini (self-efficacy) va kasbiy intiluvchanligini oshirganini aytdilar.

Xulosa

Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litsey o'quvchilarida kasbiy motivatsiyaning shakllanishi — oila, tengdoshlar, institut madaniyati va rol modellari kabi ijtimoiy omillar bilan bevosita bog'liqdir. Gertsberg, Bandura, Vroom va Lokning nazariyalari bu tashqi omillarning o'quvchilarning kasbiy orzularini shakllantirishdagi ta'sirini tushunishda mustahkam asos yaratadi. Oila, tengdoshlar va muassasa tuzilmalari tomonidan beriladigan qo'llab-quvvatlovchi muhitni yaratish orqali Ichki ishlar vazirligi o'zining bo'lajak huquqni muhofaza qiluvchi xodimlarining kasbiy motivatsiyasini kuchaytirishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Herzberg, F. (1959). The Motivation to Work. John Wiley & Sons.
2. Bandura, A. (1986). Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Prentice-Hall.
3. Vroom, V. H. (1964). Work and Motivation. Wiley.
4. Locke, E. A. (1996). Motivation through Conscious Goal Setting. Applied & Preventive Psychology, 5 (2), 117-124.
5. Eccles, J. S., & Wigfield, A. (2002). Motivational beliefs, values, and goals. Annual Review of Psychology, 53, 109-132.
6. Seginer, R. (2006). Parental antecedents of adolescent career aspirations: The role of parenting styles and perceived parental support. Journal of Vocational Behavior, 69 (1), 96-109.

7. Tajfel, H. (1979). Individuals and groups in social psychology. *British Journal of Social and Clinical Psychology*, 18 (2), 183-190.
8. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
9. Keller, J. M. (1987). Development and use of the ARCS model of instructional design. *Journal of Instructional Development*, 10 (3),

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATION G'OYA VA YECHIMLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 7-may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, 2025. – 137 bet.

DOI: <https://doi.org/10.47390/spro/i-res-konf-2025>

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz> | <https://sp-press.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 7-may, 2025-yil

Barcha huqular himoyalangan.

© "Sciences problems team" MChJ, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.